


E. UMAROV, M. ABDULLAYEV



MA'NAVIYAT  
ASOSLARI

ERKIN UMAROV  
MAHMUD ABDULLAYEV

# MA'NAVIYAT ASOSLARI

*Oliy o‘quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar  
faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan  
oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma  
sifatida tavsiya etilgan*



№ 4653 | 2

65588

**Taqrizchi:** *M. Mirqosimova*, pedagogika fanlari doktori.

**Mas'ul muharrir:** *M. Abdurahmonov*, Mirzo Ulug'bek nomli O'zbekiston Milliy universitetining «Ma'naviyat asoslari» kafedrasи mudiri, tarix fanlari doktori, dotsent.

### **E. Umarov, M. Abdullayev.**

Ma'naviyat asoslari. O'quv qo'llanma. T.: «Cho'lpon» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006 — 128 bet.

Mazkur ishda ma'naviyat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, milliy mustaqillik sharoitida inson ma'naviy fazilatlarini shakllantirish hamda ma'naviyatga davlat homiyligi muammolari xususida so'z boradi. Ish O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tuzilgan va tasdiqlangan dasturga muvofiq tayyorlandi. Risola oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishlari talabalari, shuningdek, ma'naviyat masalalari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

## KIRISH

Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi jamiyat hayoming barcha jabhalarida tub sifat o'zgarishlari amalga oshilayotganligi bilan xarakterlanadi. Tabiiyki, bu ulkan vazifani halish fuqarolarimizning ijodiy faolligini tinmay oshirib borish va kamol toptirish bilan uzviy bog'liqdir.

Jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish kishilarning ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat va ilm-fan to'g'risidagi tasavvurlarining nechog'liq ilmiyligi, shuningdek, to'g'ri nazariy va amaliy negizga qo'yilganligi bilan bog'langandir.

Ma'naviyatni rivojlantirish sohasidagi mustaqillik siyosati ma'naviy hayot, madaniy taraqqiyotning umumiy qonunlarini ilmiy jihatdan yangicha ishlab chiqishni, ma'naviy-ma'rifiy omilning demokratik, insonparvarlik tamoyillari va bozor iqtisodiyoti asosida qurilayotgan yangi jamiyatda tutadigan o'rnini belgilab olishni kun tartibiga qo'yadi. Prezidentimiz I. A. Karimov alohida ta'kidlaganidek, «Yurtimizda yashayotgan har bir inson, avvalo, unibosib kelayotgan yangi avlodning har tomonlama barkamol, irodasi baquvvat, iyemoni butun bo'lib voyaga yetishi uchun keng jamoatchilik va aholimiz o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatimizni yuksak darajaga ko'tarishning ahamiyati beqiyosdir» (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — Toshkent, «O'zbekiston», 2000. 3-bet).

Binobarin, ongli yashaydigan erkin fuqaro, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs va fuqarolik jamiyatini ma'naviyatini kamol toptirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Mazkur dasturulamal ko'rsatmalar sifatida o'quv yurtlarimizda o'qitilayotgan ijtimoiy-gumanitar fanlar oldiga ulkan vazifalarni qo'yadi, talaba yoshlarning ma'naviyatini shakllantirish, ularning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini yuzaga chiqarish omillarini ilmiy tadqiq etish, yuksak e'tiqod ruhida tarbiyalash mas'uliyatini yuklaydi.

Respublikamizning barcha o‘quv yurtlarida, kollej va litseylarida «Ma’naviyat va ma’rifat asoslari» kursining o‘qitilishi ana shu ezgu maqsadlarga yo‘naltirilgandir. Mazkur kurs rejasida ma’naviyat va uning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, milliy mustaqillik va komil insonni tarbiyalash bilan bog‘liq ma’naviy omillariga alohida e’tibor beriladi.

E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu qo’llanma barkamol avlodni voyaga yetkazish sohasida respublikamizda olib borilayotgan ma’naviy islohotlar va amaliy ishlarni tahlil etish, shuningdek, chop etilgan mavjud adabiyotlardan ijodiy foydalanish asosida yaratildi.



## *Birinchi bob*

# **MA'NAVIYAT VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI**

### **I. MA'NAVIYAT, UNING MOHIYATI VA MAZMUNI**

Har qanday shakldagi tafakkur, bilish jarayoni tasavvurlar, tasavvur, tushunchalar, kategoriyalarning tarkib topishiga olib keladi. Inson tasavvur, tushuncha, kategoriyalar yordami bilan fikr yuritadi, depanda u o'z ongi yordamida muayyan hayotiy jarayon, o'zgabillarni aks ettirishda ulardan foydalanishi nazarda tutiladi. Demak, har bir tasavvur va tushuncha ayni vaqtida voqelik hodisalarining u yoki bu jihatlarini aks ettiradi, binobarin, inson ular orqali olamni biladi, so'ngra ularni boshqa kishilarga yetkazmoq uchun til shakllariga kiritadi.

Shubha yo'qki, atrofimizni tabiat hodisalari, predmetlari, inson tomonidan yaratilgan jism va buyumlar qurshab olgan. Bu olam o'zining nihoyatda xilma-xil shakllari, ranglari, jarayonlari, mukoniy munosabatlari bilan inson hissiyotiga ta'sir etib turadi, ozilarida aks etadi. Moddiy olamning alohida olingan ushbu jarayonlari, ularning o'zaro munosabatlari inson ongi tomonidan olib olishga da'vat etiladi, tafakkurimizda so'z va til hodisalarini uzaga keltiradi. Yana shunday olam ham mavjudki, bu inson ubi, insonning ma'naviy olami, tarixning katta yutug'i sifatida olib qaraladigan insoniyatning ma'naviy hayotidir. Ma'naviyat jumoiy hayotning tarkibiy qismi bo'lib, uning alohida sohasini ahskil etish bilan birga moddiy hayot singari obyektiv reallikka jam egadir.

Ma'naviyat, ma'naviy hayotning jamiyat hayotida tutadigan o'rni haqida so'z yuritishdan oldin «ma'naviyat» atamasining mazmunini aniqlab olish lozim. «Ma'naviyat»ning o'zagini «ma'no», «ma'ni» so'zlari tashkil etishi haqida adabiyotlarda to'xtab o'tilgan. Lokshiruvchilarning fikricha, «ma'naviyat» atamasi, bir tomondan, arabcha «ma'ni» o'zagidan hosil bo'lgan. Ilk islom islohotlari ta'limoticha, Kalom bir talay qismlarga bo'lingan: borliq-

dan avvalgi hayot — qummun, atomlar haqidagisi — javhar al-fard, sababiy bog‘lanish to‘g‘risidagi ta’limot — tavallud, mohiyat to‘g‘risidagi ilm — ma’na hisoblangan. Shunday qilib, narsa-hodisalar, jarayon, tabiat va jamiyat, hatto Ollohning mohiyati «ma’na»da o‘z ifodasini topgan. Ikkinchi tomondan, ma’naviyat ham, uning o‘zagi «ma’na» ham qadimgi hind falsafasida keng qo‘llanilgan «manas» tushunchasi bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Bunday taqdirda u do‘sstar va ulfatlar joyi ma’nosini bildiradi (to‘laroq tafsilot: *A. Erkayev*. Ma’naviyat — millat nishoni. — Toshkent, «Ma’naviyat», 1997 yil, 16—17-betlar). Tilshunoslikka oid lug‘atlarda ham «ma’naviyat» — axloqiylik, kishining ichki va ruhiy olami bilan bog‘liq ma’nolarni anglatishi aytildi.

Ma’naviyat muammosi juda ham murakkab va serqirrali bo‘lganligi sababli unga berilgan ta’riflar ham rang-barangdir. Bunda quyidagicha manzaraga duch kelamiz: ma’naviyat deganda — shaxsiy ong; kishilarning ruhiy faoliyati; axloq, nafosat va nazariy qadriyatlар yig‘indisi, haqiqat va himmat hamda go‘zallikning qiyomi; insonning his-tuyg‘ulari; insonning jamiki axloqiy qadriyatlari yig‘indisi kabilar tushuniladi. Keltirilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ma’naviyat bepoyon, cheksiz borliqning inson ruhida aks etishidir (qaralsin: *H. Po‘latov*. Mustaqillik qadriyatlari. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1993 yil, 7 may).

Demak, ma’naviyat ko‘p qirrali qadriyatdir. «Yer, oila, otona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, xalq, vijdon, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, erkinlik — ma’naviyatning ana shunday ma’nosи keng... Inson o‘zini xalqning bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o‘ylab, mehnat qilib yashagandagina ma’naviyat bilan tutashadi» (*I. A. Karimov*. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. — Toshkent, «O‘zbekiston», 1992, 72-bet). Prezidentimiz ma’naviyat deganda insonni inson, millatni millat qilib turgan axloqiy fazilatlarning majmuasini nazarda tutadi.

I. A. Karimov «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» (1995) nomli asarida ma’naviyatning o‘zagini axloq tashkil etajagini ta’kidlaydi: «Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomalalikdan iborat emas. Axloq — bu avvalo, insof vaadolat tuyg‘usi, imon, halollik degani» (O’sha asar, 53-bet). Demak, inson ma’naviyatini belgilaydigan asosiy mezon — adolatparvarlik, imon, insof, halollik bo‘lib,

inon o‘z faoliyatining barcha sohalarida ana shu tamoyillarni amalga oshirsa, shular negizida hayot kechirsa, mehnat qilsa, boborlar bilan o‘zaro munosabatga kirishsa, elu yurtiga sadoqatini amaliy ishi bilan ado etsa, yuksak ma’naviyat sohibiga aylanadi.

Jamiyat ma’naviyati uning tomonidan ishlab chiqilgan ma’naviy boyliklarda o‘z ifodasini topadi. Boshqacha aytganda, ma’naviyat, eng avvalo, madaniyat tufayli mustaqil mavjudlikka ega bo‘ladi. Bundan shunday fikr kelib chiqadiki, ma’naviyat nafaqat insoniy fazilatlar, balki ma’naviy madaniyatning ilm-fan, falsafa, axloq, adabiyot va san’at, xalq ta’limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an’analar hamda din va diniy amaliyot (ibodat, faqyo, diniy marosim va h. k. ), diniy adabiyot, diniy san’at va boshqalardan iborat rang-barang tur va shakllari majmuuni ham o‘z ichiga oladi (qaralsin: *A. Erkayev. O’sha asar*, 28-bet).

Shunday ekan, ma’naviyatning tarkibi to‘g‘risidagi masala o‘zidan kelib chiqadi. Ilmiy va ommabop adabiyotlarda bildirilgan nihoyatda rang-barang qarashlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ma’naviyat tarkibi quyidagi qismlardan iborat ekanligiga ishonch boul qilamiz:

• **Axloqiy-ruhiy fazilatlar.** Bu insoniy fazilatlar ezhulik va mehr-oqibatning axloqiy tushunchalarida o‘z ifodasini topish bilan bir paytda mazkur fazilatlarning qarama-qarshi qutblarga — yovuzlik va nafratga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikni ham bildiradi. Ezulik (yaxshilik), ruhiy hamdardlik, himmatlilik, xayrixohlik, odam-havandalik, shafqatlilik, samimiylilik, saxiyilik, sofkillik, ochiq ko‘ngillilik, sabr-qanoatlilik — bularning barchasi insonning tevarak-atrofdagi hodisalarga oqilona yondashuvida, ijtimoiy guruh, shuning alohida ta’kidlash kerakki, bu tushunchalar ayollar bilan erkaklar, ota-onalar bilan farzandlar, bobolar bilan nevaralar, qarindoshlar bilan yor-birodarlar, umuman kishilarga nisbatan insonparvarlik, fanni sevish, san’atga mehr qo‘yish, mehnatning biron-bir turini sevish tuyg‘ulari bilan uzviy bog‘langandir. Dindorlar uchun esa bu avvalambor Ollohga, payg‘ambarlarga, birinchtalarga e’tiqod qo‘yishdir. Boshqa tomondan, bu, birinchi galda Vatanni, o‘z xalqini, hayotni, mehnatni, tabiatni, Yerdagi barcha jonzotlarni sevish demakdir.

Ezhulik ma’naviyat hodisasi sifatida yana quyidagilarni ham qimrab oladi: insonning o‘ziga nisbatan talabchanligi; boshqalar

bilan muloqot qila olishga tayyorgarlik darajasi; boshqa fikr va pozitsiyada turadigan kishilar bilan murosa qila bilish qobiliyati; nafaqat ko‘pchilik, balki ozchilik, hattoki alohida insonning ehtiyojlarini to‘la qondirish uchun qo‘lidan kelganicha intilishlik va h.k. Ideal nuqtayi nazardan qaraydigan bo‘lsak, yuqorida sanab o‘tilgan barcha fazilatlar insonga nisbatan mehr-muhabbat ruhida yondashuv — insonparvarlikning gavdalanishidir. Prezidentimiz o‘zbek xalqining ma’naviy fazilatlari haqida gapirganda quyidagilarni bejiz ta’kidlamagan: «O‘zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug‘lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlarga va boshqalarning qayg‘usiga hamhardlik mujassamlashgandir... Insonparvarlik — bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir» (*I. A. Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li.* 66-bet).

• **Fikrlar va xatti-harakatlarning g‘oyaviy — hissiy ulug‘vorligi.** Bu ma’naviy belgilarni fikrlar va xatti-harakatlar ma’naviyati deb atash mumkin, u insonning vatanparvarlik, yangilikka intilishi, yuksak g‘oyalardan ilhomlana olish asosida faoliyat ko‘rsatishida namoyon bo‘ladi. Chunonchi, o‘z vatanini fidokorona va qahramonlarcha himoya qilish, «O‘zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o‘lkaning tarixi, madaniyati, an’analarini teran bilib olishga intilish, respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg‘urish ko‘p millatli o‘zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi» (O‘sha asar, 76-bet).

Ma’naviyatning bu tarkibiy qismlariga erkinlik, mustaqillik uchun kurashish, uni asrab-avaylash va yanada mustahkamlash kabi jihatlar ham to‘la kiradi. Inson xarakterida shunday ruhiy ko‘tarinkilik yuzaga chiqadigan holatlar ham mavjudki, bu jaryonda hissiy o‘zboshimchalik o‘rnini axloqiy erkinlik egallaydi, u tasodifiy tasavvurlardan zaruriy bilimgacha, amaliy ong darajasidan o‘z ma’naviyatini fahmlashgacha ko‘tariladi.

Ulug‘vorlik, asosan, estetikaning tushunchasidir, biroq u ayni vaqtda ma’naviy — axloqiylik kategoriyasi hamdir. Chunki u inson qahramonligi, jasorati, ulug‘vorlik fazilatlari g‘oyasi bilan bog‘lanib ketadi. Ulug‘vorlik xuddi shu ma’noda alohida olingan inson va butun insoniyat taraqqiyoti sari yo‘naltirilgan yuksak, olijanob, ijobiy ma’naviylikni ko‘zda tutadi. Ayni vaqtda, bunday holatning teskarisi, aksilifodasi bo‘lgan jihatlar ham mavjudligini

idan chiqarmaslik lozim. Bular pastkashlik, yaramaslik, jayriunsoniylik kabi kategoriyalar bo‘lib, ular insonga, demakki, ma’naviyatga qarshidir. Buni oddiy so‘z bilan ma’naviyatsizlik, keskinroq tarzda qo‘yadigan bo‘lsak, aksilma’naviyat deb atash mumkin. Xuddi shu ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, ma’naviyot tarixida ilohiylik, rahmoniylik bilan bog‘liq ijobjiy ma’naviyilik, salbiy, tuban ma’naviylik bilan bog‘liq shaytoniylikdan iborat akalma’naviylik hodisalari yuz berganligi hech kimga sir emas.

Biz bu yerda oljanob ma’naviylik degan iborani qo‘llashni lozim topamiz, ayni vaqtida, bu fazilatning yuksak namunasi tarixdagi buyuk shaxslarga xos ekanligini ham ta’kidlaymiz. Olijanoblik fazilatlari nafaqat buyuk shaxslarga, ayni vaqtida oddiy, taqvodor kishilarga ham xosdir. Bu fazilatning yuzaga chiqishida tashqi muhit ham muhim rol o‘ynaydi, chunki uning bevosita ta’siri ostida insonning ichki kuchlari, muayyan fikr, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlari yuzaga keladi. Odatdagidek fikr yuritadigan bo‘lsak, biz qahramon deb hisoblaydigan insonlar oddiyligi bilan ajralib turadigan kamtar mehnatkashlar, o‘zining pok va halol mehnati bilan xizmat vazifasini, oilasi oldidagi burchini, o‘z hamkasblari, qo‘ni-qo‘shnilari, jamiyat oldidagi majburiyatlarini sidqidildan bajaradigan fuqarolardir. Ular nafaqat o‘zi, oilasi, balki jamoasi, qo‘ni-qo‘shnilari, jamiyat to‘g‘risida ham g‘amxo‘rlik qiladilar. Prezidentimiz bunday kishilarni «yuragida o‘ti bor, serg‘ayrat odamlar, yoshlar, fidoyi vatanparvarlar» deb ataydi, ular orqali inqadimizga yetamiz, deydi (*I. A. Karimov. Istiqlol va ma’naviyat. Toshkent, «O‘zbekiston», 1994 yil, 86-bet*). Bunday kishilar ma’naviylikning har bir belgisi qaror topishi va rivojlanishi uchun yurakdan kurashadi.

• **Go‘zallik tushunchasi va go‘zallik tuyg‘usi.** Bu fazilatlar inson tomonidan tabiat, jamiyat va insondagi uyg‘unlik, mutano-sabilitik, ranglar jilosi, simmetriya kabilarni idrok etishda yuzaga chiqadi, buning natijasi o‘laroq insonlarda rohat va zavq, tashab-bukorlik yoki aksincha, salbiy hissiyotlar tug‘iladi. Go‘zallik — yuvaq estetik qadriyat bo‘lib, tabiatdagi narsa-hodisalarning shakli va bo‘yog‘i, rangining mukammalligidan zavq-shavq olish, shuningdek, san‘at sohasida yaratilgan go‘zal asarlardan intellektual va emotional mammunlik hissini tuyish, insonning ma’naviy fazilatlari — mehnati, odob-axloqi, Vatan uchun kurashdagi ulug‘vorlik xatti-harakatlaridan rohatlanish mahsulidir. Tabiiyki,

go'zallik hissiy shakl bilan, mushohada va xayol bilan uzviy bog'langan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, go'zallik nafaqat tabiat va madaniyatning mukammal, go'zal shakllarini idrok etganda, balki kishilarning yuksak insoniy xatti-harakatlarini kuzatganda ham tug'iladi, uni idrok etuvchilarda inson zotiga nisbatan mehr-muhabbat va hayratlanish hosil qiladi, ularga taqlid qilish ishtiyoqini yuzaga keltiradi. Eng go'zal narsa — hayotdir. Borliqning go'zal manzaralarini estetik idrok etish faqat hissiy ta'sirchanlik bilan chegaralanib qolmaydi, balki bunday jarayon insonni fikr-mulohaza yuritishga, ko'rganlari va eshitganlarini tahlil qilishga da'vat etadi.

Estetika ilmiga nazar tashlaydigan bo'lsak, go'zallik kechinmasi aksariyat hollarda ulug'vorlik (ko'tarinkilik) to'g'risidagi hissiyot va fikrlar bilan uzviy bog'langan holda yuzaga chiqadi. Chunonchi, bahor payti o'rikning oppoq gullariga burkangan bog'larni idrok etganimizda qalbimizda nafaqat go'zallik tuyg'usi, shu bilan birga yashashdan zavqlanish va faxrlanishning ulug'vor kechinmalari, hayot to'g'risidagi eng yuksak va ko'tarinki hissiyotlar bizni chulg'ab oladi. Insonlarcha yashash va zavqlanish ruhiyati bizda olijanob tasavvurlarni tarkib toptiradi. Aytish joizki, ulug'vor me'moriy obidalarni, muhtasham qurilish inshootlarini kuzatganimizda ham ana shunday hissiyotlar qalbimizni junbushga keltiradi. Farg'ona shahrida bunyod etilgan Ahmad al-Farg'oniy go'shasi, Quvadagi Shahriston me'morchilik majmuasi, Samarqand, Xiva, Toshkent-dagi osmono'par binolar, bog'lar, oromgohlar ana shunday ma'naviy ozuqa beradi. Bu yerdagi go'zallik bilan ulug'vorlik tuyg'usi mushtarakligining ma'nosi shuki, mana shunday muhtasham inshootlar inson qo'li bilan yaratildi, ularni idrok etayotgan minglab kishilar ham o'zlarining inson ekanliklaridan faxrlanadilar.

San'at sohasidagi go'zalliklarni idrok etishning emotsional va g'oyaviy ta'siri haqida har qancha gapirsak ham arziydi. San'atning buyuk roli shundaki, u ijobiy ma'naviylikni mustahkamlash va rivojlantirishga ongli ravishda xizmat qiladi, soxta ma'naviylikni bartaraf etish uchun kurash olib boradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ma'naviy barkamol inson va ja'miyat estetik qadriyatlarga befarq qaramaydi, aksincha, ularning rivojlanishi va ravnaq topishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Estetik madaniyati, estetik didi, fahm-farosati past inson hech qachon ma'naviylikning cho'qqisiga chiqa olmaydi. «Ajoyib she'rlarni o'qiganingda, — deydi Prezidentimiz estetik madaniyat

Bo'lgan so'z yuritib, — qandaydir g'urur, iftixor tuyg'usi paydo bo'tadi, odam o'zini ham ruhan, ham jisman har narsaga qodir bo'stidi» (*I. A. Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. 29-bet*). I. A. Karimovning yozuvchilar, tarixchilar, me'morlar, rassomlar bilan bo'lgan subbatlarida ular tomonidan yaratilgan yuksak asarlarining ma'naviy-estetik fazilatlari atroflicha yoritib berilgan.

• **Nomus hissi, axloqiy mas'ullikni anglab yetish — ma'naviyatning muhim tarkibiy qismidir.** Bu tushuncha inson o'z-o'ziga bera olishi, o'z-o'ziga tanqidiy munosabat, axloqiy ideallarga itoat, ularni so'zsiz amalga oshirishga intilish, izchil inson-parvarlik vaadolatparvarlik, ilohiyot oldida poklik, halollik, dini, qiziq, tilidan qat'iy nazar, butun insoniyatga hurmat ruhi bilan qarash imoyillarini o'z ichiga oladi. Vijdanan ish tutish, faoliyat ko'rsatish bu inson atrofini o'rabi olgan jamoaga, kishilarga, Vatanga zarar kelmaslik, adolatsizlikka, nojo'ya xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasby demakdir. Binobarin, «o'zbek xalqining yuksak milliy qadr-qimmati, or-nomusi va shon-sharafi uning o'ta mehribonligi va sof vijdonligiga asoslanadi». Prezidentimiz asarlarida nopok, nafsi harom, o'zining manfaatini ustun qo'yayotgan, iymonsiz, vijdonsiz shaxsol, mas'uliyatdan qochadigan kimsalar mavjudligi ko'rsatib etilmoqda (qaralsin: *I. A. Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. 85—86-bet*). Albatta, bunday harakatlar aksilma'naviy holatlarning yuzaga kelishi olib keladi.

Har bir millat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri huquqolarning davlatga bo'lgan ishonchi hisoblanadi. Bu sohada erishgan respublikamizda juda katta ishlar amalga oshetilmoqda. Demokratik jamiyatni barpo etish va huquqiy davlatni qaror toptirish asnosida boshqaruvning turli xil vazifalarini devonita xalqqa topshirish» masalasi tobora ijobjiy hal etilmoqda. Prezidentimiz «inson va davlat o'rtasidagi munosabatlarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishi kerak», deb bejiz aytmagan (*I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 185-bet*).

• **Bolalar, keksalar, kasalmandlar, hayotda ishi yurishmaganlariga muntazam ravishda rahm-shafqat, hamdardlik, rahmdillik ko'rsatish, ularga ijtimoiy g'amxo'rlik qilish g'oyasi.** Prezidentimiz bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy mukofaza masalasiga katta e'tibor berayotganligi hammamizga mo'lim. Binobarin, yurtboshimiz tomonidan ishlab chiqilgan besh temoyilning biri ana shunga yo'naltirilgan. Qariyalar, nafaqaxo'rlar,

nogironlar, talabalar, onalar va bolalarni ijtimoiy muhofaza qilish davlat siyosatining asosiga qo'yildi, onalar va bolalar sog'ligini himoya qilish, ham jismoniy, ham ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2004 yilning «Mehr-muruvvat yili» deb e'lon qilinishi buning yorqin ifodasidir.

• **Aql, bilim, fan, ijod, haqiqatga intilish — ma'naviyatning yana bir qirrasi.** Bilim ming yillar davomida aqliy mehnat va amaliy faoliyat sohasida xalq donishmandligini ifodalab kelgan. Tabaqalashtirilgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi natijasida turli xil bilimlar to'planib, yilqichilik, dehqonchilik, ovchilik, hunarmandchilik, bemorlarni amaliy davolash usullari rivojlanishi bilan ularning mazmuni ham kengaya borgan. Bilimlarning ilk ko'rinishlari qadimgi dunyoda ming yillar muqaddam paydo bo'ldi. Xitoy, Hindiston, Vaviloniya va Misrda ilk ilmiy tasavvurlar tarkib topadi. Eramizdan oldingi VI—IV asrlarda qadimgi Yunonistonda ular bir qadar tizim tusini oldi. Tabiiyki, bu jarayon fanning yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

Ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqib va, ayni paytda, ularni qondirish maqsadida fan taraqqiyoti o'z boshidan bir qator bosqichlarni kechirdi. Fan kishilarning moddiy ehtiyojlarini qondirish, ularning moddiy hayotini rivojlantirishga xizmat qilish bilan chegaralanib qolmadi. Shu bilan birga fan kishilarning ma'naviy qadriyatlari doirasini kengaytirishga, ularning idrok etish darajasini rivojlantirishga ham da'vat etildi. Kishilarning aqliy mehnat bilan shug'ullanishlari bu sohaning maxsus ijodkorlarini shakllantirdi. Natijada, aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'zaro birlashib, uyg'unlik hosil qilgan joyda yangi ixtisosliklar yuzaga keldi.

So'nggi asrda kishilarning fan, texnika, madaniyat, san'at va din sohasidagi yutuqlarga yaqinlashish va erishish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Kishilik tarixida bu narsa dastavval kitob chop etish, keyinchalik ommaviy ravishda gazeta chiqarish bilan boshlangan edi. Radio va televideniyening paydo bo'lishi ommaviy axborot bilan ta'minlash imkoniyatlarini g'oyat kengaytirdi. Hozirgi paytda kompyuter va internet savodxonligini amalga oshirish kishilar ma'naviyatining chuqurlashuviga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

Respublikamiz o'zining ulkan ilmiy salohiyati bilan alohida ajralib turadi. Respublika ilmiy-tadqiqot majmui akademiya, oliy

fan-yurtlari va tarmoq yo'nalishlaridagi 362 muassasani o'z ichiga oladi. Fan sohasida 46 mingga yaqin kishi band, shulardan 3 mingga yuqini fan doktori, taxminan 16 mingdan ko'prog'i fan bo'shidir. Mamlakatimiz olimlari zamonaviy fanning ko'pgina yo'nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borishmoqdidi. Darhaqiqat, «o'z aql-zakovatimiz va ilmiy-texnikaviy faoliyatimizni rivojlantirish mamlakatimizni barqaror taraqqiy etish omilidir» (I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: sifatizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Tashkent, «O'zbekiston», 1997 yil, 267-bet).

Ma'naviy qadriyatlarimizni tashkil etadigan fan, ijod, diniy tamoyillar xalqni ruhan yuksaltirish, insonni axloqiy va madaniy omot toptirishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Biroq shuni aytila kerakki, har qanday bilim, iste'dod, e'tiqod sohibi o'zi faoliyat ko'rsatadigan sohada chuqur salohiyat egasi bo'lishining o'zi yetarli emas. Boshqacha aytganda, har qanday bilimli va e'tiqodli odamni hali to'la ma'naviyat sohibi deyish unchalik to'g'ri emas. Bunday intilishlar yuksak axloqiy tamoyillarga bo'ysungan va ular inson amaliy faoliyatining asosini tashkil etgan taqdirda emas, huqiqiy ma'no kasb etadi va ma'naviyatga aylanadi.

Ma'naviyatning eng muhim belgilaridan biri kishilarga nisbatan eng yuksak mehr-oqibat va ezbilik ko'rsatishga intilish bo'lar emas. Fan arboblari, olimlarning fikr va faoliyatları, shubhasiz, chuqur ma'naviylik kasb etadi. Biroq shuni ham tan olish kerakki, ko'pincha fan va texnika sohasidagi ulkan muvaffaqiyatlar bilvosita bo'lsa da, bir hovuch millioner va multimillionerlar hayoti bilan millionlab qashshoq kishilar o'rtasidagi tafovutlarning chuqurleshuviga sabab bo'lishi mumkin; yadro, kimyoziy, biologik qurollur ishlab chiqarilishi, gunohsiz kishilarning hayotiga xavf qolinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Holbuki, bunday o'sviyimoniy faoliyatda ayrim fan arboblari o'z kashfiyotlari bilan qatnoshishlari hech kimga sir emas.

**Ekologik dunyoqarash, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish mas'uliyati.** Insonning ma'naviyatini belgilaydigan mezonlardan biri uning o'z atrofini o'rabi turgan tabiatga ijobiy munosabati va ekologik madaniyati hamda dunyoqarashini shakllantirish bilan bog'liq. Bu masala, ayniqsa, bugungi kunda yanada dolzarb akademiyat kasb etmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti ayni paytda tabiiy enditining ifloslashuvi va buzilishiga sababchi bo'lmoqda. Ma-

halliy nuqtayi nazardan vujudga keladigan bunday ekologik bo‘hronlar global to‘ntarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Fojianing oldini olish uchun nafaqat katta davlatlar, balki har bir inson ham o‘z faoliyatida ma’naviy mas’ulligini chuqur his etishi zarur.

To‘g‘ri, bu masalaga jahonning yirik davlatlari alohida e’tibor bermoqdalar. 1992 yil iyun oyida Braziliya poytaxtida BMTning hali hech bir miqyosda bo‘lib o‘tmagan ekologiyaga bag‘ishlangan sessiyasi tashkil etildi. Unda 179 mamlakat ishtirok etdi. Sessiyada juda ko‘plab muhim qarorlar bilan bir qatorda tabiatni saqlab qolish va sivilizatsiyani yanada ravnaq toptirishga bag‘ishlangan «XXI asr kun tartibi» degan muhim hujjat qabul qilindi. Mazkur hujjatga insoniyatning iqtisodiy-ekologik taraqqiyotini barqarorlashtirish konsepsiysi asos qilib olingan.

«Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, jumladan, mamlakatimiz aholisi, — deb yozadi I. A. Karimov, — juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish — o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir. Af-suski, hali ko‘plar ushbu muammoga beparvolik, mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lmoqdalar» (I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida. 112-bet).

Ma’lumki, tabiat va inson muayyan qonuniyatlar asosida o‘zaro aloqada va munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish esa xavfli ekologik falokatlarga olib keladi. Buning uchun inson, birinchi navbatda, ma’naviy javobgardir.

XXI asr bo‘sag‘asida fan-texnika taraqqiyoti jadal sur’atlar bilan rivoj topib bormoqda. Xuddi shunday davrda inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirni tartibga solish, inson bilan tabiat munosabatida uyg‘unlikka erishish nafaqat siyosiy, iqtisodiy, balki ma’naviy muammodir. Har bir insonda tabiatga, uning go‘zalliklari va boyliklariga nisbatan oqilona munosabatni tarkib toptirish bugungi kunning muhim vazifasi ekanligi hech kimga sir emas.

✓ Yuqoridagi fikrlarga xulosa yasaydigan bo‘lsak, ma’naviyat tar-kibida axloqiy fazilatlar ustuvor o‘rin egallashiga ishonch hosil qilamiz. Ayni paytda, ma’naviyatning mazkur qatlamlari o‘zaro uzviy bog‘liqligini ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimdir. Ulardan birortasi na sof axloqiy, na sof estetik, na sof intellektual, na sof ekologik mohiyat kasb etmaydi.

Juda murakkab hodisa bo‘lgan ma’naviyatni qatlamlarga ajratib va, ayni vaqtda, uning eng asosiy, bosh negizini aniqlab olib, aytish

moniki, undagi o'zak-negiz — axloqiy-estetik va intellektual-ekologik kompleksdir. Demak, haqiqiy ma'naviyat — bu ezgulik va mohi muhabbat, ulug'vorlik va go'zallik, vijdoniylik va mehr-shafqat, boshqa kishilarga hamda tabiat bilan uyg'unlikni saqlash xayriya va tuyg'ulariga sadoqat yig'indisidir.

Shunday qilib, biz yuqorida ma'naviyatning tarkibini tashkil etibor qatlamlar haqida umumiy ma'lumotlarni berib o'tdik. Ko'ndiki, insonga insonlarcha munosabat ma'naviyatni tushunishda juda muhim o'rinni tutadi, bu narsa shubhasiz, har bir ja-niyatda amal qilinadigan ijtimoiy munosabatlarning tizim va xarakteri bilan belgilanadi. Shu sababli, kishilik tarixida inson ma'naviyatining asosan ikki tipi yashab kelganligini ta'kidlash kerak: an'anaviy-diniy ma'naviyat; dunyoviy, ilmiy-sintetik ma'naviyat. Ulardan har ikkisi ham kishilar dunyoqarashini insoniyloshtirishga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Ma'naviylikning yuqorida qayd etilgan tiplarining har biri ma'naviyatsizlikning har qanday namoyon bo'lishiga qarshi turadi va ular bilan kelisha olmaydi. Biz bu o'rinda ma'naviyatsizlik tushunchasi bilan bir qatorda «aksilma'naviyat» degan tushunchani methehnii lozim topdik. Binobarin, «ma'naviyatsizlik» insoniy to'ifatlarini o'zida gavdalantira olmaslik bo'lib, uning ko'pgina o'qillari insonning shaxsi, hayoti, xarakteri kabi subyektiv jihatiga va, ayni paytda, jamiyat ma'naviy ehtiyojlarining qay darajada oqilonaligiga bog'liq bo'ladi. «Aksilma'naviyat» esa g'ayriin-soniyligi ongli ravishda targ'ib qilish, xudbin maqsadlar yo'lida insoniy fazilatlarga qarshi kurashish, bir so'z bilan aytganda, xoyuzlik va makkorlik tizimini vujudga keltirishdan iboratdir.

Fabulyki, aksilma'naviy hodisalar mohiyatini tushunmay, ularga qoshi ko'kin kurash olib bormay turib, inson va jamiyat ma'naviyati o'qilipni saqlab bo'lmaydi. Shuning uchun ma'naviyat masala-si bilan shug'ullanadigan har bir inson ana shunday hodisalarni yaxshi tushunib olishi va ularning ro'y berishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Prezidentimiz I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sog'usida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot fatolatlari» asarida aksilma'naviy hodisalar sifatida mintaqaviy modelar, diniy ekstremizm va fundamentalizm, buyuk davlatchilik shovinizmi, agressiv millatchilik, korrupsiya va jinoyatchilik kabi-buni sanab o'tadi. Masalani kengaytiradigan bo'lsak, aksilma'naviy hodisalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• **Buzg‘unchi g‘oyalarga asoslangan jinoyatchilik faoliyati:** (agressiv urushlar, terrorchilik, diniy aqidaparastlik, o‘g‘rilik, buyurma qotillik, sotqinlik, poraxo‘rlik, qalloblik, boylik orttirish maqsadida garovga ushlab turish, soliqlarni to‘lamaslik, armiya xizmatidan bo‘yin tovlash, irqchilik, millatchilik, banditizm va h.k). Bunday jinoyatlarni sodir etgan shaxslar qonun asosida sudlov yo‘li bilan o‘z jazosini oladilar.

• **Mehnat intizomini buzish holatlari:** xizmat vazifasiga loqaydlik, firibgarlik, dangasalik, tartibsizlik, intizomsizlik, to‘rachilik, madaniyatsizlik, kattazanglik, bezbetlik, qo‘pollik, ochko‘zlik, manmanlik, masxaralash, ikkiyuzlamachilik, maqtanchoqlik, o‘ziga bino qo‘yish, g‘irromlik va h. k. Bularning barchasiga nisbatan ma‘muriy chora ko‘rish mumkin.

• **Oilaviy turmush va maishiy munosabatlardagi noaxloqiy xatiharakatlar:** xudbinlik, ichkilikbozlik, bag‘ritoshlik, hasadgo‘ylik, adovat, ig‘vo, nodonlik, nashavandlik, pastkashlik, qo‘rroqlik, vijdonsizlik va h. k.

• **Ekologik xavfsizlikni buzishga qaratilgan intilishlar:** tabiiy muhitni kimyoviy va fizikaviy jihatdan ifoslantirish, atmosferani, suv, tuproq, o‘rmon, dala, yo‘llar, ko‘chalar, aholi yashaydigan makonlardagi ekologik tartiblarni qo‘pol ravishda buzish. Bularga nisbatan sud orqali yoki ma‘muriy yo‘l bilan chora ko‘rilishi mumkin.

• **Ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish va uning natijalaridan g‘ayriinsoniy maqsadlarda foydalanish:** genofondni buzish, tabiiy resurslarni kambag‘allashtirish, epidemiyalar tarqatishga imkoniyatlar tug‘dirish, bema’ni gap sotish va texnokratizmga zo‘r berish, tabiatga g‘oyat zarar keltiradigan texnologiyalarni qo‘llash va h. k. Bularga nisbatan qo‘llaniladigan choralar ham yuqoridagilarga o‘xshagandir.

Yuqorida aksilma’naviy hodisalarning umumiylar xarakterdagи jihatlarni sanab o‘tdik. Agar ularga alohida olingan kishilar nuqtayi nazaridan yondashadigan bo‘lsak, bu ro‘yxatni yana ham uzaytirish mumkin. Axir, yovuz va qonxo‘r, yolg‘onchi va shafqatsizlar guruhi, asossiz urush chiqarmoqchi bo‘lganlar, zolimlar, qotillar, mansabparastlar, kaltabin texnokratlar, to‘ralar, byurokratlar ozmunchami?

Ma’naviyatsizlik, qolaversa, aksilma’naviylikka qarshi kurashishing yo‘llari, vositalari rang-barangdir. Bunda hozirgi zamon tabiatshunoslik va ijtimoiy-gumanitar fanlar, iqtisod va madaniyatning, diniy qadriyatlar, sotsial-siyosiy munosabatlar, ularning rivojlanganlik darajasi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shubha yo'qki, bu jarayonlar jamiyatni demokratik, adolatparvarlik va halollik asosida boshqarish tamoyillari bilan bog'langan. Binobarin, ma'naviyat jamiyat rivojlanishining mezonigina emas, balki ana shu taraqqiyotning omili hamdir.

Ma'naviyatni tarkib toptirish va rivojlantirishda ta'lim-tarbiya juda katta rol o'yndi. Respublikamizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ana shunga da'vat etilganligini ta'kidlash lozim. Prezidentimiz I. A. Karimov yozganidek, «ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchanlik faolligini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodlarning dono tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi. Yoshlar, ularning iqtidorligi va bilim olishga chanqoqligidan ta'lim va ma'naviyatini tushunib yetish boshlanadi» (*I. A. Karimov. Istiqlol va ma'naviyat*, 9-bet).

Darhaqiqat, hozir butun dunyoda, shu jumladan, bizning mustaqil respublikamizda ham ta'lim sohasida o'quv jarayonlarini demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, jadallashtirish, mustahkamlash, kompyuterlashtirish va yaxlitlashtirish yo'naliishlarida katta ishlar qilinmoqda. Binobarin, demokratlashtirish va insonparvarlashtirish ma'naviyatni tarkib toptirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'naviyat asoslari, etika, estetika, umumnazariy va ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, tarix, madaniyatshunoslik, psixologiya, ekologiya fanlarini o'qitishning sotsial maqomi yuksalib bormoqda.

Shunday qilib, ma'naviyat ko'p qirrali hodisa bo'lib, axloqiy (odob, burch, mas'uliyat tuyg'ulari), ilmiy, estetik-ijodiy, amaliy malakalar (mehnat, ijodkorlik, iste'dod, qobiliyat), diniy, inaskuraviy qarashlarning yaxlit birligidan iborat. Bu qarashlar alohida-alohida olinganda emas, balki bir butun, yaxlit holdagi na ma'naviyatni tashkil etadi.

## **2. MA'NAVIYAT VA MA'NAVIY HAYOTNING ASOSIY TUSHUNCHALARI**

Ma'naviyat olami shu qadar murakkab, ziddiyatli, rang-ba-rang va ko'p qirrali ekanligi yuqorida ta'kidlab o'tildi. Ma'naviyat darajasini va insonning ma'naviy yetuklik mezonlarini belgilab olish mumkinmi?

Avvalo, shuni aytish kerakki, inson va jamiyatning ma'naviyati olami sirli narsa emas, albatta. Ijtimoiy fanlar taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, murakkab ijtimoiy hodisa bo'lmish ma'naviyatni ham tabiat va jamiyatdagi boshqa narsa va hodisalarga o'xshab bilib olish mumkin. O'tmishda odamlar o'z moddiy-iqtisodiy hayotlarini ma'naviy turmushlariga nisbatan ko'proq anglab yetishga intilganlar. Darvoqe, moddiy ne'matlар («non») ni taqsimlash masalasi hamma vaqt dolzarb bo'lган, chunki ishlab chiqarish kuchlari zaif bo'lганligi sababli hamma vaqt ham yetarli moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning imkoniyati bo'laveragan. Shu tufaylimi yoki boshqa sababdanmi, ishqilib, ijtimoiy boylikka ega bo'lish hamma zamonlarda ham mansab-hokimiyat masalasi bilan bevosita bog'liq bo'lган, iqtisodiy munosabatlar esa hamisha keskin kurashlar negizida yuz bergen. Kishilarning ma'naviy hayoti moddiy turmushga nisbatan qandaydir ikkinchi o'rinni ishg'ol qilgandek tuyulgan, unga nisbatan jamiyatda yuzaga kelgan munosabatlar ana shu asosda unga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Biroq, kishilik dahosining buyuk namoyandalari inson hayoti asosiga ma'naviyatni qo'yish masalasini ham yoddan chiqarmaganlar, bu narsa, ayniqsa, Sharq falsafasida, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati tarixida alohida o'rin tutgan. Mazkur ishning ikkinchi bobida bu haqda batatsil fikr yuritiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'ramizki, mutafakkirlar ma'naviyat hodisasini o'rganishga, uning asosiy tushunchalarini ishlab chiqishga, ma'naviy yuksalish tamoyillarini belgilab olish asosida faoliyat ko'rsatishga alohida e'tibor berganlar. Xalq og'zaki ijodi namunalari, muqaddas diniy kitoblar, dunyoviy-falsafiy qarashlarning negizida ma'naviyat masalasi o'ziga xos o'rin tutgan. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviyat markazida insoniylilik, inson zotining axloqiyligini namoyon etish usuli turgan.

Ijtimoiy hayotimizning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ma'naviyat hodisasining mohiyatini anglab yetish mumkin, butun fan olami hamon bu sehrli hodisaning mazmunini yoritishga intilib kelmoqda, qadimdan uni faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, tibbiyot xodimlari, fiziklar, kimyogarlar o'rganishga harakat qilib keladilar. Har bir ixtisos sohibi uni o'z fanining predmeti nuqtayi nazaridan va uning o'ziga xos xususiyatlari jihatidan o'rganishni amalga oshiradi. Masalan, psixologlarni ma'naviy jarayonlarning ruhiy in'ikos etilishi, insonning xarakteri, temperamenti, hissiyot-

lari, tarbiyachini esa insonni tarbiyalashning ma'naviy qadriyatlarida ifodalanadigan jihatlari, ularning shaxs shakllanishiga ta'siri masalasi o'ziga tortib keladi. Bu masala bilan hatto kibernetikaning ham shug'ullanishini qayd etadigan bo'lsak, inson faoliyatining bu murakkab sohasi ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida informatsion aloqa rolini ko'rsatishga yo'naltirilgandir. Bunday tavsiflarni ko'plab keltirish mumkin, biroq bularning barchasining obyekti ma'naviyat, jamiyat va insonning ma'naviy olami hisoblanadi.

Demak, bugungi kunda tilimizda qo'llaniladigan hamda ma'naviyatning tabiatini va mohiyatini ifodalaydigan asosiy tushunchalar kishilik infakkurining mahsulidir. Bu tushunchalar yaxlit holda ma'naviyatning serqirra olamini, shakllari va turlarini, uning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan aloqadorligi masalalarini yoritadi va bizning ma'naviyat to'g'risidagi bilimlarimizning rivoj topishiga olib keladi. Bu o'rinda shuni tu'kidlash joizki, hozirgi adabiyotlarimizda, maqola va chiqishlarimizda «ma'naviyat» atamasini tushuntirishga alohida e'tibor berish ustuvor vazifalardan bo'lib turibdi. Vaholanki, kishilik jamiyati tarixida, xalqimiz infakkuri silsilalarida shunday tushunchalar ham shakl topganki, ularning mazmuni va tabiatи haqidagi masalani hal etmasdan turib, «ma'naviyat» degan hodisaning tagiga yetib bo'lmaydi. Bunday tushunchalar nihoyatda ko'p, biroq biz ularning hammasi haqida emas, usosiylari to'g'risida fikr yuritishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Ma'naviyatni inson va jamiyat hayotisiz tasavvur etish mumkin emas. Modomiki, shunday ekan, uning barcha qirralarini ana shunday hodisalarga bog'lab tushuntirish lozim.

**Jamiyatning ma'naviy hayoti.** Ma'naviy hayot haqiqiy ma'nodagi insoniy hayot, faoliyat, muayyan ijtimoiy sohada kishilar kechiradigan hayotdir. Ma'naviy hayot kishilar mavjudligining real, jonli jarayoni, har qanday darajadagi mavjudligi ifodasi bo'lib, u kundalik oddiy tushunchalardan tortib, insoniyatning eng qaynoq ijodi, xayollari, ruhiy olami, hissiy kechinmalarigacha bo'lgan holatlarni o'z ichiga oladi.

Jamiyatning ma'naviy hayoti ikki jihat bilan xarakterlidir. Birinchidan, u kishilar hayotiy faoliyatining real jarayoni, uning asosiy tiplaridan biridir. Shu ma'noda barcha sotsial jarayonlarni u o'z tarkibiga oladi. Zaruriy moddiy ne'matlarga ega bo'lish maqsadida insonlar shubhasiz, moddiy ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Biroq ongli zot sifatida ular o'zlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirmasdan yashashi ham mumkin emas. Shuning

uchun ongni ishlab chiqaradi, ma'naviy munosabat va muomalalar tizimiga kiradi. Demak, ular ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan yashashga da'vat etilgan bo'ladi. Ikkinci tomondan, ma'naviy hayot jamiyat hayotining nisbatan mustaqil sohasidir.

«Jamiyatning ma'naviy hayoti» tushunchasi «jamiyatning ma'naviy sohasi» tushunchasi bilan konkretlashadi. Jamiatning ma'naviy sohasiga butun ma'naviy hayot emas, balki uning ba'zi qatlamlari yoki maxsus ma'naviy ishlab chiqarish darajasi bilan bog'liq bo'lgan (professional) tomonlar kiradi, maxsus amal qiladigan sotsial institutlar (mafcura va ilmiy muassasalar, teatrlar, kutubxona, muzey, muktab va h. k) shular jumlasidan. Bular ma'naviy qadriyatlarni yaratuvchilar va tarqatuvchilardir.

Shunday qilib, jamiyatning ma'naviy hayoti o'z mohiyatiga ko'ra, kishilarning yashab turishlarining real jarayoni, amal qilishiga qarab — ijtimoiy hayotiy faoliyat va ongni ishlab chiqarish, tarqatish hamda kishilarning ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'langan nisbiy mustaqil sohadir.

Jamiyatning ma'naviy hayoti kishilar ma'naviy jihatdan erkin bo'lishlari bilan bog'liq holda amal qiladi.

Insonning ma'naviy erkinligi uning erkin faoliyat sohibi sifatida o'zini anglab yetishini bildiradi. Insonning ma'naviy erkinligi haqiqiy qadriyatlarga erkin munosabatda bo'lishda, ma'naviy-ijodiy erkinlikda namoyon bo'ladi.

Ma'naviy sohaning asosini ma'naviy ishlab chiqarish tashkil etadi. Bu jarayonda ong, ya'ni g'oyalar, qarashlar, tasavvurlar ishlab chiqariladi. Darhaqiqat, kishilar o'zlarining hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish bilan chegaralanibgina qolmasdan, balki o'z tasavvurlari, tushunchalarini ham yaratadilar. Ongni ishlab chiqarish tarixan konkret shakllar (turlar)da amalga oshiriladiki, uning har bir shakli (siyosiy, axloqiy, estetik va h.k.) ma'naviy ishlab chiqarishning alohida tarmog'ini tashkil etadi.

Ma'naviy ishlab chiqarish ijtimoiy ongni, ma'naviy qadriyatlarni yaratishdan iboratdir. Ma'naviy qadriyatlari (ilmiy g'oyalar, qarashlar, badiiy asarlar, rassomlik asarlari) ma'naviy muloqotlarning mohiyatini ifodalaydi. Buning natijasi o'laroq ijtimoiy ong omma o'rtasida keng tarqaladi.

Ma'naviy ishlab chiqarishning o'ziga xosligi uning mahsulotlari bilan bog'liqligidadir. Ma'naviy ishlab chiqarish mahsulotlari

o‘zining yangiligi, ohori to‘kilmaganligi (yangi badiiy asar, yangi kartina, yangi ilmiy bilimlar) bilan ajralib turadi. Ularning iksariyati moddiy tusga kiradi, ya’ni kitob, rassomlik asarlari singari tarkib topib, o‘z yaratuvchilari va iste’molchilaridan alohida yashashi ham mumkin. Boshqa xillari esa ularni yaratish va ijro etish jarayonida voqe bo‘ladi. Masalan, artist sahnaga chiqqanda, ma’ruzachi (lektor)-o‘qituvchi auditoriyaga kirganda shunday holat ro‘y beradi. Demak, ma’naviy faoliyat jarayonining o‘zi uning maqsuli bo‘lib namoyon bo‘ladi.

Ma’naviy ishlab chiqarish aqliy va intellektual mehnatga asoslanadi. Jamiatning rivojlanish asnosida aqliy-intellektual mehnat inson va uning faoliyati uchun yanada keng imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ham ana shunda. Aqliy mehnatning jozibadorligi, ayniqsa, adabiyot va fan sohasida ana shu holat bilan belgilanadi.

Shuni aytish kerakki, ma’naviy ishlab chiqarish eng avvalo, mehnatning ijodiy xarakterini namoyon qiladigan sohadir. San’atkor, olim, rassom, bastakorning mehnati haqiqatan ijodiy mehnatdir. Kengroq ma’noda oladigan bo‘lsak, insonning har qanday mehnati ma’naviylik bilan sug‘orilgan, «ma’naviylashgan»-dir. sababi — moddiy faoliyatda inson nafaqat jismoniy, balki ma’naviy kuchlarini ham sarf qiladi. Shu boisdan, adabiyotlarda moddiy ishlab chiqarishning ma’naviy imkoniyatlari, negizlari degan tushuncha amal qiladi.

Yuqorida ma’naviy ishlab chiqarish ongni ishlab chiqarish bilan bog‘liq hodisa, deb aytildi. Unga qo‘srimcha sifatida ta’kidlash kerakki, ma’naviy ishlab chiqarish yolg‘iz ma’naviy-nazariy faoliyatdan, o‘zi ta’sir etadigan obyektni fikran o‘zgartirishdangina iborat emas. Aytaylik, inson tarbiya va ta’lim jarayonida yangi poyalar, qarashlar, bilimlarni egallaydi. Unda dunyoqarash, sotsial maqsad, hayotiy pozitsiya shakllanadi. Bunday faoliyatning maqsadoti ushbu shaxsning ma’naviy fazilatlari hisoblanadi, bularni inson mazkur sohada o‘z amaliyotida qo’llaydi. Demak, bu faoliyat ma’naviy-amaliy mohiyat ham kasb etadi.

**Ma’naviy faoliyat.** Jamiat ma’naviy hayotining negizini ma’naviy faoliyat tashkil etadi. Faoliyat bu kishilar mavjudligi, borlig‘ining muayyan usulidir. Ma’naviy faoliyat ham faoliyatning boshqa turlari singari ijtimoiy shartlangan bo‘ladi. Ma’naviy faoliyat maqsadni ko‘zda tutadigan mohiyatdir. Chunki kishilar

o‘z manfaat va ehtiyojlarini qondirish jarayonida muayyan maqsadlarga erishishga harakat qiladilar. Kishilarning intilishlari, vogelikni o‘zgartirish borasidagi ijodiy yondashishlari ularning maqsadida o‘z aksini topadi.

Ma’naviy faoliyat deganimizda «ruh»ning mavhum holatini emas, balki insonning aqliy, jismoniy, tashkilotchilik va boshqa xatti-harakatlari majmuuni tushunamiz. Bu faoliyat ma’naviy qadriyatlar yaratishga yo‘naltiriladi, ayni vaqtida, san’at asarlari, falsafa, ilmiy tadqiqotlar, axloq va huquqning me’yorlarida, siyosiy g‘oyalarda, ideallar, orzu va fantaziyalarda o‘z ifodasini topadi. Bu faoliyat insonning maqsadga muvofiq intilishlarini ifodalab, unda insoniy qobiliyat va ishtiyoq, iroda va hissiyot, aql va xayol uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Oqibat-natijada, inson tuyg‘ulari, aqli, tafakkuri, xayollari, bilishi, hayotiy tajribasi, kishilarga munosabati moddiylashadi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, ma’naviy faoliyat g‘oyalar, ong, his-tuyg‘ular, tafakkur ishlab chiqarish bilan bog‘langan bo‘ladi. Inson bu faoliyat tufayli ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqadi, shu tufayli bu jarayonni ma’naviy ishlab chiqarish deb atash mumkin.

Biroq shuni ham ta’kidlash joizki, «faoliyat» tushunchasi bilan «ishlab chiqarish» tushunchasi qo‘llanish jihatidan bir-biriga teng emas. Faoliyat aqliy, ijodiy mehnat bilan shug‘ullanadigan alohida olingan inson yoki kishilar guruhiga xos xususiyatdir. Ishlab chiqarish esa o‘z ko‘lamiga ko‘ra keng ma’noni ifodalab, inson yoki kishilar guruhining konkret mehnati, faoliyatining emas, balki shu bilan birga, faoliyat amal qiladigan, ommalashadigan, jamiyat miqyosida keng tarqalishiga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashkillashtirishni ham o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish yaratilgan qadriyatlar mavjudligi va amal qilishining zaruriy shart-sharoitidir. Aytish mumkinki, ma’naviy ishlab chiqarish ma’naviy qadriyatlarni ijtimoiy ishlab chiqarish, iste’mol qilish va ayirboshlash uchun zarur bo‘lgan barcha narsalardir.

Masalan, yozuvchi asarini yaratib, badiiy obrazlar, syujet va mavzu orqali kitobxonlarga ta’sir etadi, ya’ni ma’naviy qadriyat yaratadi. Biroq badiiy asarni ommaviy tarzda ko‘paytirish esa nashriyotsiz amalga oshmaydi. Demak, bosmaxona ishchilari, qog‘oz ishlab chiqarish fabrikalari xodimlarining moddiy mehnati ma’naviy ishlab chiqarish tizimiga kiradi. Shu sababli, kitob va madaniyatning boshqa predmetlarini ishlab chiqaradigan murakkab ijtimoiy ishlab chiqarish tizimi ma’naviy ishlab chiqarish deb ataladi.

Garchand moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish o'zlarining pirovird natijalari bo'yicha o'zaro farqlansa ham, biroq mehnatning har qanday turidagi faoliyatning o'zi, faoliyat jarayoni moddiylik va ma'naviylik birligi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, inson hayotida ham bu tushunchalar sof ko'rinishda amal qilmaydi. Muanalan, tokar dastgohda ishlar ekan, nafaqat jismoniy kuchlarni, bu bilan birga iroda, aql, ruhiyatni ham sarflaydi va safarbar etadi. Bu narsa har qanday boshqa mehnat jarayoniga ham xosdir. Tasviriy ~~anatchi~~, haykaltarosh to'g'risida ham shunday deyish mumkin: materialda o'z fikrlarini gavdalantirib, ayni vaqtida o'zining aqliy va jismoniy kuchlarini yaxlit mehnat jarayonida aks ettiradi.

Kishilarning ma'naviy hayoti o'z mohiyat-negiziga ko'ra ularning moddiy hayotini ifoda etadi. In'ikos — inson ongingin xusnuyati, shu asosda u olamni, kishilarni, tabiatni bilishga intiladi va bularning barchasi to'g'risida bilim hosil qiladi. Shunday qilib, yuqorida ko'rib chiqqan tushunchalarimiz safiga yana bir tushuncha kelib qo'shildi: Bilish. Bilish — inson ma'naviy olamining hamda jamiyatning butun ma'naviy hayotining asosidir. Bilish — bu jonli, faol jarayon. Kishilar bilimni turli yo'llar bilan qo'lga kiritadilar: ayrimlar sayohat qiladi, boshqalari kitob o'qydi, film ko'radi, uchinchilari — kishilar bilan muloqotga kirishadi, to'ttinchilari fan, nazariya, falsafa bilan shug'ullanadi va h. k., biroq bilishning eng muhim manbai va inson, jamiyat, madaniyat mavjudligining asosi mehnatdir. Demak, bilim ham aqliy, ham jismoniy mehnat tufayli, shuningdek, odamlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqotlari negizida yuzaga keladi.

Bilish **tafakkur** bilan bog'langan, tafakkur esa amaliyotga asoslanadi, unga yo'naltirilgan bo'ladi. Bilish natijalari, tafakkur natijalari, ularning birligi, yig'indisi sifatida bilim yuzaga keladi. **Bilim obraz** shaklida (moddiy obyektning ideal in'ikosi sifatida); **tushuncha** shaklida (bilimning tildagi nutqiy ifodasi); **kategoriya** shaklida (obyektlarning o'zaro aloqasini aks ettiradigan murakkab tushuncha); **qonun** (voqealarning ichki turg'un aloqalari, tizimlarni oshkil etish usullari, ularning o'zgarishi, taraqqiyoti) shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Qo'lga kiritilgan bilimlarning barcha bu ko'rinishlari umumlashtirilgan tarzda **empirik, nazariy, kundalik, falsafiy** xarakter kasb etishi mumkin.

Bilim nafaqat fanga, balki san'atga ham tegishlidir. Har bir badituy asar o'z mazmuniga tegishli bo'lgan emotsional-hissiy

jihatlardan tashqari yana hayot to‘g‘risida, kishilar, tabiat to‘g‘risida muayyan bilimlarni ham ifoda etadi. Axloq qoidalari kishilarning axloqi, ularning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi bilim hamdir. Siyosiy g‘oyalar ham o‘ziga xos bilim: ular sinflar o‘rtasidagi munosabatlarni, hokimiyat, davlat, ijtimoiy ideallar to‘g‘risidagi tessavvurlarni ifoda etadi.

Bilish, tafakkur, bilim jonli, faoliyatli jarayonlarni rang-barang shaklda ifoda etadi va u inson ongingin funksiyasidir. Ong esa insonning o‘z-o‘ziga, boshqalarga, tabiatga, olamga yaxlit munosabati tufayli yuzaga keladi. Ma’naviy mahsulot bo‘lgan ongda ijtimoiy borliq, kishilar real hayotining butun yig‘indisi — borlig‘i aks etadi. Ijtimoiy ongning barcha shakllari, darajalari ma’naviy ishlab chiqarish sohasiga taalluqlidir.

**Ijtimoiy kayfiyat, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy fikr.** Bular jamiyat ma’naviy hayotining muhim sohalaridir. Dastlabki ikki tushuncha ma’no jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lib, inson psixikasini, ya’ni ruhiyatini aks ettiradi. Kishilarning ruhiyati — ular ma’naviy hayotining alohida sohasini tashkil etadi. Ular organizmning ruhiy-jismoniy jarayonlariga asoslanadi. Ular his-tuyg‘ularda, kayfiyatlarda, temperamentlarda, mayllarda, irodaviy holatlarda, intilishlarda va hokazolarda ongli ravishda yoki beixtiyor tarzda yuzaga keladi.

Ruhiyat nafaqat ma’naviy, balki amaliy hodisa hamdir, u kechiriladi, seziladi va anglanadi. Iroda impulsleri yoki aniq ifodalanmagan kechinmalar ruhiyat-psixikaning namoyon bo‘lishidir. Organizmlardagi psixik jarayonlar ko‘zga yaqqol tashlanib turmaydi. Ular psixik jarayonlarning barcha harakatlari bilangina emas, balki ularning natijalari bilan ma’naviy olamga daxldor bo‘ladi. Bilimdagi psixikani, sotsial aloqalar va munosabatlardagi psixikani — shularni ma’naviy hayotga, ma’naviy faoliyatga tegishli deb hisoblash kerak. Bu o‘rinda ijtimoiy kayfiyatning alohida o‘mi bor, chunki u kishilar xatti-harakati, ijtimoiy hayot praktikasi bilan bevosita bog‘langan. Ijtimoiy kayfiyat sinflar, tabaqalar, guruhlarning o‘zaro munosabatlarini emas, shu bilan birga ularning ma’naviy madaniyatiga, inson va insoniyat ideallariga xizmat qilishini ham ko‘rsatadi.

Ijtimoiy fikrga kelganda shuni aytish kerakki, u bilimni ham, munosabatni ham, hayotning muayyan tomoni to‘g‘risidagi tessavvurni ham, ular to‘g‘risidagi hukmlarni ham o‘z ichiga oladi. Alohida odamning fikri odatda shaxsiy fikr deb ataladi. Ko‘pgina

kishilar esa ijtimoiy fikrni bildiradi. Guruhlar, jamoa, ijtimoiy qatlari, sinflarning u yoki bu hodisa, fakt, sotsial borliq haqidagi fikrlari ham mavjud. Xalqning fikri, jamiyatning fikri ulkan ma'naviy va amaliy kuchga ega. Unga ijtimoiy va siyosiy arboblar qulq soladi, chunki bu fikrlar ortida sinflar, jamiyat va inson manfaatlari yotadi. Fikrlar nafaqat bilimlar, tasavvurlar to'g'risidagi, balki kishilarning qandaydir sotsial ahamiyatli hodisalarga bo'lgan munosabatidan ham guvohlik beradi. Modomiki, ularga kishilar muayyan ijtimoiy qadriyatlar orqali baho berar ekan, demak, fikr ayni vaqtida baho ham bo'lib, o'zida axloqiy, estetik, siyosiy va mafkuraviy mazmunni ifodalaydi.

Masalan, bizning go'zallik, ezgulik, haqiqat to'g'risidagi tushunchalarimiz ularga hayotiy voqealarning mos kelish-kelmasligiga muvoziq ravishda baholanadi. Shunday qilib, hukm va xulosalar o'zida nafaqat bilimni, voqealarga munosabatni ham ifodalaydi. Men atrofimni o'rab olgan voqealarga mening boshqa kishilarga bo'lgan munosabatim orqali yondashaman. Demak, mening munosabatim aotsaladir. Inson sifatida o'zimning barcha xatti-harakatlarimda, fikrlarimda, intilishlarimda o'zimni ifoda etgan bo'laman.

Kishilar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy munosabatlar deb ataladi, chunki ular muloqotda, mehnatda, moddiy hayot praktikasida tarkib topadi. Insonni faoliyatli, o'zgaruvchan mohiyat qilib shakllantiradigan mehnat bu hayotning negizini tashkil etadi. Munosabatlar moddiyga va ma'naviyga bo'linadi. Birinchisi — mehnatda, kishilarning butun moddiy hayotida, ikkinchisi — hayotning ma'naviy sohasida tarkib topadi. Ma'naviy munosabatlar olami kishilarning amaliy-voqeiy munosabatlari negizida yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy munosabatlar xarakteri ko'p jihatdan kishilarning ma'naviy olamini va jamiyatning ma'naviy hayotini belgilab beradi. Insonlarning olamni o'zgartirish sari yo'naltirilgan ijtimoiy faolligi mana shu munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Insonning faolligi, uning xatti-harakati, qobiliyati qator niyatlar tizimiga suyanadi. Har qanday insoniy faoliyatni harakatga keltiruvchi muayyan sabablar mavjud bo'lib, bular — ehtiyojlar, manfaatlar va maqquadlardir.

Faolliksiz, ijodiy mehnatsiz kishilarning ma'naviy hayotini osayvur etish mumkin emas. Agar inson dangasa bo'lsa, xudbin bo'lsa, takabbur bo'lsa, uni ma'naviy boy inson deb bo'lmaydi.

Unday odamda ehtiyoj, manfaat, yuksak ma'nodagi maqsad bo'lmaydi. Undagi ma'naviylik olami o'ziga bino qo'yish bilan chegaralangan bo'ladi, o'ziga bino qo'yishlik, xudbinlik na axloqiy, na ijtimoiy chegarani biladi.

Faoliyat tushunchasi mehnat tushunchasini ham bildiradi. Biroq mehnat insonning yaratuvchanlik faoliyatini ifodalaydigan eng umumi kategoriya bo'lsa, faoliyat — bu qobiliyatning jonli, real gavdalanishidir. Aytish mumkinki, mehnat — faoliyatli jarayonlar hamda jismoniy va ma'naviy kuchlar harakatining yig'indisidir. Hayvonlar ham muayyan faoliyat bilan shug'ullanadi: ovqatlanadi, harakat qiladi, oziq-ovqat izlab topadi, uya quradi. Biroq bu ongli emas, balki instinkтив, tug'ma xatti-harakatlar ta'sirida yuz beradi. Ularni sotsial ma'noda oladigan bo'lsak, faoliyat deb atash mumkin emas.

Inson faoliyati nafaqat anglangan, balki shu bilan birga maqsadga muvofiq yo'naltirilgan jarayon bo'lib, o'z ichiga ikki tomonni oladi: ichki (ma'naviy) va tashqi (moddiy). Ichki jarayonning tashqiga aylanishi ayni vaqtida ideallikning moddiyga, subyektivlikning obyekтивlikka, predmetlilikka aylanishi hamdir. Har ikki holatda ham ma'naviy, ham jismoniy kuchlar sarflanadi. Ma'naviy faoliyatga kelganda shuni aytish lozimki, bu, eng avvalo, ma'naviy qadriyatlarni yaratadigan jonli insoniy faoliyatdir. Insoniy faoliyat muayyan darajada turli-tuman natijalarga olib keladi: u bilish, tafakkur, ijodiy fantaziyadan tortib, to'rassomlik, to'qimachilik, me'morchilik, adabiyot va musiqa, teatr va kino asarlarini yaratishgacha bo'lgan natijalarni bildiradi. Ma'naviy faoliyat ijtimoiy ongni shakllantiradi, uning shakllarini boyitadi. U kishilarga bilim, e'tiqod, go'zallik, ezgulik, haqiqat ruhini berib, ularning tafakkurini boyitadi.

Ma'naviy faoliyatni ikki yoqlama qarab chiqish mumkin: psixik jarayonlar sifatida (emotsional, hissiylik darajasidagi ong); ma'naviy qadriyatlarni yaratish jarayoni sifatida. Har ikki tomon o'zaro munosabatga kirishadi va yagona faoliyat jarayonini ifodalaydi. Bu narsa moddiy faoliyatga ham bevosita daxldordir. Moddiy faoliyat ham ma'naviyat ruhi bilan sug'orilgan bo'ladi. Binobarin, ishchi, quruvchi va boshqa shunga o'xshash subyektlarning mehnati tafakkur va bilish jarayonisiz yuz bermaydi. Ma'naviy faoliyat faqat olim, rassom, faylasuf va shunga o'xshashlarning faoliyatidangina iborat emas. Kishilarning ma'naviy olami umuman boy va rang-barang bo'lib, faoliyat ehtiyojlarini, manfaatlarini va maqsadlarini o'z ichiga oladi. U haqda

gap borganda eng chuqur *ongosti* jarayonlardan tortib to bilish va tafakkurning nazariy shakllarigacha bo‘lgan holat nazarda tutiladi. Unga ruhiy faoliyatning hissiy-emotsional ko‘rinishlari ham, ilmiy va falsafiy ongga o‘xshagan murakkab tizilmalar ham kirishi mumkin.

Ma’naviy faoliyat o‘zining rang-barangligi jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi: siyosiy faoliyat, huquqiy va axloqiy faoliyat, ilmiy faoliyat, iqtisodiy faoliyat, diniy va falsafiy faoliyat va h.k.

**Ma’naviy munosabatlari.** Ma’naviy faoliyat haqida mulohaza yuritgan vaqtimizda munosabatlар muammosiga e’tibor bermagan edik, endi bu haqda to‘xtalib o‘tish zaruriyati bor. Chunki ma’naviy faoliyatning o‘zi ijtimoiy munosabatlarga bevosita singib ketgandir. Kishilar hayotining moddiy shakllari haqida gap borganda, tabiiyki, unga moddiy ishlab chiqarish faoliyati — mehnatning barcha turlarini kiritamiz. Moddiy munosabatlар tushunchasi ostida esa ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash bo‘yicha munosabatlар; avlodni davom ettirish bilan bog‘liq munosabatlар; tabiatga munosabat kabilar ko‘zda tutiladi. Va nihoyat, moddiy muloqotni ham esdan chiqarmaslik kerak. Bularning barchasi jamlangan holda kishilar moddiy hayotining sotsial shaklini ifodalaydi.

Tabiiyki, kishilarning aloqalari munosabatlarning negizini tashkil etadi, binobarin, munosabatning o‘zi kishilar o‘rtasidagi aloqalarning rang-barang shakllaridan boshqa narsa emas. Insonning ijtimoiy mohiyati munosabatlarsiz, aloqalarsiz ma’noga ega emas.

Inson ongi nafaqat real olamni, shu bilan birga, insonning amaliy faoliyatini ham, amaliy munosabatini ham aks ettiradi. Insonning shaxsiy ma’naviy olami voqelik haqidagi bilimlar, tasavvurlar va obrazlar birligida o‘z ifodasini topadi.

Muloqot — aloqa va munosabatning negizini tashkil etsa-da, shuning o‘zi bilan chegaralanib qolmaydi. Kishilar o‘rtasidagi muomalalar jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog‘liq holda turli shakllarda namoyon bo‘ladi va hamma vaqt shaxsiy ma’no kasb etadi. Chunki kishilar o‘zaro muomala qilgan paytlarida jonli kishilar bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Biroq kishilarning olamga munosabatlari oqibat-natijada ijtimoiy munosabatlар sifatida tarkib topadi.

Ma’naviy aloqalarni, muloqotlarni ruh va g‘oyalar sohasidagi aloqalar deb atash mumkin. Ma’naviy munosabatlар kishilar o‘rtasidagi real aloqalardir; ular g‘oyalar, qarashlar sohasidagi o‘zaro ma’naviy ta’sirlar bilan chegaralanib qolmaydi, shu bilan birga ma’naviy faoliyatning moddiy omillariga ham kuchli ta’sir etadi.

**Ma'naviy ehtiyojlar.** Ehtiyojlarning tarkib topishi va rivojlani-shi hamma vaqt insonning kamol topishi, birinchi navbatda, uning qobiliyatlari bilan bog'langandir. Chunonchi, yoshlarning voyaga yetishi, ular organizmining rivoji, tarbiyasi yangidan yangi ehtiyojlarning shakllanishi bilan bog'liqdir.

Ehtiyoj – bu zarurat. Biz ularni o'ylab topmaymiz, anglab yetishimiz yoki anglab yeta olmasligimiz mumkin. Har qanday ehtiyoj o'z asosiga ko'ra, insonning muhit bilan o'zaro aloqadorligi tufayli yuzaga keladi.

Har bir kishi o'z tirikchiligini ta'minlash uchun oziq-ovqat yeishi, ichishi, harakat qilishi, o'zi bilan tabiat o'rtasidagi modda almashinuvini amalga oshirishi zarur. Biroq ochlik, tashnalik tuyg'usi ovqat hazm qilish jarayonisiz ma'no kasb etmaydi. Harakat qilishga bo'lgan ehtiyoj muayyan organlar va muskullar harakatisiz, shuningdek, kishilar bilan aloqaga kirish istagisiz, tilisiz, tafakkursiz, hissiyotsiz ro'y bermaydi.

Insonning ehtiyojlari nechog'lik rang-barang bo'lsa, inson o'zining maqsad va intilishlarida shunchalik boy bo'ladi.

Ma'naviy ehtiyojlar oliy ehtiyojlar sirasiga kirib, o'z navbatida, bir qator turlarga bo'linadi. Tabiiyki, ehtiyojlarni turlarga bo'lish nisbiy va shartlidir. Holbuki, hayotda moddiy ehtiyojlardan butunlay ajratib olingan ma'naviy ehtiyojlarning o'zi yo'q, shuningdek, sof biologik, sof ijtimoiy ehtiyojlar ham mavjud emas. Inson, hattoki, eng sodda ehtiyojlar bilan ham ijtimoiy mohiyat kasb etadi. Sof biologik ehtiyoja o'xshagan, masalan, avlodni davom ettirishga bo'lgan ehtiyoj ham sotsial-ma'naviy ehtiyojsiz ma'noga ega bo'lmaydi, ya'ni muhabbatsiz, qadr-qimmatsiz, yuksak axloqiyliksiz, estetik idroksiz amal qilmaydi. Hattoki, shoir yoki san'atkoring eng yuksak ehtiyojlar ham moddiy maqsadlarsiz bo'lmaydi. Shunday qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlar real hayot jarayonini aks ettiruvchi ilmiy tushunchalardir. Ma'naviy ehtiyojlar bizning tashqi olamga bo'lgan va unga muvofiq keladigan zarurat va hojatning alohida turi bo'lib maydonga chiqadi. Bu, aytish mumkinki, insonning ma'naviy qobiliyatlari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan o'ziga xos faollik bo'lib, kishilarning tarixan shakllangan amaliyotida anglab olingan zaruratdir.

Insonning ma'naviy ehtiyojlari negizida uning ma'naviy tuyg'ulari yotadi, bu tuyg'ular ijtimoiy mohiyatga ega bo'lib, butun jahon tarixining mahsulidir. Musiqani farqlovchi qulqoq, shakl go'zalligini his etadigan ko'z va boshqa unga o'xhash tuyg'ular mehnat tufayli

tarkib topgan. Nafaqat tuyg'ular, balki tafakkur va xayol ham ma'naviy ehtiyojlarni shakllantiradi. Inson tabiat bag'rida yashaydi, kishilar o'nsida istiqomat qiladi, bu omil uning tuyg'ulari namoyon bo'lishi uchun tegishli imkoniyatlarni yaratadi, ehtiyojlarini aniqlaydi, olamga munosabatini belgilaydi. Masalan, tabiatning go'zal manzarasi kayfiyatga qarab turlicha idrok etilishi mumkin: tabiat go'zalligi shaharlikka nisbatan qishloq aholisida boshqacha taassurot tug'diradi; och odamning ovqatga bo'lgan munosabati to'qnikiga nisbatan butunlay boshqacha bo'lishi haqida ham xuddi shunday deyish mumkin.

Insonning tashqi muhit negizida shakllanadigan tashqi tuyg'ulari bilan birga yana tarbiya tufayli kamol topadigan sotsial tuyg'ulari ham mavjud. Mas'uliyatlilik, fuqaroviylilik, kishilarga muhabbat, axloqiy tuyg'ular — bular ma'naviy qobiliyatlarimizning xazinasi bo'lib, inson shular tufayli o'zining spetsifik ma'naviy ehtiyojlarini tarkib toptiradi.

Insonning eng birinchi ma'naviy ehtiyoji — bu bilishga bo'lgan ehtiyoj. Buningsiz inson sotsial mohiyatga ega bo'lmas, tabiatni, kishilarni, o'zini bila olmagan bo'lur edi. Bilimga asoslanmagan biror bir insoniy faoliyatni tasavvur etish mumkin emas. Gegelning yozishicha, eng jiddiy ehtiyoj haqiqatni bilishga bo'lgan ehtiyojdir (*Gegel. Soch. T. I. — M. Gosizdat, 1930 god, str. 14.*).

Darhaqiqat, insonning hayotga qo'yadigan birinchi qadamini uning bilish tomon qo'yan qadami desa bo'ladi. Bilim — fanning asosi. Biroq san'at, falsafa, siyosat, huquq, axloq ham bilimga asoslanadi. Bilishga bo'lgan ehtiyoj turlicha ifodalanadi: voqealarni hissly idrok etish shakllaridan tortib, fundamental fanlardagi nazariy i'mumlashmalargacha bo'lgan ehtiyoj. Bilish mehnatdagi jarayonni yoritish uchun zaruriydir, chunki tayyor mahsulot ayni vaqtida bilish faoliyatining ham mahsulidir. Kundalik xatti-harakatda ham, buyuk kuchliyotlarda ham bilish zaruriy unsurdir.

Hayot sharoitiga qarab bilishga bo'lgan ehtiyoj ikkiyoqlama ma'naviyon bo'ladi:

- ma'naviy-nazariy;
- ma'naviy-amaliy.

Yuqorida aytildiki, ehtiyoj o'zining ma'naviy xususiyatini yo'qotmagan holda ham moddiy faoliyatda, ham ma'naviy faoliyatda amal qiladi. Bilish bilimni chuqurlashtirishga yo'naltirilganimi yoki amaliy harakatga qaratilganmi, bundan qat'iy nazar, qo'shaqildir. Oddiy bir misol: ovchi vahshiy hayvonni kuzatish,

uni qoʻlga olish uchun oʼsha hayvon yashaydigan joyni va shu bilan bogʼliq sharoitni chuqur oʼrgangan boʼlishi, yaʼni bilishi zarur.

Kishilarga hurmat-ehtirom, boshqalar bilan aloqa qilishga boʼlgan ehtiyoj maʼnaviy qobiliyat natijasidir. Boshqa jins vakiliga, bolalarga, ota-onaga muhabbat haqida gapirish mumkin, bu bilan insonga boʼlgan muhabbat tugamaydi. Har bir kishi oʼzining chin doʼstlariga ega, biroq bu doʼstlik moddiy manfaatdorlik, moddiy foyda koʼrish maqsadlariga asoslanmasligi kerak.

Madaniy-tarixiy taraqqiyot tajribasi koʼrsatadiki, maʼnaviy ehtiyojlar inson sotsial yetukligining muayyan bosqichida shakllanadi: ishlab chiqarish kuchlari rivoj topishi tufayli inson oʼzining koʼr-koʼrona, faqat foyda koʼzlovchi hojat bilan bogʼlangan kuchlardan ozod boʼla boradi. Ibtidoiy inson ilk bora mehnat faoliyatida oʼz ehtiyojlarini moddiy hayot amaliyoti bilan, maʼnaviy hayotda esa moddiy hayot bilan chambarchas bogʼlaydi. Uni hali toʼla maʼnoda maʼnaviy hayot deb atash mumkin emasdi, chunki ehtiyojlarning oʼzi moddiy intilishdan ajralib chiqmagan edi. Mehnat jarayonidagina inson eng buyuk bir fazilatga, yaʼni hayotning moddiy shakllariga ruhiyat baxsh etish fazilatiga erishadi.

**Maʼnaviy manfaatlar.** Manfaatlar muammosi hamma vaqt dolzarb masala boʼlib kelgan. Odatda, manfaatlar ehtiyojlar bilan bir qatorda koʼrib chiqiladi. Ularni umumiylashtiradigan narsa shuki, ham ehtiyoj, ham manfaat amaliy faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlardir.

Ehtiyoj manfaatni tugʼdiradi, buning ustiga, bir ehtiyojning oʼzi bir necha manfaatni talab qilishi ham mumkin. Demak, insonda ehtiyojga qaraganda manfaatlar koʼpchilikni tashkil qiladi. Masalan, yeyishga boʼlgan ehtiyoj oziq-ovqat mahsulotlariga nisbatangina manfaat tugʼdirmaydi, ayni vaqtida, u bilan uzviy bogʼlangan boshqa hodisalar tizimi, maishiy xizmat koʼrsatishga ham manfaatli munosabatni taqozo etadi. Bu yerda faqat «qorin» tashvishinigina koʼrib qolmasdan, balki insonni sotsial munosabatlarga olib kiradigan tizimni ham idrok etamiz. Avlodni davom ettirish kategoriyasi ikki jins manfaatini ifodalabgina qolmasdan, balki shu bilan birga axloqiy, estetik tuygʼular, turmushni yaxshilash, oilani boshqarish kabi boshqa shu tartibdagi hodisalarini ham talab qiladi.

Insonning ehtiyojlari uning manfaatlariga nisbatan ancha turgʼundir. Ochlik tuygʼusi vahshiy yoki madaniylashgan inson his etishidan qatʼiy nazar, oʼzgarmay qoladi. Biroq bu tuygʼu insonda yovvoyiga nisbatan boshqa tartibda kechadi. Bilishga boʼlgan ehti-

yoj ilmiy, falsafiy manfaatlarga bo‘lgan ancha sodda yo‘llarni bosib o‘tdi. Estetik ehtiyojlar esa muntazam ravishda yangidan paydo bo‘layotgan ishlab chiqarish va badiiy faoliyat yo‘li bilan qondirib boriladi. Har qanday ehtijoj paydo bo‘lar ekan, o‘zini qondirishga da‘vat etiladi. Shu sababli, manfaatlarda maqsadga muvofiqlik, foydaga munosabat hissi ishtirok etadi.

Manfaatlар turlicha bo‘ladi va o‘z belgilariga qarab farq qiladi, masalan, manfaat egalari jihatidan (shaxs, jamoa, millat, jamiyat) shaxsiy, jamoa, milliy, ijtimoiy va h. k. manfaatlар.

**Ma’naviy qadriyatlar.** Kishilar ma’naviy olamining shakllanishi va taraqqiyoti, ularning ma’naviy boyishi uchun qadr-qimmatga ega bo‘lgan narsa-hodisalar ma’naviy qadriyatlar deyiladi. Ular inson faoliyati, mehnati, yaratuvchanligi, ijodkorligining mahsuli hisoblanadi. Masalan, rassom, shoir, faylasuf, fizik olim san’at asarlari, ilmiy tadqiqotlar, olam haqidagi asarlarning mualliflari sifatida ma’naviy qadriyatlarni yaratuvchilardir. Bunday ijodiy jarayonda ulkan aqliy kuchlar sarflanadi, tafakkurning eski andozalari bartaraf etiladi. Olimlarning fikrlari, shoirlarning qaynoq kechinmalari, ilmiy kashfiyat sirlari predmetli — moddiy tusga kirar ekan, ishlab chiqarishning boshqa sohalari ham bunga safarbar etiladi. Yaratilgan buyumlar oddiy emas, balki madaniyat predmetlari, ma’naviy ishlab chiqarish predmetlari, buyumlari sifatida yuzaga keladi. Ularda bilimning asoslari, insoniy munosabatlarning tajribalari gavdalanadi, bizning ongimizga go‘zallik, ezbilik, haqiqat to‘g‘risidagi tasavvurlarni olib kiradi. Ularning qadriyat kategoriyasi sifatida e’zozlanishining boisi ham ana shunda.

Shunday qilib, ma’naviy qadriyatlar — bular kishilar ma’naviy faoliyati mahsuli, bilishning murakkab jarayoni natijasi o‘laroq, bilim, hayot, qarash, malakalar samarasidir. Bu qadriyatlarni ta’riflash oqibat-natijada inson ehtiyojlari, manfaatlari va faoliyat turlariga bog‘liq bo‘ladi. Ma’naviylik bunday holatda moddiylikka qaramaqarshi qo‘yilmaydi. Ma’naviyat inson hayotiy faoliyatining tarkibiy qismi, uning mehnati va sharoitlar tufayli yaratilgan qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi. Haqiqiy ma’naviylik faqat jonli insonning ongida, uning tafakkuridadir. Boshqa ma’naviy qadriyatlar esa inson faoliyatining natijasi bo‘lib, ma’naviylikning mehnat mahsulotlariga, moddiy, predmetli shaklga ko‘chgani hisoblanadi.

Masalan, kitob, rassomlik asari — shunchaki oddiy predmetlar emas, ularda yozuvchi va rassomning ijodiy faoliyati natijalari gavdalangan. Bu narsalarning ma’naviy jihatlari ularning moddiyligi

bilan uzviy bog'langan. Bularda alohida odam — ijodkor ongi faoliyati moddiylashadi. Boshqa tomondan, narsa-hodisalar bu odam ma'naviy faoliyatining natijalarini ham targ'ib etadi. Bu yerdagi birinchi holat — ijod, ikkinchi holat — ma'naviy qadriyatlarni iste'mol qilish bo'lib, insonning madaniy dunyosi shu bilan yaratiladi. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida to'plangan boyliklar o'tmish avlodlar qo'lga kiritgan bilim-tajribalarni, ma'naviy faoliyat mahsulotlarini tashuvchilardir.

Ko'ramizki, ma'naviy qadriyatlар o'zining ma'naviylik xususiyatiga qaramasdan, baribir, moddiy predmetlarda gavdalangan bo'ladi, ong bilan borliq (turmush), tafakkur bilan harakat, maqsad bilan uni amalga oshirish o'rtasidagi abadiy qarama-qarshiliklar ana shunday yo'l bilan yechila boriladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, kishilar ishlab chiqarishni shunchaki emas, balki o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish, iste'mol qilish uchun tashkil qiladilar. Moddiy qadriyat kishilar ehtiyojlarini qondirib, moddiy xossalari va moddiy shakliga ko'ra o'z aslini saqlab qoladi. Mana shu moddiy shakl yo'qolsa, mahsulotning harakati to'xtaydi, ya'ni foydasiz bo'lib qoladi.

Ma'naviy ishlab chiqarishda boshqacha manzarani ko'ramiz. Binobarin, ma'naviy qadriyatlardagi asosiy narsa — predmetlik emas, balki, moddiy shaklga kirgan ma'naviy mazmundir. Masalan, kitob, kartina, musiqa asari tashqi ko'rinishi bilan emas, balki eng avvalo, ularda qanday mazmun ifodalananayotganligi bilan bizni qiziqtiradi. Bunday holat ma'naviy qadriyatlар, ulardagi informatsion (axborotga oid) fazilatlar mohiyatini tushunib yetishni bildiradi. Bunga esa belgilar va obrazlar tizimini aniqlash, ularning o'ziga xos ma'no tashuvchi xususiyatlarini fahmlash orqali erishiladi. Masalan, she'riyatdan zavqlanish uchun uni o'qishning o'zi yetarli emas, balki shoirning tuyg'ulari, fikrlari, kechinmalarini ochish lozim; tasviriy san'at (rassomlik)ni tushunish uchun san'atdagi shartlilikning mohiyatini anglab yetish zarur, buningsiz rassom kechirgan holatni tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqaning mohiyatini bilish tinglovchida musiqali ta'lim malakasini taqozo qiladi; fan haqida gapiradigan bo'lsak, ilmiy kategoriya ma'nosini anglash, ayni paytda, shular orqali fikr yuritishning o'ziga xosligini fahmlash kerak bo'ladi.

Ma'naviy qadriyatlarga xos xususiyatlardan yana biri tafakkur va hissiyotning eng umumiy shaklda namoyon bo'lishidir. Xoh san'atda, xoh sanda, xoh falsafada bo'lsin, bu narsa o'ziga xos moddiyla-

shadi. Moddiylashtirish jarayonining o'zi amaliy faoliyat bo'lib, malakalar, qobiliyatlarni gavdalantirishni taqozo qiladi, u amaliyot shifatida esa ma'naviylikni moddiy narsalarga ko'chiradi.

Ma'naviy faoliyatning yana bir xususiyati shundaki, amaliyot o'z ichiga nihoyatda rang-barang mehnat malakalarini qamrab oladi, shu sababli, ma'naviy qadriyatlarni yaratishdan ko'zlangan asosiy maqsad — bu moddiylikni ideallikka «bo'ysundirish»dan iborat bo'ladi. Masalan, rassom olamni boshqalarga o'xshab mushohada etadi, unga o'z munosabatini bildiradi. Biroq «ko'rgani»ni, kechirganini, kuzatishlarini hamma ham moddiylashtira olmaydi, buning uchun, ya'ni ranglar bilan ijod qilish uchun alohida qobiliyat bo'lishi lozim. Gipoteza asosida fikrlovchi olim o'z fikrlarini eksperiment bilan mustahkamlashi kerak, eksperiment esa o'ziga xos malakani talab qiladi. Musiqachi uchun qobiliyatli bo'lishdan tashqari yana rivojlangan tuyg'u, chuqur eshitish qobiliyati ham zarur.

Tomoshabin, o'quvchi, musiqa ishqibozlarida san'at va fan arboblari darajasidagi ijodiy malaka yetarli bo'lmaydi. Shu sababli, asarning sirtqi ko'rinishi ortida ma'naviylikning eng umumiyligi jihatlarini ko'tra olishlarida qiyinchiliklarga duch kelish mumkin. Buni bartaraf etish uchun ular ijodning barcha «sir»larini bilishi kerak; ijodkor asarining predmetli — sirtqi pardasiga barham berib, ijodkor bilan ma'naviy aloqaga kira olishi zarur, biroq buning uchun ma'rifatli va madaniyatli kishi bo'lishi kerak; fan, san'at asoslarining mohiyatini tushunish uchun esa uning qonuniyatlarini idrok eta olish qobiliyati zarur. Maktabda olib boriladigan ta'lim va tarbiyaning ma'nosi ham ma'naviy qadriyatlarni idrok etish madaniyatini tarbiyalashga yo'naltirilgan, bilimlarning asosiy sohalari bilan muomala qila olish mala-kasini shakllantirishni nazarda tutadi. Mohiyatan, ta'lim ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish yo'li hamdir.

### 3. MA'NAVIYAT VA MA'NAVIY MEROS

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyotining muhim omili bo'lar ekan, u nafaqat bugungi madaniy boyliklarga, qadriyatlarga, zamonaviy tamoyillarga, shu bilan birga xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosiga ham tayanadi.

Mustaqillik ma'naviyati o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi. Jamiyat rivojlanishining o'z qonunlari mavjud bo'lib, mustaqillik ma'naviyatinining shakllanish jarayoni ham ana shularga asoslanadi.

Ma'lumki, ma'naviyatning subyekti, ya'ni yaratuvchisi, ijod-kori ham, uni iste'mol qiluvchisi ham insondir. Ma'naviyatning vujudga kelishi va rivojlanishida biz uning ikki muhim jihatiga e'tibor berishimiz lozim; birinchidan, har qanday ma'naviyatning shakllanishi avvalambor kishilarda, jamiyatda unga bo'lgan ehtiyoj va talablarni qondirish asosida vujudga keladi. Jamiyatda shu ehtiyoj, talablar shakllanmaguncha ma'naviyat ham, madaniyat ham vujudga kelmaydi. Demak, ma'naviyat ijtimoiy ehtiyoj, talab, xohishni ifodalab, kishilar, guruhlar, umuman jamiyatning ongli ijodiy faoliyati asnosida voqelikka aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatda vujudga kelgan ehtiyoj va talablarni qondirish maqsadida kishilar madaniy faoliyatga kirishadi, bu esa, tabiiyki, quruq, bo'sh yerda vujudga kelmaydi. Har qanday ma'naviyat, eng avvalo, jamiyatda avval erishilgan muayyan bilimlar, tajribalarga hamda o'tmish avlodlardan bizgacha yetib kelgan ma'naviy merosga tayanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida ma'naviyat sohasida erishilgan bilimlar va tajribalar undan keyingi avlod uchun tarixiy tajriba, xotira bo'lib xizmat qiladi. Bu tarixiy vorislik deb atalib, taraqqiyotning turli bosqichlari o'rtasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta'minlaydi, ma'naviyatning ichki rivojlanish qonuni bo'lib yuzaga chiqadi. Har bir muayyan tarixiy davrda yaratilgan ma'naviyat boyliklari yig'indisi esa ana shu tarixiy vorislikning muayyan ko'rinishlari bo'lib, har bir xalq va millatning ma'naviy merosini tashkil etadi.

Ma'naviyatning rivojlanishi ana shu tarzda amal qiladi. Bu jarayon ma'naviy hayotning muayyan sohalari rivojlanishida namoyon bo'ladi. Binobarin, Prezidentimiz I. A Karimov ta'kidlaganidek, «jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi» (Milliy tiklanish, 1998 yil, 27 oktyabr).

Ma'naviy vorislik yangi avlod tomonidan o'tmish ma'naviyati va uning namunalaridan ijodiy foydalanishnigina emas, balki shu bilan birga ularning kelgusi qadriyatlar shakllanishiga ko'rsatishi mumkin bo'lgan samarali ta'sirini ta'minlashni ham bildiradi. Bu ta'sir ma'naviy taraqqiyotning ichki mantiqqa va nisbiy mustaqillikka ega ekanligini ko'rsatadi, busiz kishilik tarixida yuz beradigan ma'naviy va madaniy yuksalishning mohiyatini tushunish

mumkin emas. Tarixiy vorislikka xos qonuniyatlarning buzilishi mazkur jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'tmishda yuz bergen ma'naviy merosga nisbatan mafkura-lashgan salbiy munosabat, uni kamsitish, nigliistik nuqtayi nazardan yondashish, mohiyatan, ma'naviyatning ichki rivojlanish qonunlariga zid ekanligi ma'lum. Sobiq Ittifoq davrida kommunistik mafkura ma'naviy merosga munosabat masalasida o'zining qat'iy mezonlarini o'rnatib, sof sinfiylik, partiyaviylik, kurashchan ateizm tamoyillarini mutlaqlashtirdi, unga to'g'ri kelmagan har qanday g'oya, qarash, fikr man etildi. Shuning oqibatida o'tmishda xalqimiz tomonidan yaratilgan son-sanoqsiz ma'naviy boyliklarmiz qoralanib, yo'q qilib yuborildi.

Shu munosabat bilan qadimgi yunon afsonasini eslash o'rinnlidir. Aytishicha, tog'lar orasidan o'tadigan yagona g'or yo'lida turib olib hech kimni o'tkazmayotgan yovuz Prokrustning andozali temir karavoti bo'lgan ekan. Prokrust yo'lovchilarning barini o'sha karavotga yotqizib ko'rib, keyin o'tkazar ekan. Bo'yi yetmasa, cho'zib o'ldirar, agar karavotdan bo'yi oshib ketsa, sig'magan qismini qirqib tashlar ekan.

Kommunistik mafkura ham o'tmish ma'naviy merosga nisbatan xuddi shunday tartibni qo'llaganligi sir emas. Xalqimiz tarixida yaratilgan juda ko'p noyob ma'naviy boyliklarimiz, diniy qadriyatlarmiz zararli deb topildi. Ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk Amir Temur, Husayn Boyqaro, Umarxon, Feruz shoh bo'lganliklari uchun inkor etildilar. Xalqimizning milliy mustaqilligi, milliy madaniyatimiz ravnaqi uchun kurashgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvar Qori, Elbek, Abdulla Qodiriy, Cho'lpion, Fitrat, Usmon Nosirlar qoralanib, xalq dushmanlari deb e'lon qilindi.

O'zbek xalqi o'z ma'naviy merosi bilan haqli ravishda mag'rurlansa arziydi. Uning ildizlari juda chuqur bo'lib, uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Faqat qo'lyozma va toshbosma asarlarning o'zidan respublikamizda necha o'n minglab asrab qolingga bo'lib, ular Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozmalar instituti, Diniy nazorat va O'zbekiston Milliy universiteti (Toshkent Davlat universiteti) fondlarida saqlanmoqda. Bular IX—XX asrlarda yozilgan va fanning barcha muhim sohalariga: matematika, astronomiya, kimyo, tibbiyot, mineralogiya, fiqh (musulmon qonunchiligi), falsafa, tarix, adabiyotga oid asarlardir. «Ota-bobolarimizning

asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan bu nodir qo‘lyozmalarini jiddiy o‘rganish davri keldi» (*I. A. Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. — Toshkent, «Sharq», 1998 yil, 4-bet).

O‘zbekistonning boy ma’naviy merosi shakllanayotgan yangi ma’naviyatimizning negizini, poydevorini tashkil qiladi. Ma’naviy merosimizda xalqimizning asriy orzu-tilishlari, bilimlari va hayotiy tajribalari mujassamlashgan bo‘lib, u o‘zligimizni anglash, milliy tiklanish va rivojlanishimiz uchun qudratli tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Milliy istiqlol mafkurasi ham ma’naviy merosimizga tayangan holda shakllanadi, ayni vaqtida uning yanada rivojlanishida muhim ma’naviy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’naviy meros xalqning muqaddas xotirasi bo‘lib, uning kishilik tarixi va ma’naviy taraqqiyotidagi tutgan o‘rnini belgilab beradi. «Ma’naviyat jamiyatning ma’naviy boyligida o‘z ifodasini topadi, — deydi M. Xayrullayev, — u asta-sekin to‘planib uyg‘unlashib borishi asosida, vorislik asosida rivojlanadi» (O‘zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. — Toshkent, «O‘zbekiston», 1993 yil, 29-bet).

Ma’naviy merosga ilmiy munosabatni shakllantirishda, eng awvalo, unga aksiologik mezonlarga tayangan holda yondashish taqozo qilinadi. Ma’naviy merosni qadriyatlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish har bir muayyan qadriyatning taraqqiyotdagi o‘rnini to‘g‘ri baholab, uning milliy istiqlol ma’naviyatini shakllantirishda qay darajada xizmat qila olishini belgilashga imkon beradi.

Ma’naviy meros va milliy qadriyatlarga aksiologik yondashuvning, bizningcha, to‘rtta asosiy mezoni mavjud bo‘lib, ular: insonparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik va taraqqiyparvarlikdir.

Insonparvarlik ma’naviyat va madaniyat uchun universal mezon bo‘lib, u ma’naviy merosning har bir muayyan hodisasi, qadriyatning inson uchun, uning aqliy va hissiy kamoloti, erkin yashashi, ozodligi uchun qay darajada xizmat qilishi va qay darajada ahamiyatliliginini aniqlashga imkon beradi.

Ma’naviy meros jamiyatda alohida olingan inson uchungina emas, balki butun jamiyat, xalq uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ma’naviy merosni baholaganda umummilliy manfaatlardan kelib chiqish lozim.

Ma’naviy merosga aksiologik yondashganda xalqparvarlik va vatanparvarlik mezonlari ham asosiylardan bo‘lib hisoblanadi.

Xalqparvarlik — ma’naviyatning millatda milliy g‘urur, istixor tuyg‘usini shakllantirishga, uni milliy nomukammallik, nochorlik,

Bechoralik tuyg'usidan xalos qilishga, xalq sifatida tub manfaatlarini amplashga xizmat qiladigan g'oyaviy mazmunidir.

Xalqparvarlik haqidagi g'oyalar vatanparvarlik tamoyiliga ham tashhuqlidir. Bu ikki tushuncha bir-biriga judayam yaqin, chunki xalq va vatan manfaatlari bir butundir. Biroq, ayni paytda, vatanparvarlik ongli ravishda ijtimoiy faollikni, fuqaroviylarning burchga sodiqlikni taqozo etadi. U yoki bu qadriyatlarning qay darajada O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilishida vatanparvarlik mazmuni ma'lum bo'ladi. Haqiqiy qadriyat vatanni sevishga, uni ardoqlashga, Vatan ravnaqi, ozodligi uchun jonini fido qilishga tayyor fuqarolarni tarbiya qiladi. Binobarin, «Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liq» (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 50-bet).

Taraqqiyparvarlik ham insonparvarlik kabi asosiy mezondir. Haqiqiy insonparvarlik, xalqparvarlik hech qachon taraqqiyparvarlikka zid kelmaydi. Taraqqiyot — taraqqiyot uchun emas, balki inson, xalq va millat manfaatlari uchun xizmat qilmog'i darkor. Taraqqiyotga erishaman deb, insonga yoki Vatan manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin emas.

Taraqqiyparvar qadriyatlар dunyoviy bilimlarga asoslangan bo'lib, ilm-fan, texnika rivoji, jamiyatning iqtisodiy- ijtimoiy ravnaqi, milliy xalq xo'jaligimizni jahon xo'jaligiga mos ravishda rivoj toptirishda asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi (qaralsin: A. Erkayev. Ma'naviyat — millat nishoni, 160—164 betlar).

Ma'naviyatning rivojlanishining ichki rivojlanish qonuni bilan bir qatorda uning taraqqiyotiga ta'sir etuvchi tashqi omillar ham mavjuddir. Jamiyat taraqqiyotining har bir muayyan bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar ma'naviyat va madaniyat taraqqiyotiga har taraflama salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Albatta, inson ma'naviyat va madaniyatni yaratishda o'z ichki istaklari ta'sirida harakat qilsa ham, lekin uning ijodiy faoliyati o'zi yashab turgan jamiyat bag'rida ma'lum ijtimoiy sharoitlarda amalga oshadi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ma'naviyat va madaniyat taraqqiyotini ijtimoiy, tarixiy jarayondan uzib olib, undan ajratilgan holda, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, texnikaviy muammolar bilan bog'lamasdan turib tushuntirib bo'lmaydi. Binobarin, bulardan tashqarida ma'naviyatning yashashi ham, rivojlanishi ham mumkin emas.

Ma'naviyatning rivojlanishi yoki sekinlashishi, taraqqiy etgan yoki tushkunlikka uchrangan davrlari hamma vaqt ma'lum tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'langandir. Bu quyidagilarda aniq, yaqqol ko'zga

tashlanadi: Markaziy Osiyo xalqlari IX—XV asrlarda yuz bergan Uyg'onish harakati davrida ma'naviyatning turli sohalarida olamshumul tarixiy yutuqlarni qo'lga kiritib, jahon sivilizatsiyasi va madaniyati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdilar. Lekin istilochilik urushlari tufayli XIII asr boshlarida bu xalqlar mo'g'ullar zulmi ostida qoldi. 150 yil davom etgan mo'g'ullar hukmronligi davrida Markaziy Osiyo shahar va qishloqlari xarobaga keltirildi, madaniyati yondirildi, kuydirildi, vayron qilindi. Ilm-fan va madaniyat ahli o'z vatanini tark etib, o'zga yurtlarga panoh izlab ketdilar. Ma'naviyat bu davrda tushkunlikka uchradи, Uyg'onish harakati uzilib qoldi. Faqat XIV asrning 60—70 yillariga kelib Amir Temur Movarounnahrda uzoq davom etgan mo'g'ullar zulmiga barham berib, mustaqil, yagona davlatni barpo etgandan so'ng Uyg'onish harakatining ikkinchi yuksak bosqichi boshlanishi uchun siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy, g'oyaviy shart-sharoitlar vujudga keldi. Markaziy Osiyo xalqlari Uyg'onish harakatining bu davri «Temuriylar davri madaniyati» nomi bilan jahon tarixiga kirdi.

Tashqi omillarning madaniyat rivojlanishiga ta'sirini quyidagi misolda yanada ochiqroq ko'ramiz. Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida uning tarkibiga kirgan xalqlar ma'naviy va madaniy qadriyatlarining ravnaq topishiga kommunistik mafkuraga asoslangan siyosatning olib borilishi salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sovet xalqining birligi, yaxlitligi, xalqlarning bir-biriga yaqinlashib, oqibat-natijada qo'shilib ketishi, internatsional birlik haqidagi g'oyalarni amalga oshirish uchun intilish, shubhasiz, har bir xalqning o'z milliy ma'naviyati va qadriyatlari rivojlanishiga to'sqinlik qildi. 70 yil mobaynida bu siyosat milliy respublikalar xalqlarini o'z ma'naviyati va qadriyatlardan mahrum qilishga qaratilgan edi. Bunday siyosat mazlum xalqlarni asoratda va qaramlikda ushlab turishning eng qulay va oson yo'li hisoblanar edi.

Ma'naviyat va madaniyatning rivojlanish qonunlarini to'g'ri tushunishda tarixni ilmiy nuqtayi nazardan idrok etishning ahamiyati kattadir. Albatta, buni mavhum tarzda emas, balki makon va vaqtini hisobga olgan holda fahmlab ma'naviyat shakllarining u yoki bu turining o'ziga xos xususiyatlariiga qarab tadbiq qilish lozim. Ma'naviyatning rivojlanishiga xalqning moddiy hayot darajasi, uning moddiy farovonligi, tegishli moddiy-texnika bazasining mavjudligi ham muhim ta'sir ko'rsatadi.

Ma'naviyatning rivojlanishida jamiyatning intellektual (aqliy) imkoniyatlarining mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ma'naviyatning ijtimoiy jarayonlar bilan aloqasi murakkabdir. Respublikamizda ma'naviyatni rivojlantirish masalalariga davlatning o'zi homiylik qilib, bosh islohotchilik rolini bajarmoqda. Mustaqillik yillarida ma'naviyatning turli sohalarini rivojlantirish haqida Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilindi. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi, uning joylardagi bo'linmlari tashkil etildi. Markaz qoshida «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi tuzildi. «Kamolot», «Umid» singari faoliyat yo'nalishi turlicha bo'lган jamg'armalar ma'naviyat va ma'rifat sohasida samarali ishlarni olib bormoqda. Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy ma'naviyatimizni shakllantirishda uning o'ziga xosligini tiklash va taraqqiy ettirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu ma'naviyat xalqimizning uzoq asrlar davomida vujudga kelib rivojlangan, hayotga singib ketgan tarixiy an'analar, urf-odatlari, axloqiy o'gitlari, boy madaniy va ma'naviy merosiga, qadriyatlariga asoslanib rivoj topmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, hech bir kishi respublikamiz hayotiga, jamiyatimizda yuz berayotgan tub o'zgarishlarga befarq qaramasligi, ularga nisbatan loqayd munosabatda bo'lmasligi kerak. Har bir fuqaro mustaqil davlatimiz bilan mag'rurlanishi, o'z davlatining mustahkamlanishi va gullab-yashnashi uchun shaxsiy hissa qo'shish hissi bilan yashashi lozim. O'z-o'zini rivojlantirishga, o'zini kamol toptirishga intilish esa insonning g'ururini, uning haqiqiy fazilatlarini yuksaltiradi. Vatan va xalq oldidagi burchni anglash ma'naviyatning muhim belgisidir. Ma'naviy barkamol kishi o'zi qilgan ishlari, hayot va turmush tarzi bilan boshqalarda havas uyg'otadi, hayotda iz qoldirishga intiladi.

Mustaqillik yillarida erishilgan demokratik yangilanishlar natijasida milliy ma'naviyat va axloqning tiklanishi uchun barcha sharoit yaratildi, xalqning tarixiy ruhi uyg'ondi, milliy g'urur, ona zaminga mehr-muhabbat tuyg'ulari kamol topmoqda.

I. A. Karimov ta'kidlaganidek, mustaqillikni mustahkamlashning eng asosiy omillaridan biri xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat bo'lib, bu sohada respublikamizda olamshumul tarixiy vazifalar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Konstitutsiyasining 49-moddasida yozilgani-

dek, «Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasidadir».

#### 4. MILLIY VA UMUMINSONIY MA'NAVIYAT, ULARNING O'ZARO MUNOSABATI

Har bir xalqning ma'naviyati nafaqat o'zining milliy omillari, shu bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarning ta'siri natijasida ham amal qiladi. Shu ma'noda milliy mustaqilligimizni mustahkamlashning ma'naviy-axloqiy negizlaridan biri umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik hisoblanadi (*I. A. Karimov. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. 78-bet*).

Darhaqiqat, milliy ma'naviyatimizning sarchashmalari boshqa xalqlarning eng yuksak qadriyatlarini ijodiy o'zlashtirish an'analari bilan bog'lanadi. Agar ma'naviyatimiz va madaniyatimiz tarixiga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, o'zbek milliy san'ati, she'riyati, ilmi o'tmishda arab, fors, hatto yunon madaniyatidan bahra olganligiga guvoh bo'lamiz.

Demak, milliy va umuminsoniy ma'naviyat to'g'risida gapirish uchun yetarli asoslar mayjud. Milliy va umuminsoniy ma'naviyat o'rtaqidagi munosabat masalasi mazkur muammoni churroq bilishga yordam beradi.

Bu masala ayrimlik va umumiylitka xos belgilar ifodalanishining alohida bir sohasi hisoblanadi. Umumiylit narsa-hodisalarning eng muhim, mushtarak aloqalarini aks ettiradi va u faqat ayrimlik orqali namoyon bo'ladi, xususiylik shakliga kiradi. Boshqa tomonidan, har qanday ayrimlik ma'lum ma'noda umumiyligidir, binobarin, alohidaning tomoni yoki mohiyatidir.

Milliy va umuminsoniy ma'naviyat haqida so'z borganda ham ana shu jihatlar birligini ko'ramiz. Milliy ma'naviyat muayyan elat, xalq va millatga daxldorlikdir. Har bir elat va millatning faqat o'zigagina xos bo'lgan, uning milliy ruhiyati, yashash tarzi, tarixiy an'analari va fikrlash qobiliyatları tabiatini ifodalaydigan ma'naviyati mayjud. Chunki umumiylit, abstrakt narsa-hodisa, shu jumladan, ma'naviyat ham yo'qdir. Ma'naviyatning milliyligi masalasi, tabiiyki, uning tarixan shakllanganligi, milliy mazmun, koloritga egaligidir.

O'zbek xalqining milliy ma'naviyatini xarakterlaydigan, uning o'ziga xosligini ko'rsatadigan xususiyatlar quyidagilar: yuksak

in onparvarlik, bag'rikenglik, mehmondo'stlik, hamma millat va elat vakillariga izzat-hurmat ko'rsatish, kattalarga izzat-ikrom, mulohazalilik, sharm-hayolilik, hamdardlik, mahalladoshlik, bolajonlik, halollik va h. k. Bularni yanada umumlashtiradigan bo'lsak, ma'naviyatning xilma-xil jihat va qirralari shaklida namoyon bo'ladi: Hayo va Andisha, Vafo va Sadoqat, O'ktamlik va Tashabbuskorlik, Himmat va Saxovat, Jur'at va Shijoat, Oryat va Hokisorlik, Bosiqlik va Hilm, Farosat va Zakovat, Balog'at va Fasohat, Mardonialik va Mas'uliyat va boshqalar.

Ma'naviyat milliy ong, ijtimoiy ong, mafkura, milliy madaniyat, e'tiqod, imon, milliy g'urur, iftixor kabi tushunchalar bilan yaqin turadi. Biroq ular o'rtasida katta farq bor.

Ma'naviyat shaxsning o'z-o'zini, o'z huquqini anglashi va belgilishi hamdir. Millatning ma'naviy qiyofasi uning milliy ongi va ruhiyatida ifodalanadi. Har bir millatning ma'naviy qiyofasi jamiyatning moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga qarab boyib borishi qonuniy hodisadir.

Ma'naviyatning muhim unsuri bo'lgan milliy ong nisbiy mustaqildir, u jamiyatning moddiy va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga faol ta'sir qilishi mumkin.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish zamirida sodir bo'ladi. Milliy ong va uni anglash har bir odamdan o'zining qaysi millatga mansubligini, o'z milliy tarixi, madaniyati, merosi, urf-odatlari, tilini to'g'ri, har taraflama chuqur bilishni talab etadi. Agar milliy mansublik va uning barcha tomonlari kishilar tasavvurida ilmiy asoslangan bo'lsa, milliy o'z-o'zini anglash hisoblanadi. Milliy o'zligini anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, u, shubhasiz, milliy mafkuraga aylanadi. Milliy mafkura esa milliy madaniyat, qadriyat va ma'naviyat manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy qurol bo'lib xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyat millatchilik bilan kelisha olmaydi. Millatchilik ma'naviy qashshoqlik alomati, milliy ongning qusuridir. Millatchilik, o'zga millatlarga, qolaversa, o'z millatiga xiyonat qilishdir. O'zga millat manfaatini inkor etish, ularning qadriyatini mensimaslik, ularni kamsitish bo'lib, ijtimoiy adovat tug'diradigan illatdir. Shu ma'noda Prezidentimiz ma'naviyatimiz ifodasi bo'lgan «milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan

mutlaqo xoli» bo‘lishini alohida ta’kidlaydi (*I. A. Karimov. Jamiatning mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. — Toshkent, «O‘zbekiston», 1998 yil, 14—15-betlar*).

Milliy ma’naviyatning negizini milliy madaniyat tashkil etadi. Milliy ma’naviyat — jamiatning moddiy hayotini aks ettiradi. Uning paydo bo‘lishi ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq. Shu ma’noda ma’naviyatning paydo bo‘lishi kishilik jamiatining eng qadimiy davrlariga borib taqaladi. Insonning har bir qadami madaniyatning rivoji bilan bog‘liq. Madaniyatning rivojlanshi ma’naviy jihatdan qanchalik rivoj topganligini bildiradi.

Ma’naviyat kishilik jamiatining har bir harakatida, faoliyatida ko‘rinadi. Milliy ma’naviyat — ma’naviyati yuksak, vatanparvar, donishmand shaxslar faoliyati bilan yaratiladi. Ma’naviyatni yaratishda ziyorilar bilan bir qatorda tadbirkorlar, diplomatlar, siyosiy arboblar, rahbarlar, olimlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq ommasi katta rol o‘ynaydi. Dunyo tafakkuri qaymog‘i alohida shaxslar tafakkurida jamlanadi va u yana shu shaxslar faoliyati orqali tarqaladi.

Har qanday jamiat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga olgan holda, uning manfaat va ehtiyojlarini ravnaq toptirish negizida rivojlanadi. «Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir, — deb yozadi I. A. Karimov — xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo‘sni chilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo‘yi asrab-avaylab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit yaratishdir» (*I. A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. — Toshkent, «O‘zbekiston», 1994 yil, 74-bet*).

Milliy va umuminsoniy ma’naviyatlar o‘zaro bog‘langan. Ular bir-biriga ta’sir etib turadi.

Umuminsoniy ma’naviyat milliy ma’naviyatdan o‘sib chiqadi, shunga qaramay, u mazmun jihatdan chuqur va boydir. Umuminsoniy ma’naviyat barcha millatlar, elatlari va xalqlarning maqsad va intilishlari birligini va umumiyligini ifodalaydi.

Millatlar milliy mahdudlikda emas, balki umuminsoniy aloqalar asosida rivojlanadi va jahon taraqqiyotiga o‘z hissasini-

qo'shadi. Milliy manfaatlarni, milliy ma'naviyatni umuminsoniy ma'naviyatga qarshi qo'yish mumkin emas, milliy manfaatlar bahonasida millatparastlikni targ'ib qilish millatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazadi.

Umuminsoniy ma'naviyat barcha xalq va elatlarga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan an'analar, urf-odatlar, intilishlar, g'oyalar, sog'lom fikr, yuksak did bilan baholash qobiliyati, shu asosda qilinadigan harakat va faoliyat va h.k. bo'lib, undan unumli foydalanish umumbashariy muammolarni to'g'ri hal qilishga ko'p jihatdan ijobiy ta'sir etadi. Insonning omon qolishi, ularning huquq va erkinliklari, xalqlarning har tomonlama hamkorligi, ekologik va energetik muammolar, umuminsoniy boy tarixiy meros, umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi va boshqalar ana shunday.

Umuminsoniy ma'naviyatlarning ustuvorligi ayni vaqtida milliy ma'naviyatning mustahkamlanib borishiga yordam beradi.

Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida, bir tomonidan, milliy ma'naviyat, ikkinchi tomonidan, umuminsoniy ma'naviyatning ahamiyati oshib bormoqda. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy munosabatlarning xalqaro munosabatlar darajasiga ko'tarilishi kuzatilmoxda. Bu bilan umuminsoniy qadriyatlarning roli ham ortib borayotir.

Milliy va umuminsoniy ma'naviyatning o'zaro bog'lanib ketganligini siyosiy va ma'naviy sohalardagi jarayonlarda yaqqol ko'rish mumkin. Respublikamiz jahon iqtisodiyoti bilan o'zaro yaqinlashish maqsadida bozor munosabatlarini tanlab oldi va shu yo'ldan rivojlanmoqda. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'zining milliy yo'li orqali borayotganligi diqqatga sazovordir.

Bunday iqtisodiy siyosat ham respublikaning hamda insoniyatning manfaat va talablariga mos tushadi. Shu sababli ko'pgina rivojlangan mamlakatlar bizga xayrixoh bo'lmoqdalar va o'z yordamlari bilan ko'maklashmoqdalar. O'zbekiston Yevropa hamjamiyati, Xalqaro valyuta fondi va boshqa iqtisodiy tashkilotlar ishida faol qatnashmoqda. Respublikamiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida BMTga a'zo bo'ldi.

Milliy ma'naviyatimizning ko'pgina tomonlari umumjahon ma'naviyatiga aylanib ketganligini hech kim inkor qila olmaydi. Buning yorqin isboti sifatida 1990 yil Imom at-Termiziy tavalludining 1200 yilligi, 1996 yil Amir Temur tavalludining 660

yilligi, Ulug‘bek, Navoiy, Farg‘oniy, Ismoil Buxoriy va boshqa ulug‘ zotlarning yubileyлari YuNESKO rahnamoligi va ishtirokida nishonlanganidir.

Prezidentimiz Ahmad al-Farg‘oniya bag‘ishlangan marosimda shunday degan edi: «Uning merosi insoniyatning yangi ilm cho‘qqilariiga ko‘tarilishiga sababchi bo‘ldi, butun ma’rifiy dunyo olimlari uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qildi» (Milliy tiklanish, 1998 yil, 27 oktyabr). Uning «Astronomiya» kitobi XII asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilindi, XV asrda Italiya, keyinchalik Germaniya, Fransiya va AQShda nashr etildi. Mashhur sayyoh Xristofor Kolumb 800 yil o‘tib Ahmad al-Farg‘oniyning Yer meridiani darajasi haqidagi fikrlari to‘g‘riligini e’tirof etdi. Oydagi kraterlarning ikkitasi — Ahmad al-Farg‘oniya va Mirzo Ulug‘bek nomi bilan ataladi.

Tabiiyki, o‘zbek xalqining milliy ma’naviyati jahon tamaddunidan chetda paydo bo‘lgan emas. Ma’naviyatimiz, avvalo, o‘z zaminida, qolaversa, umuminsoniy ma’naviyat yutuqlari ta’sirida shakllandi va kamol topdi. Ayniqsa, u Hindiston, Xitoy, Qadimgi Yunoniston, Rim madaniyati va jahondagi boshqa madaniyatlar ta’sirida yana boyib bordi, ulardan ma’naviy ozuqa oldi. O‘z navbatida, o‘zbek xalqi ma’naviyati boshqa xalqlar ma’naviyatiga, shuningdek, umumjahon madaniyati ravnaqiga katta ijobjiy ta’sir o‘tkazdi.

Yevropa olimlarining ta’kidlashicha, Yevropa Sharqdan savodxonlikni, aniq fanlar va ularni egallash usullarini, dehqonchilik va chorvachilik ilmlarini, dengizda suzish hunarini, harbiy texnikani, tasviriy san’at, me’morchilik sirlarini, she’riy san’at jozibasini o‘rgangan.

Sharqlik savdogarlar ilk bor Osiyo bilan Yevropa o‘rtasidagi tijorat yo’llarini ochdilar. Bunga Buyuk ipak yo‘li yorqin misol bo‘la oladi.

Sharqliklar algebrani dunyoga keltirdilar, inson qo‘liga tabiatni ochmoq uchun kalit tutqazdilar, fizikaning barcha bo‘limlarini shu kalit yordamida ochdilar. Algebra, algoritm ilmi bobokalonimiz al-Xorazmiy ijodiy kashfiyoti bilan bog‘liq ekanligini eslasak, milliy iftixor tuyg‘usi jo‘sh uradi.

Bozor munosabatlari qaror topayotgan hozirgi sharoitda har bir inson, har bir fuqaro o‘zligini chuqur anglashi, boy milliy ma’naviy merosini egallashi, boyishini umuminsoniy ma’naviyat bilan uyg‘unlashuvi negizida amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

## 5. MA'NAVIYAT VA SIYOSAT, IQTISOD, HUQUQ, MAFKURA, DIN

Ma'naviyat jamiyat hayotining barcha sohalari bilan uzviy bog'-langan, boshqacha aytganda, ijtimoiy turmush, inson faoliyatining biror bir qirrasi yo'qdirki, u ma'naviyat ruhi bilan chulg'ab olinmagan bo'lsin.

**Ma'naviyat va siyosat.** Milliy davlatimizning tarkib topishi siyosat va ma'naviyat o'rtasidagi aloqadorlik masalalariga yangicha yondashish vazifasini qo'ydi. Bu, tabiiyki, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: birinchidan, davlatning ma'naviyatga munosabati, jamiyat taraqqiyotida ma'naviy omilning roliga; ikkinchidan, ma'naviyatning siyosatga, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiha bo'lgan munosabati masalasidir.

Siyosat davlatni boshqarish san'ati bo'lib, keng ma'noda olib qaralganda ma'naviy faoliyatning muhim ko'rinishi hamdir. Siyosat davlat ishlarida ishtirok etishni, davlat faoliyatining turli shakllarini tartibga solishni, uning vazifalari va mazmunini amalga oshirishni nazarda tutadi. Siyosat sohasi o'z tabiatiga ko'ra davlat tuzilishi, mamlakatni boshqarish, ijtimoiy guruh va tabaqalarga rahbarlik qilish kabi muhim funksiyalarni o'z ichiga oladi. Unda jamiyatda yashayotgan barcha ijtimoiy qatlamlarning tub manfaatlari va o'zaro munosabatlari aks etadi. Siyosat davlatning tabiatini va mohiyatini ifodalab, shu asosda uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi.

Davlat jamiyat miqyosida siyosat yurgizar ekan, ijtimoiy sohalarning barchasiga nisbatan o'z manfaatlari jihatidan yondashadi, davlat olib borayotgan siyosatning asosiy tamoyillari esa huquqiy jihatdan kafolatlangan bo'ladi. Darhaqiqat, «O'zbekiston Respublikasida Davlat hokimiysi xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidan amalga oshiriladi», — deb yozilgan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»ning 7-moddasida. 14-moddasida qayd etiladiki, «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi» (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent, «O'zbekiston», 1992 yil, 12—13-betlar).

Ma'lumki, davlat mustaqilligini qo'lga kiritish natijasida republikamiz uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, madaniy va

ma’naviy yangilanishning keng istiqbollari ochildi. I. A. Karimov bu jarayonda yangi milliy davlatimizning asosiy vazifalari to‘g‘risida to‘xtalar ekan, u «butun xalqning manfaatlarini ko‘zlab, islohotlar jarayonining tashabbuskori bo‘lishi, iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi yo‘nalishlarini belgilashi, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va mustaqil davlatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o‘zgarishlarni amalga oshirish siyosatini ishlab chiqishi va izchil ro‘yobga chiqarishi kerak», deb uqtiradi (I. A. Karimov. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. — Toshkent, «O‘zbekiston» 1995 yil, 10—11-betlar).

Mustaqil davlatimiz jamiyat hayotining barcha sohalarida olib boradigan siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqdi va u Prezidentimizning asarlarida, nutqlari va maqolalarida o‘z ifodasini topdi. I. A. Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida yangilangan jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy hayoti sohasida davlat siyosatining asosiy vazifalari quyidagicha belgilanadi:

- insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlik;
- ma’naviyat va axloqiylikni qayta tiklash;
- qadimgi va zamonaviy madaniy boyliklarni, adabiyot va san’atni bilish hamda ko‘paytirish. Xalqning milliy madaniyati va o‘ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo‘lmish o‘zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish;
- ijtimoiyadolat qoidalarini ro‘yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlarining davlat tomonidan ijtimoiy muhofazaga bo‘lgan kafolatli huquqlarini ta’minlash;
- umumiylarini ta’lim olish, kasb-hunar egallash va tegishli maxsus tayyorgarlikdan o‘tishni erkin tanlashda barchaga baravar huquq berish; yangi demokratik ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ozchilikdan iborat millatlarning manfaatlari va huquqlarini himoya qilish, ularning madaniyati, tili, milliy urf-odatlari va an‘analarining saqlanishi hamda rivojlanishini kafolatli ta’minlash, davlat tuzulmalarining faoliyatida va jamoat turmushida faol qatnashish;
- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakkahokimligidan qat’iyan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olish;
- ijodning barcha turlarini rivojlantirish, odamlarning iste’dod va qobiliyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yaratish,

ma'naviy mulkni himoya qilish, ma'naviy potensialni jadal rivojlantirmay turib, respublikaning chinakam mustaqilligi va ravnaq topishini ta'minlab bo'lmaydi (*I. A. Karimov. Yuqoridagi asar. 18—22-betlar*).

Yuqoridagi vazifalarni umumlashtiradigan bo'lsak, milliy davlatimizni yanada mustahkamlashning ma'naviy-axloqiy negizlarini quyidagicha ifodalash mumkin bo'ladi: birinchidan, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligining ahamiyati; ikkinchidan, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va yanada rivojlantrish; uchinchidan, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish uchun shart-sharoit yaratish; to'rtinchidan, milliy mustaqillikni mustahkamlashda vatanparvarlikning buyuk ma'naviy omil ekanligi.

Demak, respublikamizda davlat va jamiyatni mustahkamlasha da xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantrish mustaqillik siyosatining asosini tashkil etadi.

Ma'naviyat va siyosat o'rtasidagi uyg'unlikning eng muhim principidan biri bu — ham ichki sohada, ham tashqi munosabatlarda adolatparvarlik g'oyalariga, milliy manfaatlarning maqsadlariga amal qilishda namoyon bo'ladi. Shuni aytish kerakki, milliy manfaatlari-miz — voqeligimizdan, uning rivojlanishi uchun kerak bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jabhalardagi ehtiyoj, talablardan kelib chiqadi. Bizning chin milliy manfaatlarmiz dunyodagi boshqa millatlarning manfaatlariiga aslo zid kelmaydi. Demak, siyosat milliy ma'naviyatga tayanishi kerak, uning oliy, yagona o'lchovi — inson va insoniyatga erk berish, shaxsning imkoniyatlari va haq-huquqini mumkin qadar kengaytirish va rivojlantrishdan iboratdir.

**Ma'naviyat va iqtisod.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov olib borayotgan ijtimoiy siyosatning eng muhim sohalaridan biri — iqtisod va ma'naviyatning uyg'unligini ta'minlashdir. O'zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillari haqida so'z yuritganda, «biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishning ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yur'kalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz, — deydi u. — Siyosatimizni shunga asoslanib quramiz va uni to'la ta'tibq etamiz... Ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi. Milliy kamolot yo'lli mana shu» (*I. A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. — Toshkent, 1993 yil. 47-bet*).

Darhaqiqat, ma'naviyat ishlarini yo'lga qo'ymasdan turib, na-faqat iqtisodiy yuksalishlarga, balki, umuman jamiyat taraqqiyotida yuksakliklarga erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiy islohotlar har qanday sharoitda, har qanday ijtimoiy tuzum yoki jamiyatda zaruriy ehtiyoj hisoblanadi, biroq bu jarayon ma'naviy islohotlardan ajratib olingan holda yuz beradigan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotini to'la ta'minlangan deb bo'lmaydi. «Bozor munosabatlariga o'tish — ko'r-ko'rona maqsad emas, balki iqtisodni o'nglash, jamiyatni yangilash yo'li. Demokratik davlat qurmoqchi ekanmiz, avvalo, ijtimoiyadolat prinsiplariga sodiq bo'lib qolishimiz kerak. Agar bozor yetim-yesirlarning, qariyalari va kambag'al-nochor odamlarning ko'z yoshi evaziga quriladigan bo'lsa, bunaqa bozorning uyi kuysin, — deb ta'kidlaydi I. A. Karimov. — Yuksak ma'naviy burchlar kecha yoki bugun o'ylab topilgan emas. Ular insoniyatning ming yillik tarixi, ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasi davomida yuzaga kelgan. Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi. Nuqlul pul va foyda ketidan quvsak-da, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo'lib qolishsa — bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q» (I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 25-bet).

Iqtisodiyot moddiy tushuncha, axloqiylik esa ma'naviy kategoriya bo'lsa-da, mana shu ikkala holatni uyg'unlashtirmay turib mamlakatimizda yangi jamiyat qurish mumkin emasligi yuqorida-gi so'zlarda nihoyatda keskin darajada qo'yiladi. Tarixdan ma'lumki, iqtisodning ma'naviyatdan ajralib qolishi, poymol etilishi borliq bilan ma'naviyat, inson bilan olam o'rtasida o'tib bo'lmash jarlik paydo bo'lishiga olib keladi. Natijada, insonlar har qanday sharoitda ham, har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, hatto yurt manfaatlarini sotish evaziga ham, boylik, mol-mulk orttirishga harakat qiladi, yashashning oson yo'llarini axtaradi, uning vijdon, iymon, odamgarchilikdan mahrum vositalarini topishga ruju qo'yadilar. Demak, iqtisod bilan axloq, moddiy ehtiyoj bilan ma'naviy zarurat o'rtasidagi uyg'unlik buzilgan joyda jamiyat tanazzuli uchun zamin paydo bo'ladi.

Ma'naviyat va iqtisod o'rtasidagi aloqadorlik haqida šo'z yuritish uchun avvalambor «iqtisodiyot» tushunchasining mazmunini yoritish taqozo etiladi. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, iqtisodiyot faoliyatning alohida turi sifatida xo'jalikni boshqarish deb e'tirof etiladi.

Darhaqiqat, insonlar hayot kechirish uchun moddiy ne'matlarga ega bo'lishi kerak. Buning uchun ularni yaratishga ehtiyoj tug'iladi. Tabiiyki, bu jarayon, bir tomondan, tabiat narsa-hodisalari, boshqa tomondan, odamlarning o'zaro munosabatlari asosida yuz beradi. Anglashiladiki, yetishtirilgan iste'mol mahsulotlarida nafaqat ularni yetishtiruvchilar o'rtasidagi moddiy munosabat, balki, shu bilan birga ma'naviy munosabatlар ham amal qiladi.

Iqtisodiyot tushunchasiga mamlakatdagi ishlab chiqarishning holati, uning joylanishi va dinamikasi (harakati) kiradi. Iqtisodiyot avvalo odamlar faoliyatidir, ularning tabiatga va o'zaro ta'siri natijasida moddiy ne'matlar va xizmatlarning yaratilish jarayonidir. Keng ma'noda iqtisodiyot shu ne'matlar va xizmatlarning vujudga keltirilishidir (*Q. Yo'ldoshev, Q. Muftaydinov*. Iqtisodiy bilim asoslari. — Toshkent, «O'qituvchi», 1997 yil, 16—17-betlar).

Agar masalaga bozor iqtisodiyotiga o'tish nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, u suyanadigan barcha obyektiv omillar ayni vaqtida ma'naviy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday omillarning daslabkisini moddiy shart-sharoitlar bilan bog'lab tushuntirsak, unda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy lashtirish, mulkchilikning turli shakllarini vujudga keltirish, kishilarda xo'jayinchilik (mulkka egalik) hissini tarkib toptirish, sog'lom raqobatchilik muhitini yaratish kabi jarayonlar ko'zda tutiladi. O'tish jarayonida ijtimoiy himoya omilining ham katta o'rni borligi hammamizga ma'lum, bunda bozor munosabatlari sharoitida odamlarni ijtimoiy muhofaza qilib borish, yangi iqtisodiy tizimga ortiqcha aziyatsiz, ozor chekmasdan o'tish masalasini ijobiy hal qilish zarurati tug'iladi. Eng muhimi, kishilarimizning bozor munosabatlariga o'tish va bozor sharoitida yashashlari uchun ularni ma'naviy jihatdan tayyorlash, eski iqtisodiy hayot ruhiyatidan, ayniqsa, boqimandachilik kayfiyatidan butunlay xalos etish kerak bo'ladi. Darhaqiqat, «kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shaklantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkoniyatlarini berish kerak» (*I. A. Karimov*. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish yo'lida. — Toshkent, «O'zbekiston», 1995 yil).

O'z o'zidan ravshanki, yangicha iqtisodiy tafakkur ma'naviy junyon bo'lib, inson hayoti va taqdiri, uning axloqiy fazilatlari, jekki dunyosi, xarakteri bilan bog'liq hodisadir. Buning ma'nosi, tadqiqotchilar ta'kidlaganlaridek, birinchidan, kishilar mulksizlik holatidan mulkka egalik qilish holatiga o'tishlari, mulkni tasarruf

qila olishda erkinlikka ega bo‘la olishlari, boqimandachilikka barham berib, o‘zlarining iqtisodiy hamda ijtimoiy ahvolini yaxshilashlari uchun shaxsan mas’ul ekanliklarini anglashlari, iqtisodiy sohadagi raqobat kurashida ma’naviy jihatdan sobit bo‘lishlari, ma’naviyat, halollik, poklik, ishbilarmonlik fazilatlarini tarkib toptirishlari taqozo qilinadi. Ikkinchidan, har bir kishining farovonligi uning o‘ziga ko‘p jihatdan bog‘liqligi, shaxsiy mehnati, tadbirkorligi, o‘z mulkini omilkorlik bilan boshqarishi, fan-texnika yangiliklarini chuqur egallashi, iqtisodiy madaniyatini oshirib borishini kun tartibiga qo‘yadi. Uchinchidan, har bir kishi o‘z faoliyati va mehnatini qaysi soha bo‘yicha rivojlantirishi, foyda-zararning farqini bila olishi, hisob-kitob qila bilish malakasini rivojlantirib borishi kerak. Tabiiyki, yuqoridaq jarayonlar inson ma’naviyati, shuningdek, jamiyatning ma’naviy va axloqiy tamoyillari bilan bog‘liq talablar doirasida amal qiladi (qaralsin: *Q. Yo‘ldoshev, Q. Muftaydinov*. Yuqoridaq asar).

Respublikamizda ma’naviy muhitning sog‘lomligi, har qanday islohotlar, avvalo, odamlar ongi va dunyoqarashiga, ruhiy olamiga moslashtirib olib borilayotganligi sababli fuqarolar imkoniyati, yaratuvchanlik va bunyodkorlik imkoniyatlari tobora kengaymoqda, ularda Vatan, millat, g‘urur tushunchalari chuqurlashmoqda. Prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan siyosat tufayli har qanday moddiy manfaatdorlik, har qanday iqtisodiy ravnaq bevosita ma’naviy barkamollik tuyg‘ulari bilan bog‘liq ekanligi, shu asosdagiha haqiqiy rivoj topish mumkinligiga ishonch ortib bormoqda.

Bu yerda yana bir ma’naviy omil to‘g‘risida to‘xtash lozim deb o‘ylaymiz, u ham bo‘lsa, bozor munosabatlari tarkib topishi jarayonida xalqimizning boy ma’naviy merosi ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi masalasidir. Kishilarimiz bozor munosabatlari tarkibiga va jarayoniga kirar ekanlar, avvalambor, ana shu qadimiy talab va fazilatlarga amal qilishlari taqozo etiladi. Qur’oni Karim, Hadislari, shuningdek, allomalarimizning savdo-sotiq, bozor munosabatlariiga oid qarashlari alohida bir maktab vazifasini o‘taydi, ya’ni ular odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarda poklik, halollik, to‘g‘riso‘zlik, yolg‘on ishlatmaslik, muruvvatli bo‘lish kabi insoniy fazilatlarga katta e’tibor berishga da’vat etadi. Shuningdek, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri xo‘jalik yuritish bilan, iqtisodiyot bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan kategoriylar (ijara, soliq, iste’mol, ehtiyoj, hunar, dehqonchilik, pul, taqsimot kabilalar)ning ma’naviylik negiziga qarab chiqqanlar va bunda insoniylikni birinchi o‘ringa qo‘yanlar.

Shunday qilib, ma'naviyat bilan iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik ijtimoiy taraqqiyotimizga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy toptirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljитishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir» (*I. A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. 139—140-betlar*).

**Ma'naviyat va huquq.** Respublikamizda demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish sohasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Fuqarolarning erki, huquqlari, burchlari, erkinliklari darajasi jamiyatning demokratlashuvi sifatini ifoda etadi. Bu jarayonlar adolatli jamiyat fuqarolarining ma'naviy-axloqiy va huquqiy rivojlanganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Huquqiy davlatning mohiyatini insonparvarlik tashkil etadi, uning mohiyati shundaki, hokimiyatning birdan-bir manbayi xalq hisoblanadi, bu davlat o'zining millat va elatlariga teng siyosiy huquqlarni, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishi uchun teng imkoniyatlarni kafolatlaydi, millatparastlik, irqchilik, shovinizm, xalqlarning huquqlarini cheklash yo'lidagi har qanday urinishlarga qat'ian kurash olib boradi. Shubhasiz, bu tamoyillar huquqiy davlatning ma'naviy tabiatini aks ettiradi.

Demokratik, adolatparvar jamiyat va fuqaroviyligi davlat qurish jarayonida huquqiy madaniyatning roli ortib boradi. Binobarin, jamiyatda qabul qilingan huquq-tartibotga, qonunlarga nisbatan hurmat bilan qarash har bir insonning shaxsiy e'tiqodiga, ma'naviy burchiga aylanishi kerak. Gap shundaki, har bir kishi muayyan jamiyatda va davlatda yashab turib, u yerda amal qiladigan huquq-tartibotdan tashqarida faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Mustaqil respublikamizda huquqiy madaniyatga alohida yonda-shishning boisi ham ana shunda. Prezidentimiz I. A. Karimov alohida ta'kidlaganidek «Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida

ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi» (*I. A. Karimov*. Bizdan obod va ozod Vatan qolsin. — Toshkent, «O'zbekiston», 1994 yil, 48-bet).

Ko'rinaliki, amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, huquqiy talablar har bir fuqaroning ongiga yetib borishi, e'tiqodiga aylanishi, eng muhimi, kundalik turmushdagi amaliy faoliyatining mezoni bo'lishi zarur. Bu nafaqat siyosiy-huquqiy, ayni paytda, ma'naviy taraqqiyot ehtiyojining ifodasi hamdir.

Demak, ma'naviyat, uning rang-barang turlari huquq, qonunchilik tamoyillari bilan uzviy bog'langan. Darvoqe, huquqiy davlat tushunchasining o'zi ham ma'naviy qadriyatdir. Huquqiy davlat faoliyat ko'rsatadigan jamiyatda hammaning qonun oldida teng bo'lishi va qonunning ustuvorligi ta'minlanadi. Bu ustuvorlik ma'naviyatning adolatparvarlik tamoyili bilan asoslanadi. Buning zamirida ishonch, e'tiqod, ma'naviy javobgarlik, kafolat, tashabbuskorlik, ijodkorlikka intilish, davlat va millat ravnaqi uchun kurashda faol ishtirok etish mas'uliyati yotadi.

Ma'naviyat va huquq o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning uyg'unligini ta'minlaydigan mezon inson haq-huquqlarining kafolatlanishidir. Inson mana shu asosda o'zining mohiyatini chuqur his etadi, o'zi, jamiyat oldidagi mas'uliyati, fuqarolik burchlarini to'la anglab yetadi, faoliyat ko'rsatadi. Davlat tomonidan qabul qilingan va jamiyatdagi ko'pchilikning irodasini ifodalaydigan qonunlarga hurmat, bo'ysunish, ijtimoiy va shaxsiy faoliyat ko'rsatish uchun ma'naviy mas'ulligi tarkib topadi.

Ma'naviyat va huquq mushtarakligining yana bir jihatni huquqiy imtiyozlar va axloqiy burchlarning kafolatlanishidir. Kishilarning huquqiy va axloqiy ongi inson ma'naviy hayotida muhim o'rin tutadi. Huquq ham, axloq ham ular faoliyatini boshqarib turadi. Insonning halol, pok, nomusli, o'ziga talabchan, jamoatchilikning fikrini hurmat qilish kabi fazilatlari huquqiy madaniyatning ma'naviy negizi sanaladi. Albatta, insonning aksilma'naviy faoliyatini baholaganda axloq ham, huquq ham o'ziga xos munosabat bildiradi.

Ma'naviyat va huquqning o'zaro munosabatlari haqida gap bor-ganda ma'naviy faoliyat hodisalarini huquqiy kafolatlash masalasi ham kelib chiqadi. «Jamiyatimizning ma'naviy qiyofasini belgilab beradigan barcha ijodiy mehnat sohalari ham qonun himoyasida bo'lishi kerak. Hozirgi dunyoda hamma narsa uyg'unlashtirilgan.

Jamiyatning biryoqlama, texnokratik rivoji millat salohiyatini pasaytirib yuborishi, og'ir ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin va olib kelmoqda ham» (I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 184-bet).

Ma'naviyat va huquq o'rtaсидаги aloqadorlikning o'ziga xos sintezini huquqiy madaniyat tushunchasida ko'rshimiz mumkin. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, huquqiy davlat qurishdan ko'zlangan maqsad ostida har bir insonning o'zini shaxs sifatida his qilishi uchun ijtimoiy makon va imkoniyat yaratilishi yotadi. «Har bir shaxs o'z fikrining shu mamlakatda e'tiborga olinishiga, uning fikri ma'lum masalalarni hal qilishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi huquqiy davlat yaratadigan imkoniyatdir» (O. Husanov. Qonuniylik — huquqiy davlatning negizi. — //Huquqiy demokratik islohotlar. — Toshkent, «O'zbekiston», 1997 yil, 18-bet).

Prezidentimiz I. A. Karimov siyosiy-huquqiy munosabatlarda, inson va davlat o'rtaсидаги o'zaro aloqalarda inson manfaatlari ustuvor bo'lishini alohida ta'kidlaydi (I. A. Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. 23-bet). Xalqning huquqiy madaniyatini yuksaltirish haqida to'xtalar ekan, quyidagilarni alohida ta'kidlaydi: «Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U — qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyatidir. U — odil sudni hurmat qilish, o'z haq-huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani — turli mojarolarni hal qilishda qonunga xilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir» (O'sha yerda, 29-bet).

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Milliy dasturi»da ham quyidagilar yoziladi: «Yuksak huquqiy madaniyat — demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasıdir. U jamiyatdagı turli xil hayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruhlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi hamda batartibligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri hisoblanadi».

Darhaqiqat, huquqiy madaniyat, uning mohiyati va mazmuni ma'naviyatsiz tushunish mumkin emas. Binobarin, huquqiy

madaniyat asosida milliy odob, axloq, an'analar targ'ib etiladi, yuridik tushunchalarning mazmuni ochiladi, kishilarning o'z haq-huquqlarini himoya qilish tamoyili aks etadi, tan olingan huquqtartibot qoidalarini ongli ravishda bajarishga da'vat yotadi. Jamiyat, davlat, oila hamda fuqarolar manfaatlarining mushtarakligi negizida barcha shaxslarning qonunlarga bo'ysunib yashashlari, xalq irodasining ifodasi bo'lgan qonunlarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatishlari, yashashlari ifoda etiladi.

«Huquqiy madaniyat ma'naviyatga nisbatan tor tushunchadir, chunki ma'naviyatda huquqiy tamoyillardan tashqari yana jamiyat, shaxs, millatning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyatlari, idrok va malakalari mujassam etiladi. Tadqiqotchilar yozganlaridek, «huquqiy madaniyatli inson o'z navbatida ma'rifatli shaxs hisoblanadi. Ma'rifatli fuqaro muayyan sohada ma'lumotga ega bo'lish bilan bir qatorda huquqiy bilimga, xulq-atvorga ega bo'lgan fuqarolik jamiyatining qonun va qoidalariga rioya etib yashaydi» (Sh. Ro'zinazarov. Huquqiy madaniyat — fuqarolik jamiyati talabi. «Xalq so'zi», 1997 yil, 6 avgust).

Ko'rindiki, umumiy madaniyatning tarkibiy qismini tashkil etib, huquqiy madaniyat, huquqiy bilimlarga ega bo'lgan va ularni amaliyotda tadbiq eta oladigan kishini tarkib toptirishi, faqat shundaylargina madaniyatli, ma'rifatli, ma'naviyatli hisoblanishini aks ettiradi. Shubha yo'qki, ko'pgina qonunlar qabul qilinadi, biroq fuqarolar ularga rioya etishga tayyor bo'lmasa, huquqiy davlat ham, fuqarolik jamiyati ham haqiqatda amal qilmaydi. Shu sababli fuqaroviylar jamiyat va uning a'zolari yuksak darajada ma'naviy va ma'rifiy kamol topgan bo'lmosg'i kerak, kishilik jamiyatida tarkib topgan barcha qadriyatlarni bilishi, ularni e'tirof etishi, rioya etishi zarur. Xuddi shu ma'noda qonunlarga amal qilish, boshqacha aytganda, huquqiy madaniyat ko'nikmasi asosida ma'naviylik tabiatini o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra, yangi demokratik jamiyat qurilishi sharoitida davlat ma'naviyat ifodachisi tarzida faoliyat ko'rsatadi. Zero, uning huquqiy asoslari negizida xalq ma'naviyati yotadi.

**Ma'naviyat va mafkura.** Yuqorida ma'naviyat ruhiy, axloqiy qadriyatlar yig'indisi ekanligi aytib o'tildi. Uning mafkura bilan munosabatini ko'rib chiqadigan bo'lsak, mafkura ko'proq jamiyatning siyosiy sohasini aks ettirib, shubhasiz, ma'naviyatga asoslanadi. Ma'naviyatsiz mafkuraning mohiyatini, ruhi va tabiatini bilish mumkin emas. Shu ma'noda, mafkura ma'naviy faoliyat

mahsuli, jamiyat ma'naviy hayoti mahsuli va, ayni paytda, ma'naviy hayotga o'z ta'sirini o'tkazadigan va o'tkazib turadigan g'oyaviy omildir.

Xoh davlat bo'ladimi, xoh jamiyatmi yoki alohida olingen insonmi, maqsadsiz, manfaatlarsiz yashamaydi va faoliyat ko'rsatmaydi. Inson va jamiyatning o'z oldiga qo'ygan rejalar, manfaatlari fikr bilan tarkib topadi, nizom shakliga kiradi. Xuddi shu ma'noda, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jamiyat mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etadigan fikrlar va g'oyalar tizimidan iboratdir. Shu ma'noda, respublikamizda tarkib topayotgan milliy mafkura to'g'risida gapirish mumkin.

I. A. Karimov o'zining «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin» nomli suhbatida milliy mafkuramizning asosiy vazifasi «jamiyatning tayanchi bo'lmish oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etish»dan iborat deb ta'kidlaydi. Shubhasiz, milliy mafkura milliy mustaqilligimiz tufayli bunyod etilmoqda. Darhaqiqat, «milliy mafkura bizning erkin, ozod, adolatli, ma'naviyatli, erkin bozor iqtisodiyoti sharoitlarida demokratiya qonun-qoidalariga asoslangan huquqiy amal qiladigan hamda jamiyat barpo etishdan iborat tub milliy maqsadimizga xizmat qiladi va u ana shu maqsadlarga erishishimizni ta'minlaydi. Ma'naviyatli jamiyat qurishga intilayotganimiz milliy mafkuramizning o'ziga xosligini ifodalaydi (I. G'afurov. Milliy mafkura yolkinlari. — «Milliy tiklanish», 1998 yil, 21 iyul).

Mafkura deyilganda muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy jihatdan asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, badiiy qarashlarning bir butun tizimi nazarda tutiladi. Shuni aytish mumkinki, jamiyat ma'naviyati tarkibida turlicha mafkuralar, tizimlar bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida jamiyatdagi biror-bir mafkuraning davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilishi mumkin emasligi alohida ta'kidlanadi (2-modda). O'zbekistonda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, fikrlarning xilma-xilligiga asoslanadi. Bu — demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan hisoblanadi. Vaholanki, yaqin o'tmishda o'zga bir ijtimoiy qatlarning mafkurasini boshqalarning mafkurasiga majburan qabul qildirishga harakat qilindi, mafkuraning milliyligi inkor qilingani holda, uning sinfiy bo'lishi kerakligi siyosat darajasiga ko'tarildi.

Buning natijasida millatlarning, xususan, o'zbek millatining milliy ongi, dunyoqarashi, milliy g'ururi, iftixoridek nozik masalalar siyqalashtirildi yoki butunlay inkor etildi.

Yangilanayotgan ma'naviyat asosida istiqlol va milliy istiqlol mafkurasini yaratish sohasida Prezidentimiz I. A. Karimov katta tashabbuskorlik bilan faoliyat ko'rsatmoqda. «Uning rahbarligida yangi davrning ehtiyojlaridan kelib chiqib, mavjud g'ayriinsoniy mafkura — kommunistik mafkuradan voz kechdik. Endi ana shu mafkura o'rnini bosadigan qandaydir maslak, g'oya zarur edi. Chunki ulkan aqliy bo'shliqda muallaq hayot kechirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy muhitini ham, ruhiy-ma'naviy iqlimini ham, odamlarning turmush tarzini ham izdan chiqarib yuborishi muqarrar. Mamlakat aholisi har qanday sharoitda ham qandaydir g'oya uchun kurashishi, uning atrofida jipslashishi, qaysi bir maqsadning ro'yobga chiqishi uchun intilishi zarur. Shuning uchun ham Prezident I. A. Karimovning milliy istiqlol mafkurasini yaratish g'oyasi tumanli va rutubatli kunlarimizda jonlarga rag'bat uyg'otuvchi kuch bo'lib maydonga keldi» (N. Jo'rayev. Agar ogoh sen... 115–116-betlar).

I. A. Karimov bu masalaga alohida e'tiborni qaratib yozgan edi: «Yaratuvchilikning birinchi bosqichi davomida bir qancha istiqbolli shart-sharoitlar vujudga keltirildiki, ular islohotlarning yangi bosqichida mazmun jihatidan o'zini yanada ko'proq namoyon qilmog'i lozim bo'ladi. Hozir tarkib topayotgan umumxalq milliy mustaqillik mafkurasini keng ko'lamli hodisalar jumlasiga kiritmoq lozim» (I. A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. — Toshkent, «O'zbekiston». 1998 yil, 310–311-betlar).

Demak, mafkura masalasi milliy mustaqillikni ta'minlashning istiqbolli shart-sharoiti sifatida e'tirof etiladi. Mafkuraga berilgan bu baho uning jamiyat ma'naviy hayotida tutadigan o'rni haqidagi yuksak fikrlar bilan izohlanadi, albatta.

Mafkura atamasini ifodalaydigan «ideologiya» iborasini ijtimoiy fikrlar tarixida birinchi bo'lib XIX asr boshlarida fransuz olimi Destyut de Trasi o'zinig «Ideologiya elementlari» asarida ishlatgan. Bu so'z orqali u siyosat, odob, huquq, iqtisod uchun mustahkam negiz qurishni nazarda tutgan.

«Mafkura» iborasi esa «fikr» (arabcha)dan olingan, shu ma'noda «tafakkur», «mutafakkir» so'zlari bilan ma'nodosh, ilmiy ma'noda olinganda mafkura iqtisod, siyosat, ma'naviyat, umuman,

jamiyat hayotining barcha tomoniga daxldor bo‘lgan g‘oyalarni tizimi ni ifoda etadi, davlat bilan jamiyat, jamiyat bilan odamlar, siyosat bilan iqtisod, iqtisod bilan ma’naviyat hodisalarini bog‘lab, qanday rivojlanish sari borishni ifoda etadi.

Mafkurasiz ma’naviyat yo‘q, bo‘lishi ham mumkin emas. Mafkurada «muayyan g‘oyaga ishontirish, uyushtirish, safarbar etish, ma’naviy-ruhiy rag‘batlantirish, g‘oyaviy tarbiyalash, g‘oyaviy immunitetni shakllantirish» kabi maqsadlar ko‘zda tutilganligi bois u, ayni paytda, ma’naviy harakat dasturi vazifasini bajaradi (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 20—21 betlar).

Mafkura yangi ma’naviyatning qo‘lga kiritgan yutuqlarini ifodalovchi nazariy qarashlar, bilimlar sifatida ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim reja, strategik ahamiyat kasb etadi. I. A. Karimov «Tafakkur» jurnali savollariga bergen javoblarida jamiyatimiz mafkurasining asosiy mazmuni, rivojlanish istiqbollari, asosiy vositalari to‘g‘risidagi masalani ilmiy yoritib berdi. Avvalambor, mafkuraning ijtimoiy ahamiyati, so‘ngra mafkuraviy bo‘shliqning ma’naviy zarari to‘g‘risidagi yangicha qarashlarni bayon etadi.

Asarda mafkurani shakllantirishning ijtimoiy-tarixiy asoslari to‘g‘risida so‘z borar ekan, «mafkurani shakllantirish jarayonida, avvalambor, mamlakatning bugungi hayoti, o‘tmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun qayg‘uradigan, Vatan qismatini o‘z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg‘or dunyoqarash va tafakkuriga asoslanish lozim» deyiladi. Ikkinchchi shart milliy tariximizda o‘zlarining o‘lmas ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini qoldirgan buyuk allomalar faoliyatini o‘rganishdir. Milliy istiqlol mafkurasini negizida oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etish muhim o‘rin tutishi kerak.

Milliy mafkuramiz xalqimizni ma’naviy jihatdan barkamollikka erishtirmog‘i uchun quyidagi talablarga javob berishi zarur: birinchidan, «xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalar»; ikkinchidan, el-yurtni buyuk maqsadlarga yetaklaydigan, xalq va davlat daxlsizligini ta’minlaydigan yagona g‘oya; uchinchidan, har qanday millatchilikdan xoli, jahon hamjamiatida o‘zimizga munosib hurmat va izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo‘lishi; to‘rtinchidan, yosh avlodning vatanparvarlik, elparvarlik, insonparvarlik, odamiylik fazilatlarini tarbiyalashda ulkan ma’naviy omil bo‘lishi; milliy va umuminsoniy yutuqlarga erish-

moq uchun yo'l ochib beradigan, shunga muntazam ravishda da'vat etadigan g'oya bo'la olishi (*I. A. Karimov*. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. 13—15-betlar).

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy g'oya sifatida milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi O'zbekistonda chinakam insoniy jamiyat qurish va komil insonni tarbiyalashdan iboratdir. Bu mafkuraning iqtisodiy zaminini mulk shakllarining xilma-xilligi, bozor munosabatlarining amal qilishi; ijtimoiy asosini ijtimoiy qatlam va guruhlarning erkinligi va teng huquqliligi; siyosiy negizini fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlat tizimlari; huquqiy omilini inson erkinning qonunlarda kafolatlanishi va mustahkamlanishi; ma'naviy tayanchini hur fikrlilik, fikrlar xilma-xilligi, daxlsizligi, *millat va xalq hamjihatligining* garovi, jahon hamjamiatida xalqimizning har jihatdan mustaqilligi va tengligi tashkil etadi.

**Ma'naviyat va din.** Ma'naviyat murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uning taraqqiyotiga juda ko'p omillar — siyosat, iqtisod, fan, axloq, san'at, din kabi hodisalar bevosita ta'sir etib turishi haqida yuqorida gapirildi. Bu tizimda dinning alohida o'rni mavjudligi o'z-o'zidan ravshan. Buning boisi avvalo shundaki, din ming yillar mobaynida insoniyat hayotining barcha jihatlari bilan chambarchas bog'lanib, uning turmush tarziga aylanib ketdi. Ikkinchidan, din ta'sirining zamirida savob va gunoh haqidagi tasavvurlar turadiki, odamlar bu ma'naviy hodisalarga hech qachon befarq qaramagan. Binobarin, savob va gunoh, shuningdek, savobli ish qilganlarning taqdirlanishi, gunohkorlarning esa jazolanishi to'g'risidagi qarashlar kishilik jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida shakllangan, ijtimoiy ong tarkibida alohida o'rin tutgan. Uchinchidan, diniy e'tiqodlar bilan bog'liq fazilatlar inson psixologiyasiga asrlar davomida kuchli ta'sir ko'rsatib kelgan.

Insonda diniy e'tiqodning shakllanishi diniy tarbiyaning olib borilishi, uning mazmuni va ta'sirchanligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Agar tarbiya shaxsning ichki hissiyotiga muvofiq ravishda olib borilsa, muayyan maqsadlarga qarab yo'naltirilsa, albatta, u tegishli samara va natija berishi tabiiy.

E'tiqod sifatida e'tirof etilgan tamoyillarga qat'iy amal qilish va uni kundalik turmushda bajarish dinda asosiy o'rin egallaydi. Diniy talablar har bir shaxsdan qat'iylik, irodalilik, sabr-toqatlilik, chidamlilik va haqiqiy fidoyilikni, bir so'z bilan aytganda, dindorda xos bo'lgan e'tiqodga amal qilishni taqozo etadi.

Shaxs din talablarini to‘liq va vijdonan bajarsa, oqibat-natijada oxiratda unga Olloh marhamatiga sazovor bo‘lishdek oliv mukofot nasib etadi, har bir e’tiqodli inson bunga erishish uchun imkon qadar harakat qiladi.

Umuman olganda, barcha dinlardagi talab va ko‘rsatmalarning tub mohiyati shundaki, har bir inson ularni bajara borib, nariqi dunyodagi hayotida rohat-farog‘atda yashash uchun bu dunyoda faqat savobli ishlar bilan shug‘ullanishi zarur.

Har bir mo‘min-musulmon Ollohnning marhamatiga erishish uchun kalima keltirishi, namoz o‘qishi, ro‘za tutishi, zakot berishi va imkoniyati bo‘lsa, haj qilishi kabi din ruknlarini ado etishlari shart. Biroq bu talablarni bajarish uchun odamlar o‘zлari yashab turgan jamiyatda, birinchidan, shart-sharoit, ikkinchidan esa, imkoniyatga ega bo‘lishi kerak.

To‘g‘ri, inqilobga qadar musulmonlar yuqoridagi ruknlarni bajarib kelganlar, chunki u davrda har qanday dinning taraqqiyoti va amaliy faoliyati uchun katta shart-sharoitlar mavjud edi.

Afsuski, o‘tgan yetmish yil ichidagi sho‘ro zamonida odamlar diniy faoliyatlarini yetarlicha amalga oshira olmadilar. Sababi, sotsialistik davlat ularning sharoit va imkoniyatlarini, Konstitutsiyada rasman vijdon erkinligi bilan qayd etsa-da, amalda cheklab qo‘ydi. Natijada, fuqarolarda na kommunistik, na diniy e’tiqod shakllandi. Kommunistik ideologiyani targ‘ib qiluvchi rahbarlarning aksariyati egallab turgan obro‘li lavozimlarni suiiste‘mol qilib, poraxo‘rlikka, laganbardorlikka, mansabparastlikka ruju qo‘yib, «kommunizm quruvchisining axloq kodeksi»da belgilangan, aniqrog‘i, o‘zлari qabul qilgan prinsiplarni qo‘pol ravishda buzzilar. Ularning bu nomaqbul xatti-harakatlari aslida sotsialistik jamiyatning bag‘rida, keng xalq ommasining ko‘z oldida sodir bo‘ldi. Natijada, odamlarda bu g‘oyaning oddiy aqidaparastlikdan boshqa narsa emasligiga ishonch yuzaga keldi.

Ikkinchidan, barcha xalqlar va millatlarning tili, tarixi, dini va e’tiqodini, ma’naviy merosini mensimasdan, faqat yirik millatning ma’naviy-madaniy «ustunligi»ni buyuk va umumi deb hisoblab, uni turmushga joriy etishdi, zo‘ravonlikka asoslanib uringan kommunistik mafkura odamlarning tiliga o‘rnashdi, ularning dilidan esa munosib o‘rin topa olmadi.

Kommunistik mafkuraning «jonkuyarlari» tashviqot-targ‘ibot ishlarida millatlarning o‘z dini, psixologiyasi, madaniy va ma’na-

viy merosi, marosimlariga bo‘lgan sog‘lom munosabatlarini hisobga olmadilar yoki olishni istamadilar. Masalan, vafot etgan kishi partiyaga taalluqli bo‘lsa, unga janoza o‘qish, komsomol a’zosi bo‘lsa, turmush qurayotganda nikoh o‘qitish taqiqlab qo‘yildi. O‘zini musulmon deb hisoblovchi har qanday millat vakilining nafsoniyatiga buning qattiq ta’sir etmasligi mumkin emas edi. Natijada, bu asriy diniy-ma’naviy tamoyillar yashirin ravishda amalga oshira boshlandi. Amerikalik yirik jamoat arbobi Zbignev Bjezinskiy yozganidek, kommunistik jamiyat «inson turmushining asosini tashkil etuvchi erkinlikka intilishini va ruhiy ehtiyojlarini hisobga ola bilmadi (qarang: *Z. Bjezinskiy. Kommunizm talvasasi*. — Jahon adabiyoti, 1997 yil, 6-son, 163-bet).

Respublikalar sobiq Ittifoqdan birin-ketin ajralib chiqa boshlagan paytda islom tarqalgan mintaqalardagi kishilar bu «noqulay siyosat»dan tezroq qutulish uchun astoydil harakat qilganliklarining boisi ham shunda edi.

Mustaqillik tufayli respublikalarning yangi Konstitutsiyalari qabul qilindi. Demokratik harakatlarga keng yo‘l ochildi, xalq partiyalari faoliyati kengaydi. Natijada, ular olib borayotgan siyosat millatning his-tuyg‘usiga, urf-odatiga, marosimlarini hurmat qilishga, dunyoqarashlariga mos va xalq manfaatini himoya qilishga yo‘naltirilgan insonparvarlikni ifoda etdi.

To‘g‘ri, iqtisodiy jihatdan birmuncha qiyinchiliklar bo‘lishiga qaramay, xalqlar ma’naviy jihatdan emin-erkin, o‘z diniga oid rasm-rusumlarini, ibodatlarini hech qanday tazyiqlarsiz, qarshiliklarsiz bemalol hayotga tatbiq etish bilan bog‘liq real imkoniyatga ega bo‘ldilar. Misol tariqasida haj marosimini olib ko‘raylik. Ilgari har yili 6—7 kishi hajga borgan bo‘lsa, endilikda ularning soni keskin ortib ketdi. Birgina 1998 yilda 3,5 ming kishidan ortiq odamlar haj marosimini o‘tashga tuyassar bo‘ldilar. Buxorodagi Mir Arab madrasasida avvallari 50 ta, Toshkentdaggi imom Ismoil Buxoriy ma’hadida esa 25 ta talaba o‘qir edi. Hozirgi paytda ularda tahsil olayotganlarning soni 200 dan ortiq talabani tashkil etadi.

Shuningdek, jumhuriyatimizda o‘nga yaqin madrasa va besh mingdan ortiq machitlar faol ishlab turibdi.

O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilgan Konstitutsiyasining 31-moddasida fuqarolarning vijdon erkinligi qonuniy ravishda kafolatlangan. Endilikda kishilarimiz xohlagan biror dinga e’tiqod qilishlari, qonunni buzmagan holda diniy


marosim, urf-odatlarini hech qanday moneliksiz amalga oshirishlari mumkin. Prezident I. A. Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida davlat bilan din o'rtasidagi aloqalarning mohiyatini belgilaydigan beshta tamoyil asoslab berildi.

Bundan tashqari, Qur'oni Karim, Hadisi sharif kabi muqadas kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilinib bosib chiqarildiki, bulardagi odob-axloqqa oid ko'rsatmalar ma'naviyatimizni boyitib, tarbiyaviy ishlarmizni olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezident I. A. Karimov mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash jarayonida ma'naviyatni boyitishning alohida o'rni mavjudligini qayta-qayta uqtirmoqda. Shuningdek, yurtboshimiz yoshlar ongiga dunyoviy bilimlarni singdirish bilan birga, ming yillar mobaynida sinalgan va yuksak diniy tamoyillar bilan uyg'unlashib ketgan odob-axloq ko'rsatmalarini asosida ularni tarbiyalash, kamol toptirish ishiga ham alohida e'tibor berayotganligi ma'lum. Prezidentimiz Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi ochilishiga bag'ishlangan nutqida dinning inson ma'naviyatini barkamollashtirishdagi rolini shunday ta'riflagan edi: «Men ilohiy dinimizning oljanob intilishlarimizga xizmat qiladigan, xayrli ishlarmizda bizga madad beradigan bitmas-tuganmas kuch-qudrat manbayi bo'lib qolishiga ishonaman» («Milliy tiklanish», 1998 yil, 27 oktyabr).

Yuqoridaqilardan kelib chiqadigan xulosa shuki, ma'naviyat uzlusiz jarayon bo'lib, jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida o'zining chuqur ifodasini topadi. Mustaqillik ma'naviyati haqida fikr yuritar ekan, Prezidentimiz I. A. Karimov shunday degan edi: «Ma'naviyat deganda, avvalambor, odamni ruhan poklanishga, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, inson ichki dunyosini, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan kuchni tasavvur qilaman» («Turkiston», 1999 yil, 2 fevral).





## *Ikkinch bob*

### **BARKAMOL INSONNING MA'NAVIY FAZILATLARI**

#### **I. MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI**

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida qayd etiladiki, «erkin fuqarolik jamiyatini ma’naviy barkamol, ezgu g‘oyalar hayotiy e’tiqodi bo‘lgan insonlarga bunyod eta oladi». Shuning uchun ham mamlakatimizda sog‘lom avlod harakatining keng tus olishi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta’lim-tarbiya tizimining tubdan isloh qilinishi ana shu ulug‘vor maqsadlarni ko‘zda tutadi. Zero, komil insonni tarbiyalash ma’naviyat sohasida olib borilayotgan ishimizning negizini tashkil etadi.

Komil inson tushunchasi o‘rta asrlarda ishlab chiqilgan bo‘lib, musulmon Sharqida, asosan, islomiy nuqtayi nazardan ta’riflab kelingan. Aslida «komil inson» tushunchasining dunyoviy mazmuni borligini ham e’tibordan soqit qilish mumkin emas. Uning falsafiy ma’nosi umummilliylahamiyatga ega va umuminsoniy qadriyat sifatida asrlar davomida sayqal topib rivojlanib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida» asarida sharq falsafasining bir qismi bo‘lgan islam sivilizatsiyasining fazilatlarini chuqur tushunishni istamaslik kayfiyatini tanqid qilgan edi. Shu nuqtayi nazardan tasavvuf falsafasida komil inson konsepsiysi alohida diqqatga sazovordir.

«Komil inson» tasavvuf adabiyotida ko‘p marta tilga olinib munozaralarga sabab bo‘lgan va bu haqda maxsus kitoblar yozilgan. Shulardan Ibn al-Arabi, Husayn Voiz Koshifiy, Sayyid Abdulqodir Geloniy, Aziziddin Nasafiyarning risolalarini tilga olib o‘tish mumkin. Ibn al-Arabi nazdida komil insonni Olloh ilohiy nурдан yaratgan. Islom ilmining bilimdonlari ko‘rsatishicha, ilohiy nur barcha mavjudotlardan, hatto yer va osmondan ham avval yaratilgandir.

Arabiyning fikriga qaraganda, tangri taolo ilohiy nурдан aqli атвални yaratdi va uning suvratu shaklini «komil inson» qiyofasida zuhur etdi. Shu ma'noda, Olloh odamni rahmon suratida yaratdi, degan hadis mavjud (qaralsin: *N. Komilov. Tasavvuf. I-kitob. 145-bet*).

Ibn Arabiyning ta'kidlashiga ko'ra, komil insonning yerdagi timsoli — hazrati payg'ambarimiz Muhammad Salollohu alayhi Vasallamdir. Ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy va ilohiy bilimlar jamuljam edi. Alisher Navoiyning «Hayratul abror» idан олингани quyidagi baytda Muhammad Alayhissalomning Odam Atodan burun borligi aytilgan: «Ulki, odamdin burun ul bor edi, Ham Nabi, ham sohibi asrор edi». Bu hikmat zamirida Ollohnинг odamga bo'lgan buyuk muhabbatи yotadi.

Ketma-ketligi jihatidan olam birinchi, odam ikkinchi barpo bo'ldi. Lekin olamni yaratishdan mantiqan ko'zlangan maqsad odam edi. Odam — maqsad, olam — vosita edi. Buni Aziziddin Nasafiyning «Komil inson» risolasida ham ko'rish mumkin. U aytadiki, «inson olami sag'ir (kichik olam), ilohiy va moddiy olam birgalikda olami kabir» (ulug' olam) dir. Ulug' olamdagи jamiki narsa va xususiyatlar kichik olamda mavjuddir, inson katta olamning kichraytirilgan nusxasidir.

Nasafiy komil insonga ta'rif berib, «komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar», deydi. Boshqacha aytganda, komil inson shundayki, unda to'rt narsa kamolga yetgan bo'ladi: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va muorif.

Demak, olim nazdida, komil inson, birinchidan, real odam, u yaxshi sifatlarni egallash orqali komillashadi. Ikkinchidan, komil inson martabasi tariqat va riyozat yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Komil inson xalqqa yaxshilik keltiradi, kishilar mushkulini oson qiladi, olamni esa balo-kulfatlardan saqlaydi. Mavjudot ichra komil insondan ko'ra ulug'roq va donoroq narsa yo'q.

Tasavvufda komil inson, bir tomondan, xudo bilan odamlar o'ttasiдagi vositachi, ilohiy amr, g'oyibi asrorni oddiy odamlarga yetkazuvchi ulug' zotdir. Ikkinchidan, komil inson istilohi payg'ambardan boshqa zotlarga nisbatan shartli ravishda, hurmat-chitrom belgisi sifatida qo'llaniladi.

Shu bilan birga, ayrim olimlar komil inson deganda real insonga yos belgilarni nazarda tutishni maslahat beradilar. Masalan, Nasafiy

o‘zining «Komil inson» asarida uni ruh tushunchasi bilan aloqada olib tekshiradi. Inson martabalari ruh martabalari sifatida qaraladi. Shu ma’noda, komil inson insonlarga xos bo‘lgan fazilatni ham ifodalashi mumkin. U — insonlarning eng mukammali, eng aqli va eng donosi, ayni vaqtida Olloh bilan odamlar orasidagi vositachi, Ollohnning xalifasi. Komil inson insonlar jamiyatidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo‘lgan ruh emas, balki axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir.

Ushbu qarashlar, garchi bir-biriga zid bo‘lib ko‘rinsa-da, assalida o‘zaro yaqindir. Bu yerda, eng muhimi, inson kamoloti, bu-yukligi e’tirof etilishini ko‘ramiz. Bunday qarashga binoan, inson va koinot, inson va iloh, inson va mavjudot o‘zaro aloqada, bog‘-lanishdadir. Ahli shariat tushunchasiga ko‘ra, inson kamoloti azal-dan ma’lum bo‘lib, taqdiri azal tomonidan belgilab qo‘yilgan.

Tasavvuf ahli aytadiki, insonga erkin faoliyat uchun inon-ixtiyor berilgan, u harakat qilib komillikka erishuvi mumkin. Aziziddin Nasafiy kamolotning ikki belgisi bor, deb ta’kidlaydi: birinchisi, yaxshi axloq, ikkinchisi, o‘z-o‘zini tanish. Komil inson yaxshi axloqli, o‘z-o‘zini tanigan insondir.

Biz yuqorida komil inson g‘oyasi shariat va tasavvuf ilmida qanday qo‘yilganligi to‘g‘risida ba’zi tafsilotlarni bayon etdik. Endi komil inson tushunchasining ilmiy-falsafiy jihatdan tavsiflanishining ba’zi jihatlarini qarab chiqaylik.

I. A. Karimov «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida» asarida ko‘p masalalarni tushunishda «dinning yuksak rolini e’tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o‘zini o‘rab turgan dunyoga, o‘zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo‘limganligini ham ta’kidlash zarurdir» (O‘sha asar, 36-bet), de-gan edi. Darhaqiqat, dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham mavjud. U din va diniy turmush tarzi bilan yonma-yon yashab rivojlanib kelgan.

Komil insonni tushuntirishda dunyoviy fikrning asosida nima yotadi? Prezidentimiz uqtirganidek, odam tabiiy omillarga ko‘ra, o‘zi mansub bo‘ladigan irq va elatni tanlay olmaydi. Lekin dunyo-qarashini, axloqiy madaniyatini hech kimning tazyiqisiz va, ayniqsa, zo‘ravonligisiz o‘zi tanlab olishi mumkin va lozim. Modomiki, shunday ekan, mamlakatimizda huquqiy demokratik tamoyillarga asoslangan davlat, fuqarolik jamiyati qurish sari borayotgan ekanmiz, qanday dunyoqarashga asoslanishimiz kerak?

Hozirgi zamon odamlari yashayotgan ijtimoiy muhitda asosan ikki yo‘nalishdagi — ilmiy-falsafiy va diniy-mistik dunyoqarash mavjudligi o‘z-o‘zidan ayon. Ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymagan holda shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonning asosiy qomusi — Konstitutsiyasida dunyoviy davlat qurish nazarda tutilganligi bois bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurtlari va boshqa muassasalardagi ta’lim-tarbiya tizimi jarayonida ilmiy-falsafiy dunyoqarash shakllantiriladi.

Yoshlarda dunyoqarash ilmiy-falsafiy yo‘nalishda bo‘lishi, diniy dunyoqarash esa respublikada dunyoviy davlat qurish manfaatlari doirasida rivojlanishi kerak. Chunki ilmiy-falsafiy dunyoqarashda diniy va milliy ekstremizm yo‘liga o‘ziga xos to‘siq yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan komil inson masalasini ham ilmiy-falsafiy mazmunda tushunish, ta’lim-tarbiya ishini ham shu asosga qurish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shu o‘rinda aytish kerakki, bu sohadagi ham nazariy, ham amaliy ish komil inson haqidagi barcha ijobiy fikrlar va qarashlarning eng foydali tomonlaridan, shu jumladan, islom qadriyatlaridan ham foydalanishga asoslanadi.

Ayni vaqtda aytish lozimki, komil inson to‘g‘risidagi ilmiy-falsafiy ta’limot o‘z mohiyati, ijtimoiy vazifasi va maqsadlari bilan diniy-tasavvufiy qarashlardan farq qiladi.

Komil inson to‘g‘risidagi nazariya va uslubiyat metodologik jihatdan O‘zbekiston Prezidenti asarlarida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunda, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturida va boshqa hujjalarda har tomonlama ishlab chiqilgan. Shularga muvofiq ravishda, ta’lim tizimini yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarish, sog‘lom, barkamol, ma’naviyatli yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifa ekanligi belgilab berilgan.

Ma’naviyati boy insongina komil inson bo‘la oladi. Yuksak axloqiy, madaniy va jismoniy fazilatlar har jihatdan uyg‘un bo‘lgan, chuqur va zamonaviy bilimga, keng ilmiy-falsafiy dunyoqarashga ega bo‘lgan inson komil bo‘ladi.

Yuksak ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lgan komil inson: nafs xurujini, lazzatlarga bo‘lgan moyillik ojizligini yenga oladigan zotdir; odamni komil inson va mukarram inson martabasiga ko‘tarish uning ma’naviyatini yuksaltirish demakdir. Har bir jamiyat tayanadigan ma’naviy qadriyatlar qanchalik umuminsoniy mazmunga ega bo‘lsa, u shunchalik umrboqiyidir. Odam ham shunday. Odam qanday xulq, axloqiy, madaniy sifatga ega bo‘lsa,

faoliyat tarzini namoyon etsa, uning qadr-qiymati ham shunchalik yuksak bo‘ladi. «Sir emaski, har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda, o‘zining yuksak ma’naviyati bilan kuchlidir» (I. A. Karimov). Bu narsa inson shaxsiga nisbatan e’tibor ham, talab ham kuchayganligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ma’naviyat sharq falsafasi bilan uzviy bog‘liq, zero falsafaning o‘zi ma’naviyat. I. A. Karimov alohida ta’kidlaganidek, «asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma’naviyati, adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari sharq falsafasi va islom dini ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib keldi».

Ma’naviyat sharqona falsafaga tayanib ta’riflanishi kerak. Shunda u O‘zbekiston tanlagen yo‘lning o‘ziga xosligini ifodelaydi. Sharq falsafasi islom falsafasidan ozuqa oladi. Islom falsafasi murosasozlik falsafasi ekanligi bilan xarakterlanadi. U odamlarning to‘qnashuvi, o‘zaro kurash va qon to‘kishlar, zo‘rlik, kuch ishlatishni qoralaydi.

Odamni kamol toptirish uchun jamiyatni o‘zgartirish marksizm mafkurasining tamal toshi edi. Bu tamoyil odamlarni ur-yiqitlarga, o‘zaro janjallarga yetakladi. Islomiy falsafa esa jamiyatni o‘zgartirish uchun odamning o‘zini o‘zgartirish kerak deb hisoblaydi. Jamiat uning a’zolarining kamoloti natijasida va fuqarolarning barkamolligi darajasida takomillashadi deb o‘rgatadi. Sharq falsafasida inson omili yuksak rutbada turadi, u o‘z xulqining ham, o‘zi yashayotgan jamiyat ma’naviyatining ham ijodkori va, aynan shu sababli, ham o‘zining, ham zamondoshlarining ma’naviy sifatlari uchun javobgar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy omillardan foydalanish vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi, savdo, tijorat, tadbirkorlikda halollik, mehr, insof, adolat suvday kerak. Qur’oni Karimda «o‘lchov va tarozini adolat bilan tortingiz» (6 sura, 152 oyat), deyiladi. Ismoil Buxoriy hadislarida molu-dunyosi ko‘p odam emas, balki nafsi to‘q odam badavlatdir, savdoda hiyla, aldam-chilik qilmoq makruhdir, deb ta’kidlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, ma’naviyati past odam tubanlik sari ketadi.

Komillikning har bir davrga xos mezonlari bo‘lganligini ham alohida ta’kidlash kerak. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan sahiy, tanbalga nisbatan serg‘ayrat,

qo'rkoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vazifasini ham o'tagan.

Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etilmoqda, uning bag'-rida shakllanishi lozim bo'lgan komillikning mohiyati, shartlari va nizomlari qanday bo'ladi. Qanday yurtdoshimizni komil deb ataymiz? Eng avvalo, ota-bobolarimizning ibratli hayot yo'li biz uchun namunadir. Binobarin, komillik g'oyasi biz uchun yot narsa emas. Aytish mumkinki, O'zbekiston insoniy komillikning churqur an'analariga ega bo'lgan o'lka. Tadqiqotchilarining qayd etishlaricha, «bu an'ana turli avlodlar o'rtasida ruhiy yaqinlikni mustahkamlaydi, yoshlar qalbida vorislik tuyg'usini uyg'otadi. Demak, komillik — eng avvalo, insoniylik sharti va buyuk ajdodlarimizga vorislik taqozosi» (Q. Yo'ldoshev. Komillikning to'rt jihat. — «Tafakkur», 1997 yil, 2-son).

Komillikning bosh mezoni insoniylik hisoblanadi. Insonning eng noyob fazilatlaridan biri uning komillikka intilishidir. Mehnat, aql, idrok, odob-axloq, odamlarga yaxshilik qilish — insonning oddiy fazilati.

Har bir xalqning o'z yetuk allomalari, komil inson unvoniga musharraf bo'lgan ajdodlari bor. Ularning mehnati, merosi avlodlar ko'ksini g'urur bilan to'ldiradi. Xorazmiy, Forobi, Far'oniy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Marg'inoniy, Beruniy, Ulug'-bek, Navoiy, Muqimiylar inson qadr-qiyomatini hamma narsadan ustun qo'yishga harakat qilganlar.

Forobi insonning yaratuvchanlik qobiliyatiga yuksak baho beradi. U inson biologik mavjudot emas, balki aql-zakovat sohibi ekanligini, o'z mehnati bilan ijtimoiy mohiyat kasb etishini uqtiradi. Yusuf Xos Hojib ham insonga aql berib qo'yilgan, shuning uchun ham yer yuzida har qanday mushkullikni oson yenga oladi, degan fikrni bildiradi. Navoiy dunyoda insonga qaraganda ulug'roq kamolot yo'q, deydi: «Menga ne yoru, ne oshiq havasdir. Agar men odam o'lsam, ushbu basdir».

Bordi-yu kamolotning eng yuksak mezonlariga odob va yuksak mu'naviyatni kiritadigan bo'lsak, bunda mukammallikning jihatlaridagi aqli, axloqiy, madaniy, jismoniy faoliyat bilan bog'liq ekanligini ta'kidlash joizdir, bularning har biri ham, o'z navbatida, bir qancha sohalarni qamrab oladi. Chunonchi, jismoniy faoliyat kasb-hunar bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi. Insonni go'zal qiladigan uning hunari, ilmi va odobi deb aytish mumkin. Hunar ham, ilm ham

odamni yuksaklikka ko'taradi, unga katta obro' va shuhrat keltiradi. Biroq shaxs yaxshi hunar sohibi bo'lsa-yu, odob va axloq bobida qusurga yo'l qo'ysa, u, shubhasiz, obro' topa olmaydi. Ilm sohibi haqida ham shunday deyish mumkin. Zamondoshlarimizning chuqur ilmiy dunyoqarashga, zamonaviy bilim va muayyan kasb egasi bo'lishi sohasida uyg'unlikka erishishi O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi ruhiga singdirib yuborilganining boisi ana shunda.

Inson kamolotida jismoniy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirilayotgan «sog'lom avlod dasturi»ning mazmuni shu bilan belgilanadi. Ayni vaqtida har bir inson o'zining salomatlik madaniyatini ham shakllantirmog'i va mukammallah-tirmog'i lozim. «O'zining salomatligi haqida shaxsan g'amxo'rlik qilib borish madaniyatini oila, maktab, mahalla, sog'liqni saqlash tizimi, jismoniy tarbiya va sport vositasida yoshlikdan singdirib borish kerak» (I. A. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 77-bet).

Komillikning yana bir jihatni Vatanga, millatga, elu yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir. Vatanini sevmagan, millatining tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Prezidentimizning «elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak», degan da'vati negizida ana shunday buyuk g'oya yotadi.

Inson kamolotida oilaning roli beqiyos katta ekanligi ma'lum. «O'zbeklarning aksariyati, — deb yozadi I. A. Karimov, — o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindoshurug'lari va yaqin odamlarining, qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir» (Yuqoridagi asar, 47-bet).

Oila tarbiyasida doimiy ta'sirchan kuch oiladagi munosabat, oila muhiti, oila a'zolarining o'zaro aloqasi, ota-onas, aka-uka va boshqalarning xulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, muomala madaniyati, oilaning daromadi, yashash sharoiti va boshqa holatlar bola kamolotiga ta'sir qiladigan asosiy omillardir. Oila qanchalik tartibli, yaxshi xulq-atvorli, uning a'zolarining o'zaro munosabatlari samimiy bo'lsa, oila tarbiyasini ham shunchalik samarali bo'ladi.

Tarbiyaning an'anaviy va zamonaviy turlari va usullari ko'p, shulardan biri shajaraviy tarbiyadir. Bu tarbiya usuli ma'lum bir ajdoddan kelib chiqqan avlodlarning qarindoshlik darajasini izchillik bilan sanab ko'rsatuvchi hujjatlarga asoslangan bo'lib, bunda bolalarga ajdodlarining kimligi shajaranomalar orqali eslatib boriladi. Bu tarbiya usuli orqali ajdodlar bilan faxrlanish hissi shakllantiriladi, ularga munosib bo'lishga da'vat etiladi.

Islomda ham har bir musulmon o'zining yetti pushtini bilishi kerakligi ta'kidlanadi. Shajara tuzish ishini qayta davom ettirayotgan allomalardan biri faylasuf olim Omonulla Fayzullayev deyish mumkin. Tarixiy hujjatlarga asoslanib u kishi Shayx Zayniddin Bobo Toshkandiy ibn Shayx Shahobiddin Abu Umar Suhravardiy shajarasini tuzdi. Omonulla Fayzullayev Shayx Zayniddin Boboning 45-avlodi ekanligi ma'lum bo'ldi.

Ma'naviy yetuklikning shartlaridan biri insoniy sifatlarning uyg'unligi masalasiidir. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili biday bo'lishi yetuklik mezoni va shart-sharoitidir. Bunday uyg'unlikka erishgan odam baxtiyor bo'ladi. Bir hakimdan baxtiyor kim? deb so'radijar. U «uch narsaning uch narsa bilan, ya'ni fikrni to'g'rilik bilan, so'zni rostlik bilan, fe'lni saxovat bilan bezagan kishi baxtiyor», deb javob beradi.

Ulkan yunon faylasufi Suqrot o'z nasihatlaridan birida shunday deydi: Uch narsani barbod qilmaslik uchun uch narsani ehtiyyot qiling: boshdan ayrimaslik uchun tilingni saqla, namozdan ayrimaslik uchun tahoratni saqla, yurakdan ayrimaslik uchun g'azablanishdan ehtiyyot bo'l.

Barkamollikning qirralari ko'p ekanligi haqida yuqorida aytib o'tildi. Har bir shaxsni ilk yoshligidan boshlab mantiqiy fikrlashga o'rgatish hayot talabidir. Shunga ko'ra, unga har doim mantiqiy tafakkur yuritish tamoyillarini singdirib borish lozim.

Yoshlarni sog'lom fikrlashga, ayniqsa, mustaqil fikr yuritishga o'rgatish zarur. Ba'zi bolalar yoshligidan boshlab «men» yoki «o'zim» deb fikr yuritadi. Sharqona tarbiyada o'zining gapini, fikrini o'tkazishga intilish yoki manmanlik hamma vaqt ham qo'llab-quvvatlanmaydi. Ko'pincha, kattalar o'z fikrlarini o'tkazishga intiladilar, shunga qaramay mustaqil fikri bor odam odatda «fikrli odam» deyiladi.

Mustaqillik sharoitida to'g'ri ma'nodagi mustaqil fikrlash har bir yoshning qobiliyati, olamga faol munosabatini, malakasini

tarkib toptirishda muhim ma'naviy omil ekanligi ta'kidlanadi. Prezidentimiz «Tafakkur» jurnali muharriri bilan qilgan suhbatida quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha — o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur inson bo'lib yashaydi» (*I. A. Karimov. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. 21—22-betlar*).

Fikr tafakkurni keltirib chiqaradi va u o'ylash, muhokama yuritish ma'nolarini bildiradi. Mutafakkir so'zining o'zagi ham «fikr»dir. Lekin har qanday fikrlaydigan kishini mutafakkir deb bo'lmaydi. Bunday fazilatga ega bo'lgan kishi «har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko'radi. O'z fikri-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo'ladi» (*I. A. Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 6-bet*).

Barkamol inson tushunchasiga kiradigan muhim talablar sharq tafakkurida alohida tizimni tashkil qiladi. Ular shaxsning bosiqligi, vazminligi, bag'ri kengligi, kamtarligi, odamoxunligi, umuminsoniylik ruhining kuchliligi, serfarzandligi, keksa va yoshlarga mehr-shafqatliligi kabilar bilan xarakterlanadi. Bular sirasiga kishining boshqa e'tiqoddagi yoki dindagi insonlarga nisbatan sabr-toqatliligi, hurmati, tabiatni sevish, butun jonli tabiatga muhabbat bilan qarash kabi fazilatlarni ham kiritish mumkin. Respublikamizda istiqlol tufayli shakllanayotgan va tobora kishilar e'tiqodiga aylanayotgan mustaqillik tafakkuri mazmunini tashkil etadigan bunday tushunchalar tobora hayotimizda keng o'rin egallamoqda.

Komil insonni tarkib toptirish tushunchasi yangi insonni tarbiyalash bilan uzviy bog'langan va uning asosiy talablaridan kelib chiqadi. Bunda yoshlarimizda milliy iftixor tuyg'usini tarkib toptirish va chuqurlashtirish ahamiyati favqulodda kattä ahamiyat kasb etadi. Milliy iftixor tuyg'usi o'z millatining boy tarixi, madaniyati va ma'naviy merosidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish hissiyotidir. Bu haqda keyingi mavzularni yoritishda batafsil to'xtab o'tamiz.

Prezidentimiz I. A. Karimov asarlarida komil inson tushunchasi va uni tarbiyalashning yo'l-yo'riqlari, mohiyati, tamoyillari alohida ta'kidlab o'tilgan. Uning xalqning o'tmishi va kelajagi, shonshuhrati haqidagi har bir fikrida komil inson g'oyasi, uni voyaga yetkazishga qaratilgan mulohazalari chuqur ma'no topadi. Komil inson tarbiyasi mustaqillikka erishgan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilingan.

Demak, Prezidentimizning so'zlari bilan aytganda «**Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulqatvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz**». (*I. A. Karimov*. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. 6-bet).

## 2. VATANPARVARLIK VA INSONPARVARLIK – SHAXS MA'NAVIY QIYOFASINING MEZONI

Hozirgi davr mustaqil davlatlar jahon hamjamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishi moddiy omillar bilan birga ma'naviy omillarning roli ortib borayotganligi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning tezlashuvi bilan xarakterlanadi.

Mustaqil davlatning vujudga kelishi, xalqlarning milliy istiqlolga erishuvi xalqning milliy-vatanparvarlik hissiyotini, milliy g'urur, milliy iftixon tuyg'ularini yanada jo'sh urdirib yubordi. Mustaqil davlatlarda, xususan, O'zbekistonda fuqarolarning sifat jihatdan yangi vatanparvarligi qaror topdi. Bu — vatanparvarlik bilan insonparvarlikning omuxta bo'lib ketganligi bilan xarakterlanadi.

O'zini bilmagan, buyuk davlatchilik ruhi bilan sug'orilgan aytin kimsalar jamiyat hayotidagi bu jarayonlarni millatchilik g'alabasi deb talqin qilishga urinmoqdalar. Prezidentimiz I. A. Karimov bu xususda shunday dedi: «O'tgan mustaqil rivojlanish yillari davlatimizning suvereniteti va barqarorligiga tahdid saqlanib qolmoqda, deb aytish uchun asos bo'la oladi. Bu tahdid buyuk davlatchilik shovinizmi va aggressiv millatchilik ruhidagi shiorlarda, bildirilayotgan fikrlarda, sharhlarda va muayyan xatti-harakatlarda aniq namoyon bo'lmoqda» (*I. A. Karimov*. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 51-bet).

Buyuk davlatchilik shovinizmi nima? Uning hozirgi ko'rinishlari nimalardan iborat? «Tarixiy tajribaga asoslanib, bu hodisani muayyan kuchlar va davlatlar tomonidan bo'ladigan siyosiy, masjuraviy va iqtisodiy hukmronlik deb yoki millatlararo va

davlatlararo, mintaqaviy munosabatlarda unga intilish deb ta'riflash mumkin» (O'sha asar, 52-bet). Buyuk davlatchilik shovinizi mi boshqa millatlar va mamlakatlar bilan o'zaro madaniyatli hamkorlik qilishga tayyor emaslikdan kelib chiqadi. Uning ifodachilari harbiy imperiyalardir (O'sha asar, 53-bet).

Vatanparvarlik va millatchilik haqidagi nazariya va manbalariga murojaat qiladigan bo'lsak, uning murakkab ijtimoiy hodisa ekanligini ko'ramiz.

Bu muammoni hatto buyuk mutafakkirlar ham hal qilomaganlar. Masalan, nemis faylasuflari Fixte va Gegel ham vatanparvarlikning joziba kuchini, hayotiyigini unchalik anglab yetmaganlar. Shunga qaramasdan, ular vatanparvarlik mamlakatni birlashtiradi, deb hisoblaganlar. Fixte «Vatanparvarlik va uning aksi» degan maqolasida vatanparvarlikni fan taraqqiyoti bilan bog'lagan, fan bilan omuxta bo'lgan vatanparvarlik o'sha davrdagi tarqoq Germaniyani birlashtirishga yordam beradi, degan edi. Shu bilan birga u faqat nemislargina vatanni sevishga qobiliyatli deb, millatchilikka yo'l qo'yadi. Demak, Fixte vatanparvarlik bilan millatchilikni bir-biridan farq qila olmagan.

Gegel ham vatanparvarlik mohiyatini to'la tushunib yetmadi. Shunga qaramay, bu sohada uning xizmati katta ekanligini ta'kidlash kerak. Gegel vatanparvarlik — shaxsning Vatani bo'lishi kerakligi to'g'risida iroda-xohishi deb ta'rif beradi. Ayni vaqtida, Gegel vatanparvarlikni ozodlikni bo'g'uvchi mutlaq davlatni tanolish bilan bog'lab tushuntiradi.

Vatanparvarlik — fuqarolarning Vatan oldidagi burchlarini anglashning tabiiy holati. Millatchilik — voqelikning me'yor doirasiga to'g'ri kelmaydigan, alohida g'ayritabiiy holati, o'z millatiga oid qadriyatlarga notanqidiy, nomunosib munosabatdir, boshqa millat qadriyatlarini inkor etishdir.

Vatanparvarlik tabiatining ilmiy talqini unga umumdemokratik va umuminsoniy qadriyatlar sifatida qarashdan iborat. Har bir chin ma'nodagi vatanparvarlik umuminsoniy mazmunga ega: Ota yurtiga muhabbat, yerni e'zozlash, ona tilini hurmatlash, millatning ilg'or madaniy an'analarini ehtiyoj qilib, ko'z qorachig'idek saqlashga intilish va hokazo. Bu narsa vatanparvarlikning milliy-etnik jihatini tashkil etadi. Bunday hurmat va e'zoz turli ijtimoiy guruhlarda turlicha namoyon bo'lsa-da, ularda qandaydir mushtaraklik mavjud. Barcha milliy-etnik jihatlar umumdemokratik mazmunga ega. Fuqarolar-

ning vatanparvarlik hissiyoti va orzu-istiklari demokratiya bilan bog‘langan. Ularni himoya qilish chin ma’nodagi vatanparvarlikning ifodasidir. Shu ma’noda, vatanparvarlik milliy negizda turli sotsial guruhlarni birlashtirish xususiyatiga ega.

Vatanparvarlik tushunchasi davr o’tishi bilan shaklan va mazmunan o’zgarib borgan: mayda burjuaziya va proletar vatanparvarligi tarixan mavjud bo‘lganligi sir emas. Proletar vatanparvarligi umumxalq vatanparvarligi sifatida biryoqlama talqin qilib kelingan. Vatanparvarlikning milliy-ozodlik davridagi, o’tishlar davridagi shakllari ham mavjud.

O‘zbekistonda milliy mustaqillikning qo‘lga kiritilishi tamomila yangi hodisa — istiqlol vatanparvarligi ongini keltirib chiqaradi. Milliy ongning uyg‘onishi, mamlakat boyliklari o‘z egasini topishi, yangi mulkdor sinflarning vujudga kelishi bilan «shu vatan meniki», «yer va suvlar meniki», «cheksiz sarhadlar meniki», «chorva mollari», «o‘tloqlar meniki» degan xo‘jayinlik hissiyoti shakllana boshladi.

Kishilarga munosib turmushning yaratilishi, jamiyatning ijtimoiy muhofazaga daxldor qismini — nogironlar, bolalar, faxriylar, urush qatnashchilari, veteranlar, talabalarning ijtimoiy himoya qilinishi kishilarda misli ko‘rilmagan faollik, vatan ravnaqi, himoyasi uchun jon fido qilishga tayyor bo‘lgan ulug‘ bir ko‘tarinkilik, istiqlolga, yurtga, yurtboshiga nisbatan chuqur mehru oqibatni vujudga keltirdiki, bu vatanparvarlikning yangi shakli, istiqlol vatanparvarligidir.

Vatanparvarlik zaminida ona-Vatan yotishi hammaga ma’lum. Vatan atamasi arabchadan olingan bo‘lib, ona yurt ma’nosini bildiradi. Odam tug‘ilib o’sgan uy, mahalla, qishloq, shahar o‘ziga xos vatandir. Biror-bir xalq azaldan yashab kelayotgan hudud ham Vatandir. Ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi. Boshpana ham Vatan ma’nosida ishlatiladi.

Vatan tushunchasi tarix davomida doimo o’zgarib, rivojlanib borgan. Masalan, ibridoiy jamoa tuzumida Vatan muayyan qabila yashagan joy, qabilaning makoni hisoblangan. So‘ng elat paydo bo‘ldi. Elat qondosh va tildosh qabilalarning uzviy ittifoqi bo‘lib, elatdoshlar Vatani o‘sha elat yashagan hudud hisoblangan. Astasekin xalq va millat paydo bo‘ldi. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida eng rivoj topgan ijtimoiy guruhlarning juda rivoj topgan birligi millatdir.

Vatan bir yoki bir necha millatlar o'zaro birgalikda yashayotgan hududdan tashkil topadi. Vatan tushunchasiga yer, tuproq, o'rmon, tog'u tosh, suvlar, daryolar, dengiz va okeanlar kirdi. Shu bilan birga u hududdagi barcha boyliklarni ham o'z ichiga oladi. Boyliklar deganda ma'naviy meros ham tushuniladi.

'Inson kuchi va mehnatini, tajribasini ona zaminga, yerga, ona-Vatanga baxshida etadi. Tirikchilik uchun zarur noz-ne'matlarni yetishtiradi. Vatanparvarlik ayni vaqtida odamga mas'uliyat yuklaydi, uni ijod va bunyodkorlikka, shijoat va g'ayratga rag'batlan-tiradi. O'z vatanini sevish u bilan faxrlanish, uning baxt-saodat yo'lida, niyatida aktiv faoliyat ko'rsatish demakdir. Inson o'z Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan farzandlik burchini ado etmasa, u haqiqiy inson bo'lishi mumkin emas. Vatanparvarlik insonning eng ulug', eng oljanob va eng muhim fazilati, odamiylikning tom ma'nodagi ifodasıdır. Biz o'z yurt-vatanimizni qanday sevsak, ona tilimizni, milliy madaniyatimiz, an'analarimiz, urfatlarimizni ham shunday sevamiz, hurmat qilamiz. J

Ajdodlarimizning jahonni lol qoldirgan ishlari va qahramonliklari bilan faxrlanamiz, ularning mehnati bilan bunyod etilgan qadimgi yodgorliklarni ko'z qorachig'idek ehtiyoq qilib saqlaymiz. Ularni yangi mazmun bilan boyitamiz. Binobarin, I. A. Karimov ta'kidlaganidek, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi».

O'z xalqining o'tmishi bilan bir qatorda o'zga xalqlar o'tmishini hurmat qilish, qadrlash ham vatanparvarlik ifodasi hisoblanadi. Ajdodlar yaratgan va bizga qoldirgan boyliklarni avaylab, asrab kelgusi avlodga uzatish ham vatanparvarlikdir. Ota-bobolar mehnatini qadrlash, undan faxrlanish hissini yosh avlodga singdirib borish bugungi avlodning muqaddas burchidir.

Ona-Vatan odamlarga har doim kuch-qudrat ato etgan. Har bir xalqning chinakam farzandlari Vatan uchun jon fido qilishni o'zları uchun katta sharaf deb bilganlar. Ma'lum sabablarga ko'ra, Vatanidan uzoqqa borib qolgan kishilar bir umr ona yerini qo'msab o'tganlar. Muhammad Bobur Hindistonda shoh bo'lishiga qaramay, butun umri davomida ona yurtini sog'inib yashagan, Andijonning tabiatni, odamlari, bog'u-rog'lari, uzum-anjirlari, tilni yorar qovunlari bir umr unga armon bo'lib qolganligi ma'lum.

O'zbek xalqining chinakam vatanparvarligi ona yurtini chet el bosqinchilaridan himoya qilishda yorqin namoyon bo'lgan, bunga xalqimiz tarixi jonli guvoh.

Istiqlol tufayli vatanparvarlikning yangi qirralari ochilmoqda, Vatan O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarga tegishli ekanligi, ular bilan birgalikda do'st-inoq bo'lib yashashda, o'zaro hamkorlik va ijodda ko'rinmoqda. Masalan, Toshkentdag'i samolyotsozlik zavodida turli millat vakillari ishlaydi. Asakadagi O'zDEU yengil avtomobil zavodi ham koreyslar bilan hamkorlikda bunyod etildi. Hamkorlik va do'stlikni bunday qadrlash ham vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan.

O'zbekistonda vujudga kelayotgan qo'shma korxonalar bilan faxlanish kerak. 1992 yilda oltin qazib olish bo'yicha «Zarafshon-Nyumont» O'zbekiston-Amerika qo'shma korxonasi tashkil etildi. Qimmati 220 million AQSh dollariga teng bo'lган zavod qurilishi 1993 yil oktyabrida boshlanib, 1995 yilning may oyida tugatildi. 1995 yil qo'shma korxona oltinining birinchi turkumi ishlab chiqarildi. 1994 yilda «Omontov Goldfilds» O'zbekiston-Britaniya qo'shma korxonasi tashkil etildi.

Haqiqiy vatanparvar inson atrofda yuz berayotgan voqealarga loqayd qaramaydi, kamchiliklar va nuqsonlarga chidab tura olmaydi. Xalq uchun, Vatan uchun doimiy qayg'urish, tashvishlanish, o'zining fidokorona mehnati bilan o'rnak ko'rsatish, namuna bo'lish, hamma sohada faol bo'lish odamning o'ziga ham katta naf keltiradi.

Istiqlol bilan tug'ilgan vatanparvarlik bugungi kunda O'zbekistondagi barcha xalqlarning, barcha fuqarolarning vatanparvarligi bo'lib qolayotir. Bu vatanparvarlik ajdodlar qoldirgan madaniyat an'analariga sadoqat ruhi bilan sug'orilgan. Yuksak g'oyaviylik, xalqimizga xos fidoiylik, mustaqillik qadriga yetish hozirgi vatanparvarlikning o'ziga xos xususiyatlaridir.

Istiqlolning maqsadi har bir fuqaroga munosib sharoit, erkinlik, tenglik, birodarlik muhitini yaratib berishdan iborat. Biz uchun istiqlol davlatimizni mustahkamlash, buyuk kelajagimiz poydevorini qurish, milliy ongimizni yuksaltirish, jahon hamjamiyatida munosib o'rnimizni egallashga qaratilgan. «Shu maqsadlarga erishish uchun, — deydi I. A. Karimov, — yurtimizning barcha aholisi O'zbekistonni yagona va aziz yurtimiz deb bilishi, o'z taqdirini Vatan taqdiri bilan uzviy bog'lab kurashmog'i, mehnat qilmog'i darkor».

Vatanparvarlikning an'anaviy jihatlaridan biri mamlakat mudofaasini mustahkamlashdir.

Harbiy qurilish sohasidagi maqsad professional armiyani, o‘z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta’lim olgan, o‘z xalqiga, ona zaminga sadoqatli bo‘lgan, o‘z Vatanining sha’ni va qadr-qimmatini oxirigacha himoya qila oladigan jangchilarga ega bo‘lgan armiyani bosqichma-bosqich vujudga keltirishdan iboratdir.

Yoshlarimizni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Vatan himoyachilari, Ulug‘ Vatan urushi qatnashchilari bilan uchrashuvlar, suhbatlar, kinofilmlar namoyish etish katta naf keltiradi. Bu ishda xotira uchun qo‘yilgan memorial yodgorliklarning ham roli katta. Prezidentimizning taklifi bilan 1999 yildan boshlab, 9 may Xotira va qadrlash kuni deb e’lon qilindi. Toshkentda urushda ishtirok etganlar xotirasini eslatuvchi viloyat, shaharlar hamda jangchilarning ismi-sharifi aks ettirilgan tarixiy yodgorlik ansamblini yaratish haqida fikrlar bildirildi. Faxriyalarimiz bu taklifni qo‘llab-quvvatladilar.

O‘zbekiston vatanparvarligining hal qiluvchi belgisi xalqlar do’stligi, baynalmilalchilik bilan mustahkam bog‘liqligidir. Millatchilik va diniy ekstremistik fikrlovchi odamlar vatanparvarlikni bir yoqlama tushunadilar. Ayniqsa, aqidaparastlar barqarorlikni, milliy-fuqarolararo totuvlikni buzishga intiladilar.

Shunday qilib, xalqimizning tub manfaatlariga, milliy g‘oyaning hayotiy kuchga aylanishi uchun kurash ayni vatanparvarlik namunasidir, chunki «vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g‘oya hech qachon milliy g‘oya bo‘la olmaydi, u Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni o‘zida aks ettirsagina kuch-qudrat manbayiga aylanadi» (Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. 52-bet).

O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy Dasturida XIX asrga ta’rif berilib, insonparvarlik tantanasi asri, milliy, irqiy, diniy va boshqa munosabatlarda insonparvarlikni namoyon etadigan yangi davrning boshlanish asri deb ta’kidlangan. Ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishida o‘zgartirish va rivojlantirish haqida gap boradi.

Xo‘sish, insonparvarlik nima? Insonparvarlik (yunoncha — humanizm) keng ma’noda shaxsning qadr-qimmati, erki, kamolotini ifodalaydi.

O‘zbekistonda mustaqillik o‘rnatalishi munosabati bilan insonparvarlik yangi mazmunga ega bo‘ldi.

Insonparvarlik O‘zbekiston istiqlolli sharoitida real ijtimoiy munosabatlar zaminiga qo‘yildi. Istiqlolning maqsadi insonning izzat-hurmatini joy-joyiga qo‘yishdan, undan begonalashgan mohiyatni insonga qaytarishdan iborat.

Insonparvarlikni odatda, insoniylik bilan tenglashtiradilar. Bu yetarli emas. Insonparvarlik fuqarolarning tub manfaatlari bilan bog'liq. U inson haqidagi falsafiy, diniy, siyosiy, g'oyaviy, estetik, demokratik, ekologik qarashlar hamda jamiyatda o'rinni olgan real munosabatdir. Insonparvarlik shunchaki shior emas. U inson manfaatlari va maqsadlari bilan bog'liq. U insonning qadr-qimmati, odobi, axloqi, bilimi, kasbi-kori, jamiyatdagi o'rni demakdir.

Istiqlolning har bir qadamida o'tkazilayotgan islohotlar inson uchun, inson manfaati uchun xizmat qiladi. Islohotlarning mazmuni va maqsadi O'zbekistonning har bir fuqarosi millati, dini va maslagidan qat'iy nazar, shaxs sifatida o'zini namoyon etishi, o'z hayotini yaxshiroq, munosibroq, ma'naviy boyroq qilish imkoniyatiga ega bo'ladigan zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Bozor munosabatlariga o'tishning boshlang'ich davrida butun aholini ijtimoiy himoyalash yo'lidan borildi. Bu esa buyuk insoniylik namunasi edi.

Insoniylik va vatanparvarlik tushunchalari bir-birini to'ldiradi. Vatanparvarlik jahondagi barcha xalqlarning vakillariga tegishli umuminsoniy qadriyatdir. Vatanni sevmagan odam insoniy fazilatlardan yiroq bo'ladi. Insoniy fazilatlardan, ota-onaga, Vatanga, el-yurtga xizmat qilishdan qochadigan odamda insoniylik bo'lmaydi.

Shunday qilib, kishilar ma'naviyati takomilida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularining rivojlanishi mustaqil O'zbekiston kelajagining muhim kafolati bo'lib qolishi muqarrar.

Mazkur mavzuni Prezidentimiz I. A. Karimovning quyidagi so'zları bilan yakunlasak: «O'zbekiston — muqaddas Vatan. Otabobolarimiz hoki yotgan yer. O'zimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehru muhabbat uyg'otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi» (I. A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 91-bet).

### **3. MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH, MILLIY G'URUR VA MILLATGA SADOQAT — YUKSAK MA'NAVIY BURCH**

Milliy o'z-o'zini anglash nima? Milliy g'urur-chi? Millatga sadoqatlik nima?

Milliy o‘z-o‘zini anglash bevosita millat tushunchasi bilan bog‘liq. Millat nima? Millat deb, muayyan hududiy birligi, til birligi, madaniyatda ko‘rinadigan ruhiyat birligi, umumiqtisodiy turmush uyg‘unligi va mushtarakligiga ega bo‘lgan kishilarning tarixan tashkil topgan birligiga aytildi. Bu belgilar birdaniga tashkil topgan emas. Dastlab ularning bir va bir necha shakllari kelib chiqadi va rivojlanadi. Qabilaviy birlik kelib chiqqan vaqtida hududiy, til, ruhiy va ongiy birliklar shakllangan bo‘ladi.

Elat va xalq kabi birliklarda bu belgilar yanada rivoj topadi. Millatning kelib chiqishi va rivojlanishida iqtisodiy hayot birligi katta rol o‘ynaydi.

Millatning yana bir ajralmas xususiyati uning davlat bilan o‘zaro bog‘liqligidadir. Davlat millatga nisbatan ancha avval kelib chiqqan. Dastlabki davlatlar quldarlik munosabatlari davrida paydo bo‘lgan. Millat ijtimoiy taraqqiyotning keyingi davriga mansub bo‘lgan birlikdir. Millat davlat tashkiloti bilan mustahkam bog‘langan. Davlat qudratli bo‘lsa, millat ham qudratli bo‘lgan.

Millat va davlat rivojida tarixiy shaxslarning roli katta. Juhon tarixi Aleksandr Makedonskiy, Amir Temur, Zahiriddin Bobur kabi ajoyib sarkardalarni yaxshi biladi. Millat o‘z yo‘lboshchisiga ega bo‘lsa, shu millat taqdiri ko‘p jihatdan unga bog‘liq bo‘lgan. Shaxsning tarixdagi roli masalasida turli-tuman qarashlar mavjud bo‘lsa-da, tarixiy shaxslar millat va xalq hayotida yetakchi rolni o‘ynab kelganlar. Millat taqdirida yo‘lboshchining roli va o‘rni katta. XIV asrda Amir Temurning sarkardalik va davlat rahbari sifatidagi donoligi tufayli temuriylar davlati barpo bo‘ldi.

Millat hayotida tilning roli katta. Turkiy til eng qadimgi tillardan biri. U millat va davlat kelib chiqqunga qadar ham mavjud bo‘lgan. Davlat va millat paydo bo‘lgach, til yanada ravnaq topgan.

Istiqlol tufayli o‘zbek tili davlat tiliga aylandi. Shu bilan birga, boshqa millat va elat tillari, ularning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Hozir mamlakatimizda yuzdan ziyod millatlar va elatlar istiqomat qiladi. Shu jihatdan milliy o‘z-o‘zini anglash masalasini falsafiy jihatdan tahlil etish muhim ahamiyatga ega.

Har bir millatning ongi va psixologiyasi uning ma’naviy qiyofasini tashkil etadi. Shu ma’noda millat ma’naviyat birligidir. Ma’naviy qiyofa ma’naviy jihatdan jamiyatning moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoiti ta’sirida shakllanadi va ijtimoiy ong ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy qiyofa, ijtimoiy ong shakllari o‘zgarib

turadi. Bu o'zgarish ijobjiy yoki salbiy tusda bo'lishi mumkin. Ijtimoiy ongning o'zgarishi millatning milliy o'z-o'zini anglash jarayoniga ham ijobjiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish negizida ro'y berishi niumkin. Milliy o'z-o'zini anglash nima? Milliy o'z-o'zini anglash kishilarning muayyan millatga mansubligi, milliy tarixi, madaniyati va merosi, urf-odatlari, milliy mohiyati, ruhiyati, iqtisodiyotini bilish demakdir. Milliy o'z-o'zini anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, u milliy mafkuraga aylanadi. Milliy mafkura milliy siyosatning yetakchi omili bo'lib xizmat qiladi.

Milliy uyg'onish mafkurasi millatning yashash huquqi, ajdodlarning urf-odatlari, milliy mansublik, fuqarolik huquqi, an'analalarini e'zozlash huquqi, tarixiy milliy yozuvni tiklash, o'z tilini davlat tiliga aylantirish, o'z millatini va jahon madaniyati yutuqlarini egallash huquqi, milliy iqtisodiy mustaqillikka erishish huquqi kabi muhim hayotiy masalalar majmuasidan iborat.

Milliy onglilik millatning tub manfaatlari mohiyatidan iborat. Uni tushunmaslik va inkor etish millatchilikni keltirib chiqaradi. Millatchilik o'zga millatlarga va o'z millatiga munofiqlik va xudbinlik bilan qarashdir. Millatchilik deb o'z millatining manfaatlarini mutlaqlashtirish, o'zga millatlarning manfaatlari bilan hisoblashmaslik, ularning qadriyatlarini yerga urish, kamsitish va adolatsizlikka yo'l qo'yish holatiga aytildi. Millatchilik biror-bir millatning manfaatini himoya etib, boshqa millatlarning ehtiyojlarini pisand qilmasdan, huquq va erkinliklarini chegaralab qo'yishga qaratilgan harakatdir.

Millatchilik milliy tuyg'udan farq qiladi. Bu masalalarda bir qator tushunchalarni bir-biridan farq qilish kerak. Masalan, milliy tuyg'u, milliy iftixor, milliy xarakter, milliy ruhiyat (psixologiya), milliy mahdudlik, milliy xudbinlik, milliy o'zlikni anglash va h.k.

Milliy tuyg'u – o'z millatining milliy ruhi va xarakteri, milliy his-tuyg'ulari, psixikasi (ruhiyati), temperamenti (mijozi) va fe'l-atvorlari kabi ma'naviy hodisalarning inson hayotiy faoliyatida namoyon bo'lishidir.

Milliy g'urur iftixor, faxr so'zlariga yaqin turadi, biroq ular bir-biridan farq qiladi.

Milliy g'urur millatning o'z qavmi yutuqlaridan mammuniyat hissidir. O'z milliy davlati, o'z Konstitutsiyasi, Davlat madhiyasi, Davlat gerbi, bayrog'i uchun ich-ichidan sevinishi, ko'nglining to'-

lishi, mamnun bo'lishidir. Bu millatning qadr-qimmatini bilish demakdir. O'ta g'ururlanish yoki o'z millatini o'ta kamsitish ham yaxshilikka olib kelmaydi. O'ziga ortiqcha baho qo'yish, gerdayish, kekkayish singari qusurlar millatga ziyon keltiradi, xolos. Hadislarda aytılıshicha, Olloh eng yomon ko'rgan narsalardan biri takabburlikdir. Hattoki masjidga gerdayib kirgan odamning namozi qabul bo'lmas ekan (qaralsin: Vatan tuyg'usi, 29-bet).

Milliy iftixor — millat o'zining yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his etishidir. Milliy iftixor millat vakillarining qalbidagi birlik, qon-qardoshlik, til, madaniyat, ma'naviyat, iqtisodiyot va istiqbol uchun qoniqish hissiyoti, kuchli ruhiy holatdir.

«Vatan tuyg'usi» kitobi mualliflari yozganlaridek, milliy birdamlik tuyg'usi milliy ongning asosini tashkil qiladi. Milliy birdamlik yetuk va mukammal ma'naviy fazilat sifatida, milliy ongi rivojlangan mamlakatlardagi millatlarda to'laroq namoyon bo'ladi. Mahalliychilik va guruhbozlik milliy bardamlik hissiyotining kuchsizlanishiga olib keladi. Prezidentimiz ta'kidlaydiki, «umumiy ishimizga xalaqit beradigan mahalliychilik, guruhbozlik holatlariga faol chek qo'yish lozimligini» anglab yetish zarur (I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. 103-bet).

Milliy ma'naviy barkamollikning rang-barang qirralari, boy ma'naviy meros va bugungi qadriyatlar milliy iftixor tushunchasida mujassam bo'ladi. Milliy xarakter, milliy tuyg'u, milliy ruhiyat, milliy psixologiya bir tartibdagi, bir ma'noli tushunchalar hisoblanadi. Biroq ular ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Milliy xarakter — millat qat'iyati, azmu qarori bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida o'zining barqarorligi bilan ajralib turadi.

Milliy tuyg'u tez o'zgaruvchan ma'naviy hodisalar turkumiga kiradi.

Milliy ongda milliy tuyg'u, milliy psixologiya, mafkura va turli ijtimoiy hodisalarga berilgan baholar mujassamlashadi.

Milliy tuyg'ular millatning tub manfaatlarini to'la ifodalamaydi. Milliy ongda, mafkurada millatning tub manfaatlari aks etadi. Milliy tuyg'uga asir bo'lib qolish xatoliklarga olib kelishi ham mumkin, lekin uni e'tibordan chetda qoldirib ham bo'lmaydi. Milliy tuyg'ularni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va axloqiy omillarga suyanib, umuminsoniy manfaatlar asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

**Milliy qadr-qimmat** — o'zaro hurmat bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda, xalqaro munosabatlarda ko'rindi. Hatto

so‘zda ham millatning qadr-qimmatini kamsitib bo‘lmaydi. Milliy qadr-qimmat millatning mavjudligi, moddiy va ma’naviy boyliklari, jahon sivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasi, uning sha’ni, or-nomusi, hamjihatligidir.

**Milliy mahdudlik** — millatning o‘z qobig‘ida qolishi va sof milliy an’analardan boshqa har qanday aqidani inkor qilishiga asoslanadi, millatlararo o‘zaro yordam va hamkorlikka ishonmaydi.

**Milliy xudbinlik** — mahdudlikdan ham yomon, o‘zga millat-larni kamsitishga qaratilgan, o‘z millatini alohida mumtoz ustunliklarga ega deb bilishdir.

O‘zbekiston istiqlolining eng katta yutuqlaridan biri turli millat va elatlar orasida o‘zaro hamfikrlik va totuvlikning ta’min etilishi bo‘ldi. Barcha fuqarolarda yagona oila — O‘zbekiston taqdiri uchun mas’uliyat hissi oshdi. Ularning tili, madaniyati va an’analarining rivojlanishi qonun bilan kafolatlandi.

Shunday qilib, milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy iftixor O‘zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, huquqiy islohotlarni yuksak darajada olib borish sohasida ulkan ma’naviy omil rolini o‘taydi. Prezidentimiz I. A. Karimov «O‘zbekiston XXI bo‘sag‘asida» asarida alohida ta’kidlab ko‘rsatganidek, «o‘zbek xalqi ruhining tiklanishi, millat ma’naviy-axloqiy ideallarining shakllanishi chuqr milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog‘liq bo‘lgan hodisadir. O‘zbekistonda yashayotgan xalqlar, o‘ziga xoslikni yo‘qotmagan holda, umumiy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbayi bo‘lib kelgan yagona ma’naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi» (O‘sha asar, 143-bet).

O‘zbekiston mustaqilligining eng katta yutuqlaridan biri shuki, ko‘p millatli mamlakatda millatlararo totuvlik to‘la ta’min etildi. Barcha fuqarolarda yagona oila, butun mamlakat taqdiri uchun javobgarlik hissi oshdi. Endi odamlar qaysi millatga mansubligidan qat’iy nazar, O‘zbekiston fuqarosi ekanligi bilan faxrlanadi. Har bir millatning o‘ziga xosligi, tili va madaniyatini rivojlantirish qonuniy kafolatlanganligi istiqlolning katta yutug‘i bo‘ldi. Mazkur chora-tadbirlar O‘zbekiston istiqboli, mustaqillik uchun mas’ullik burchini anglashga imkon bermoqda.

Qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik jamiyatning rivojlanishidan manfaatdor bo‘lgan turli millat vakillari, O‘zbekiston fuqarolari, mustaqillikning qadriga yetib, uni mustahkamlash-

zarurligini chuqur anglamoqdalar. Ularning yaratuvchanlik faoliyati barcha jabhalarda keng namoyon bo‘lmoqda. Masalan, davlatni boshqarish ishlarida ham ularning tashabbuskorligi ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Huquqiy demokratik davlat nasldan naslga o‘tadigan hokimi mutlaq irodasi bilan emas, balki fuqarolarning vakillari, xalq noiblari, ishbilarmonlar, xalq ichidan chiqqan rahbarlar tomonidan boshqarilmoqda. O‘z-o‘zini boshqarish jamiyat hayotining barcha sohalarida: moddiy boyliklar ishlab chiqarish, mehnat unumdarligini oshirish, oziq-ovqat yetishtirish mustaqilligini qo‘lga kiritish, g‘alla mustaqilligiga erishish, yonilg‘i fondlarini yaratish kabi sohalarda namoyon bo‘layotir.

O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan har bir milliy madaniyatdagi yutuqlar, ijobjiy tomonlarni qunt bilan o‘rganish, ulardan foydalananish milliy madaniyatlarni o‘zaro boyitish, vatan taqdiri uchun birgalikda qayg‘urish, kishilarda umumiyl maqsad uchun kurashga tayyor bo‘lish hissini tarbiyalaydi.

Hozir Respublikada 80 dan ortiq milliy madaniyat markazlari ishlab turibdi. Ular O‘zbekistonning ko‘p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy-madaniy, ma’naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobjiy rol o‘ynamoqda. Xalqning birligi, jihsligi va osoyishtaligi haqida gapirar ekanmiz, bu bizning bebahoh boyligimiz, deydi Prezidentimiz.

#### **4. IYMON, MEHR-SHAFQAT, POKLIK VA HALOLLIK – SHAXSNING OLIJANOB FAZILATLARI**

Ma’naviyatimizga bevosita daxldor bo‘lgan iymon va e’tiqod, diyonat, ishonch kabi tushunchalar kundalik turmushimizda ko‘plab uchrab turadi. Istiqlol tufayli bu tushunchalar yanada chuqurroq ma’no kasb etib, keng xalq ommasining ma’naviy dunyosini aks ettirishda alohida ahamiyatga ega bo‘ldi.

«Iymon» so‘zi ma’muriy-buyruqbozlik va mafkuraviy zo‘ravonlik sharoitida faqat diniy tushuncha sifatida ishlatilib kelinganligi ma’lum. Ochig‘ini aytganda, ommaviy ateizm qaror topdi deb yuritilgan o‘sha davrlarda kishilarni iymonsizlik dardiga mubtalo qilishga alohida e’tibor berilgan edi. Natijada; iymonning diniy mazmuni ham, dunyoviy ma’nosini ham unutildi.

«Iymon» arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosini «ishonch» demakdir. Iymon insonning biror narsa-hodisaga qattiq ishonchi, degan ma’noni bildiradi.

Iymon odamning insoniyligi, yuksak e'tiqodi. Odamlarni ana shu fazilatlarni gavdalantirishlariga qarab iymonli va iymonsizga ajratish mumkin. Iymonli odam e'tiqodli, o'zining aniq maslagiga ega bo'lgan, hamiyatlilik, oriyatlilik, sharm-hayolilik, vijdonlilik, andishalilik, insoflik singari fazilatlar sohibidir. Iymonsiz odam eng xavfli shaxsdir. U biologik jonzot, mavjudot xolos, unda ijtimoiy fazilatlar, axloqiy tamoyillar yetarli bo'lmaydi. Iymonsiz odam o'z manfaati yo'lida Ollohdan ham, el-yurti, ota-onasidan ham qo'rqlmaydi. Bir so'z bilan aytganda, iymoni yo'q odamda na axloq, na odob gavdalanadi. Ming afsuski, hayotimizda iymonsiz odamlar uchrab turadi.

Yuqorida qayd etganimizdek, «iymon»ning diniy hamda dunyoviy mazmuni bor. Quyida shu haqda fikr yuritamiz.

Islom dinida iymon haqida gap borganda, uning quyidagi shartlari tilga olinadi: Birinchidan, Ollohga, oxiratga, farishtalar, muqaddas kitoblar (Qur'oni Karim) ilohiyligiga, payg'ambarning haqligiga ishonish; ikkinchidan, sahiy va muruvvatli bo'lish; uchinchidan, namozni to'la o'qish; to'rtinchidan, zakot berish; beshinchidan, ahdu-paymonga, so'ziga sodiq qolish; oltinchidan, sabr-toqatli bo'lish, bardoshli bo'lish. Ana shunday talab va shartlarni ado etgan kishini iymonli deb atashadi (qaralsin: *I. A. Karimov. Iymon va inson*. — Toshkent, 1991 yil, 38-bet).

Olimlarning yozishlaricha, iymon uch narsaning bir butunligidan hosil bo'ladi. Bular: **e'tiqod, iqror va amal**. E'tiqod — ichichidan chuqur ishonish; iqror — so'zda buni tan olish; amal — yaxshi ishlar bilan oldingi ikki holatni isbotlash demakdir. Islom dinida iymon tushunchasi amaliyot bilan bevosita bog'lab tushuntiriladi. Binobarin, hadislarda «iymon bilan amal bir-biriga juda yaqindir, ular biri-birisiz durust emas» — deb yozilgan.

Ayni vaqtida shuni ham ta'kidlash joizki, iymonni faqat diniy ma'noda tushunish bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Odam faqatgina din yordamida iymonli, insofli, diyonatli bo'ladi deb aytish masalaning bir tomoni, xolos. Tarixdan ma'lumki, dinlar hukmron mafkura bo'lgan chog'larda ham iymonsiz, insofsiz, diyonatsiz odamlar bo'lgan. «Savob ishlar» soyasida juda katta xunrezliklar, noinsoniy munosabatlar sodir bo'lgan, hozirgi paytda Afg'oniston-dagi ro'y berayotgan hodisalar ham shundan guvohlik beradi. Shunday ekan, iymonning dunyoviy mazmuni ham mavjudligini alohida ta'kidlamoq zarurdir. Iymonning dunyoviy-ilmiy ma'nosi

yuksak insoniy axloqiy qoidalarni o‘z ichiga oлади: Vatanni sevish, bir so‘z bilan aytganda, insoniylik qoidalari ni ifoda etish.

Shuni ta’kidlash joizki, iymon nafaqat yakka-yolg‘iz insonga, balki butun bir jamiyat, millatga xos bo‘lgan jihatlarni ham ifoda etadi. Iymon individ ongiga xos bo‘lib qolmasdan, u davr ruhi, ijtimoiy ong va ijtimoiy psixologiya shaklida ham mavjud bo‘ladi, yakka odamning ongi va faoliyati shularning bevosita ta’sirida shakllanadi.

Bu o‘rinda iymon va e’tiqod tushunchalarining o‘zaro aloqadorligini ta’kidlab o‘tish kerak. Iymonni e’tiqod va ishonch tushunchalari bilan bir xilda qo‘llash odat tusiga kirgan. Holbuki, ular o‘rtasida muayyan tafovutlar mavjud.

Iymon e’tiqodning oliy shaklidir. Boshqacha aytganda, e’tiqod faqat shaxs tomonidan uni ixtiyoriy, erkin tanlab olib qabul qilingandagina chinakam iymon darajasiga ko‘tariladi. Inson ko‘p narsaga e’tiqod qilishi mumkin: yaxshilikka, halollikka, to‘g‘rilikka, ayni vaqtida, yomonlik, harom-xarishlik, egri yo‘llar bilan kun ko‘rishga ham e’tiqod qo‘yishi ehtimoldan yiroq emas. Iymon esa yakka-yagonadir, ya’ni inson faqatgina bir g‘oyaga, ta’limotga, dinga, axloqqa amal qilib sodiq qolishidir. Tilda yoki dilda bir necha ta’limotlarni tan olish, ularga amal qilish ikkiyuzlama-chilikdan boshqa narsa emas (*I. A. Karimov*. O’sha asar, 46-bet).

Iymon insonlardagi, jamiyatdagi eng ezgu niyatlarni amalgalashirishga, adolat va haqqoniyatning tantanasiga ishonishdir; jamiyatda odamlar orasida eng oljanob munosabatlarning qaror topishiga, insonning qadr-qimmati, ota-onasi, oila, Vatanning muqaddasligiga mustahkam ishonch va e’tiqoddir. Iymon kishi ongi, ruhi va qalbiga singib ketgan, jon — «ona suti bilan kirgan» axloqiy tushunchalar, ideallar, axloq-odob qoidalari yig‘indisidir. Shu ma’noda iymonlilik insoniylikning bosh belgisi deb e’tirof etilishi zarur. Iymon-e’tiqod insonning ma’naviy qudrati, turli hayot qiyinchiliklariga duch kelganda ham o‘z insonligini saqlab qolishga, qiyinchiliklarni yengishga kuch baxshida etadi, ruhiy tushkunlikdan saqlaydi. Shu ma’noda iymon-e’tiqod insonning eng yuksak qadriyatidir (qaralsin: *O’. Toshtemirov, H. Sapoxonov, R. Xolmatov, L. Zohidov*. Axloqiy qadriyatlar. — Qo‘qon, 1993 yil, 18—19 betlar).

Iymonning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u fidoyilikni, maqsadni amalgalashirish yo‘lida faollilikni taqozo etadi. Binobarin, inson o‘zi ishongan narsaning dilda mustahkamlanib qolishi bilan

cheklanmasligi, aksincha, uning ro'yobga chiqishi uchun keskin kurashga bel bog'lashi talab qilinadi. Iyomon inson ongi va his tuyg'usiga g'oya ekanligining boisi ham ana shunda. Shuning uchun u qudratli va harakatlantiruvchi ma'naviy kuch hisoblanadi. Binobarin, har qanday g'oya inson iymoni, uning maslagiga aylangandagina faollik etadi.

Maslak muayyan guruhi, shaxsi va kasb egalarining bir xildagi aqidasi, o'zgarmas qonun-qoidalaridir. O'z aqidalaridan tezda va sharoit taqozosi bilan voz kechadigan insonni maslaksiz deyiladi. Uning xususiyati shundaki, u o'z ahdida mustahkam tura olmaydi. Shuning uchun maslagida mustahkam odamlarni xalqimiz sevib iyemonli-e'tiqodli deb baholaydi. Buyuk Alisher Navoiy aytgani-dek, vafosizda hayo, hayosizda vafo bo'lmaydi. Har bir kishida bu ikki narsa bo'lmasa, undan iyemonni kutish kerak emas.

Xalqimiz tilida keng qo'llaniladigan diyonat tushunchasi ham iyomon, e'tiqod tushunchalariga ma'no jihatidan yaqin turadi. Diyonat — insonning o'z so'zida, qarashlarida, ahdu paymonida mustahkam turishini anglatadi. Bu jihatdan u maslak tushunchasiga juda ham yaqindir. Lafzida mustahkam turadigan odam ham diyonatli bo'ladi. «Axloq-odobga oid hadis namunalari»da yozilishi-cha, «diyonat inson yaxshi amallarining o'ziga xos mezoni sifatida namoyon bo'ladi» (O'sha asar, Toshkent, 1990 yil, 48-bet).

Shunday qilib, iyomon, e'tiqod, diyonat inson ma'naviy fazilatlarining muhim qirralaridan bo'lib, o'zida komil insoniylikni ifoda etadi. Shunday ekan, «zamondoshimiz bo'l mish iyemonli odamni qisqacha shunday tafsiflash mumkin: e'tiqodli, o'zining aniq maslagiga ega, taqvodor, hamiyatli, oriyatli, or-nomusli, sharm-hayoli, vijdonli, andishali, insofli va shu kabi fazilatlar sohibi» (Vatan tuyg'usi, 24-bet).

Insonning ma'naviy qiyofasini tafsiflaydigan fazilatlardan biri — mehr-shafqatlilik hisoblanadi.

Mehr tushunchasi keng ma'noli bo'lib, u shaxsning ota-onaga, Vatanga, farzandlariga, ijtimoiy hodisalarga, bir so'z bilan aytganda, insonni ulug'lovchi barcha narsa-hodisalarga nisbatan muhabbati va sahovatining ifodasidir.

Mehr-shafqat kishilarning bir-biriga bo'lgan hurmati, muhabbati, o'zaro yordami, hamdardligi, mehribonligini ifodalaydi. Xalqimizda «mehr — ko'zda» degan ajoyib ibora bor. Odamlar o'zaro munosabatlarida, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida o'ziga

o‘xhash minglab insonlar bilan uchrashadi, ko‘zi-ko‘ziga tushadi, samimiyati namoyon bo‘ladi, o‘zaro fikr almashadi, zavqini ulashadi, dardini o‘rtoqlashadi. Mana shunday jarayonda esa ular o‘rtasida mehr-oqibat degan bir ma’naviy muhit yuzaga keladi.

Xalqimizning mehr-shafqati istiqlol tufayli yangicha ma’no kasb etdi, desak mubolag‘a bo‘lmas. O‘zbekiston hukumatining siyosati, Prezidentimizning serqirra faoliyati o‘z xalqiga, fuqarolariga mehr-shafqat ko‘rsatishning namunasidan iboratdir. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni va mohiyati ham mehr-shafqat ruhi bilan sug‘orilgan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida qayd etilganidek, respublikamizda yashayotgan har bir fuqaro — millati, e’tiqodi, kasbi-koridan qat’iy nazar — o‘z shaxsiy fazilatlarini namoyon eta olish, o‘z hayotini munosib ravishda qura olish, ma’naviy jihatdan rivojlanish imkoniyatlari va shart-sharoitlariga huquqiy kafolatlangan tarzda egadir. Bu g‘amxo‘rlik, mehr-shafqat ijtimoiy himoyaga muhtoj ko‘p bolali va kam ta’minlangan oilalarni, ishsizlarni, daromadi cheklangan shaxslarni, o‘quvchi yoshlarni butun choralar bilan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu ishlarni amalga oshirishda nafaqat davlat, balki nodavlat tashkilotlari, mehnat jamoalari, xayriya ja-mg‘armalari jonbozlik qilmoqda. Prezidentimiz I. A. Karimov yozadiki, «el-yurtimizning, shu yurda yashayotgan har qaysi insonning eson-omonligi bizning eng katta yutug‘imiz va boyligimizdir. Bu boylikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, qadriga yetish — barchamizning muqaddas insoniy burchimizdir» («Mu-loqot», 1998 yil, 4-son, 10-bet).

Respublikamizda tibbiy va ijtimoiy xizmat ko‘rsatishning rivojlangan tizimi mavjuddirki, u insonlarga mehr-shafqat ko‘rsatishda amaliy ishlarni olib bormoqda. Respublikada 1,3 mingdan ortiq kasalxona, 3 mingdan ziyod vrachlik ambulatoriya-poliklinika muassasasi ishlab turibdi. Barcha sohalar bo‘yicha 76 mingdan ortiq mutaxassis-shifokorlar malakali tibbiy yordam ko‘rsatmoqda. Bir shifokorga o‘rtta hisobda 298 kishi to‘g‘ri keladi. Bu jahonda eng yuqori ko‘rsatkichdir (*I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida*. 267-bet).

Hadislarda ta’kidlanishicha, mehr-shafqatli kishilar eng yaxshi insonlardir. Halol yo‘l bilan to‘plangan boyliklaridan ehson qiluvchi, iffatli, «miskin va bechoralarga rahmu shafqat qiladigan odamlarga ko‘p yaxshilik bo‘lur».

Insonning ulug‘ fazilatlari orasida poklik va halollik alohida o‘rin tutadi.

Poklik va halollik tushunchalarini ham yuqorida ko‘rganimiz-dek, diniy va dunyoviy ruhda qarab chiqish mumkin. Dili pok, o‘zi pok inson — kamolot mezoni. Poklik ham jismoniy, ham ma’naviy soflikni, toza, ozoda yurishni bildiradi. «Axloq-odobga oid hadis namunalari»da yozilishicha, pok odam doimo toza yuradi, o‘z badanining pokligi haqida g‘amxo‘rlik qiladi. Ma’naviy nuqtayi hazardan poklik halolni haromdan farq qilishdir. Kasbi-kori mehnat qilib tirikchilik qiladigan odam pok odam hisoblanadi.

«Halol» so‘zi arabcha — ruxsat etilgan, toza degan ma’noni anglatadi. «Harom» so‘zi esa taqiqlangan, iflos, nopol narsa demakdir. Halol va harom tushunchalari ijtimoiy mazmunga ega. Halollik jamiyatning axloqiy normalar — me’yorlarga ongli ravishda va ixtiyoriy amal qiladigan faoliyatidir. Jamiyat nomaqbul deb hukm chiqargan narsalar harom bo‘ladi.

Halol va harom tushunchalari ijtimoiy rivojlanishning turli bosqichlarida o‘zgarib borganligini ta’kidlash lozim. Ayni vaqtida ular nisbiy ma’noga egadir. Buning ma’nosи shuki, halol va haromni har bir jamiyatda uning maqsad va manfaatlaridan kelib chiqqan holda turlicha talqin qilganlar. Tasavvuf ta’limotining hukm chiqarishicha, hukmdorlarning boyligi halollik tushunchasiga teskari ma’noga egadir.

Ko‘rinadiki, molu davlat peshona teri bilan, mehnat bilan topilsa haloldir. Aldamchilik, firibgarlik bilan topilsa haromdir. Bunday holda u o‘g‘rilik, poraxo‘rlik, yolg‘onchilik, ta’magirlilikni bildiradi. Ulug‘ Alisher Navoiy «Hotamtoy hikoyasi»da yozganki, «Bir dirham topmoq chekibon dast ranj, Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj».

Halollik rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, poklik, samimiylilik kabi insoniy fazilatlar majmuidan iborat. Inson to‘g‘ri so‘z, haqgo‘y bo‘lib o‘ssa, uning baxt-saodati ta’milanadi. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonida bir hikoya keltirib, unda to‘g‘rilik insonni baxtiyor qilishini tasvirlagan edi. Mamlakat podshosiga saroy qurdirish uchun tekis o‘sgan ustun kerak bo‘lib qoladi. Buni bir kampirning hovlisidan topadilar. Katta oltin evaziga kampirning roziligi bilan uni saroya olib ketadilar, bino qurilishi tezlashadi. Saroyni ochish tantanasiga kampirni ham taklif qiladilar, kampir hovlisidan kesib keltirilgan daraxt — ustun oltin bilan qoplangan edi, buni ko‘rgan

kampir shunday xulosaga keladi: Sen to‘g‘ri o‘sganining uchun faqat o‘zingni emas, meni ham zarga ko‘mding. Albatta, bu majoziy mazmunga ega bo‘lgan xulosadir.

Chin ma’nodagi halollik va’daga vafo qilish, so‘z bilan ishning birligi demakdir. So‘zining ustidan chiqmagan odam beburd, belafz odam hisoblanadi.

Halollik — haromning dushmani. Dunyoda harom illatlar ham oz emas: yolg‘onchilik, gumonsirash, xusumat, munofiqlik, ikkiyuzlamachilik, minnat, poraxo‘rlik, munofiqlik, omonatga xiyonat, yetimlar va ayollar haqini yeyish, sudxo‘tlik, xirs nazari bilan qarash, ichkilikbozlik, giyohvandlik, qasamxo‘rlik. Bular, ayni vaqtida, oldingi bobda aytiganidek, aksilma’naviyat hodisalaridir.

Halol amallarga quyidagi fazilatlar kiradi: kasb — mehnat bilan tirikchilik qilish, halol rizq topish, yaxshilikka teng yaxshilik, omonat va qarzlarni o‘z vaqtida qaytarish, yetimlarni kafillikka olish, vafodorlik, gunohni savob ishlar bilan yuvish, ehson va sadaqa, muhtojlarga qarz berish, yordam ko‘rsatish va h.k.

Hozirgi bozor munosabatlariiga o‘tish sharoitida diyonat, poklik, halollik kabi xislatlar voyaga yetayotgan shaxsning axloqiy fazilatlari va kamolotining mezonidir. Bu jarayonda kishilarning amaliy tashabbuskorligini avj oldirish, ularning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyatini yanada takomillashtirishda bunday ma’naviy fazilatlarning ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimovning nutqlari, maqolalari, asarlarida yuksak insoniy fazilatlar sirasiga kiruvchi halollik, poklik singari axloqiy tamoyillarni yuksaltirish alohida ta’kidlanmoqda. Yurtboshimizning ta’kidlashicha, bu tamoyillar, birinchi galda, mansabdor shaxslar faoliyatida bosh omil bo‘lishi kerak. «Ishimizda ikki yo‘nalish bab-baravar — baqamti borishi kerak, — deydi davlatimiz rahbari, — Birinchisi, yangi davlat, yangi tuzumning shakli, andozasini yaratish bo‘lsa, ikkinchisi, ana shunga munosib, maqsadni to‘g‘ri anglaydigan, ishni uddalaydigan odamlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yishdan iborat». I. A. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 18 fevralda so‘zlagan nutqida ikkinchi masalaga ham alohida to‘xtab aytgan ediki, «kishilarimizning faoliyatidagi asosiy tamoyil halollik, poklik, insonparvarlik bo‘lishi kerak». Shu munosabat bilan mustaqilligimizning dastlabki davridagi ma’naviy hodisalarni tahlil etib, quyidagilarni ta’kidlagan edi: «Otdiy odamlar hamma narsani ko‘rib turibdi. Nopok, nafsi harom,

o‘zining manfaatini ustun qo‘yadigan ba’zi bir rahbarlarni ham ko‘ra-yapti... Hozir jamiyatimizdagi kadrlarni uch toifaga bo‘lish mumkin. Birinchi toifa — iymonsiz, vijdonsiz shaxslar, fursatdan foydalanib, o‘z manfaatini ko‘zlaydigan kimsalar... Ular faqat o‘z cho‘ntagini o‘yaydi... Ikkinchi toifaga irodasiz, mo‘rt, bo‘shang odamlar kiradi. Bundaylar shamol qayoqdan esishini poylab turadi. Uchinchi toifadagilar — yuragida o‘ti bor, serg‘ayrat odamlar, yoshlar, fidoyi vatanparvarlar» (*I. A. Karimov. Istiqlol va ma’naviyat.* — Toshkent, «O‘zbekiston», 1994 yil, 85-bet). «Qing‘ir odamning qilig‘ini o‘zi bildirmasa, bolasi bildiradi, — deya ta’kidlaydi Prezidentimiz. — Bolasi bildirmasa, xotini bildiradi. Xotini bildirmasa, yonidagi malaylari bildiradi» (O’sha joyda, 76-bet).

Yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish kerakki, yuksak ma’naviy fazilatlarga ega bo‘limgan, aksilma’naviy faoliyat bilan shug‘ullanadigan har qanday insonning qiyofasi mustaqilligimiz rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

## **5. OTA-ONAGA IZZAT-HURMAT, OILAGA SADOQAT VA G‘AMXO‘RLIK — SHAXS MA’NAVİYATINING YUKSAK İFODASI**

Farzandlarning ota-onaga hurmati Sharqda hamma vaqt juda yuqori bo‘lgan. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasi-ning allasini tinglab, ularning mehriga qonib voyaga yetganlar. Ular ko‘ngliga mehr ona suti bilan kirgan, Hazrat Navoiy ayt-ganlaridek, onani oy, otani quyosh deb bilganlar. Ota-onaga bo‘lgan bunday izzat-hurmat oilada shakllangan.

Oilaga bunday jiddiy e’tibor berilishi beziz emas. Oila va jamiyat o‘zaro bog‘langan. Oila — jamiyatning tarkibiy qismi. Jamiyatning barcha yutuq va kamchiliklari, ziddiyatlari oilada o‘z aksini topadi. Oila — insonning o‘zini ishlab chiqaruvchi muqaddas makon. U inson zotini, uning avlodini davom ettirish manbayi. Ota-onsa, oila bolalarni tarbiyalash va ularni jismonan hamda aqlan kamolotga erishuvi uchun mas’uldirlar.

Bizning huquqiy-demokratik davlatimizning ravnaqi oila farovonligi bilan bog‘liq. Binobarin, «Oila — bizning xalqimiz uchun millatning ko‘p asrlik an‘analari va ruhiyatiga mos bo‘lgan g‘oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir» (*I. A. Karimov. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida*, 253-bet).

O‘zbekistonda oilaning o‘ziga xos tomonlaridan biri uni tashkil etadigan a’zolarining ko‘p sonli ekanligidir. Ularda turli avlod vakillari birga yashaydi. Shunday oilalar borki, o‘z tarkibiga 7—8 ta, hatto 10 dan ortiq farzandlarni oladi. Uning bag‘rida bir necha kichik oilalar istiqomat qiladi, yashaydi. Bu esa bolalarni tarbiyalash, ularni umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar, an’analardan bahramand qilish, bilim darajasini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Xuddi shunday oilalarda bolalar yoshlikdanoq mehnatsevarlikni, kattalarga hurmatni, bilim va hunar egallahni o‘rganadi.

Oila va jamiyat munosabatlari tizimida nikoh muhim o‘rin tutadi. Nikoh — erkak va ayol orasidagi tabiiy munosabatlarning ijtimoiy zaruriy, barqaror shaklidir.

Jamiyat nikoh vositasi bilan jinslar orasidagi munosabatlarni tartibga keltiradi, yangi avlodni bunyodga keltirish va tarbiyalashni boshqarib boradi.

Nikoh er va ayolning tabiiy munosabatlariga yagonalik va barqarorlik tusini beradi. Nikoh ikki jinsnинг tabiiy intilishlarini qonun vositasi bilan jilovlaydi, tabiiy irodasiga axloqiy go‘zallik baxsh etadi.

Oila shaxsiylik va ijtimoiylik birligidan iborat. Uning shaxsiyligi, nisbiy mustaqilligi har bir oilaning o‘z maqomi borligi bilan xarakterlanadi. U o‘z xo‘jaligini yurgizishda mustaqil. O‘z taqdirini o‘zi belgilaydi, unga birov tashqaridan zo‘rlik bilan aralasha olmaydi. Shu bilan birga u jamiyatning kichik bo‘lagi bo‘lganligi uchun ham jamiyatdan xoli, alohida yashay olmaydi. Shu ma’noda, oila ijtimoiy hodisa bo‘lib, unga ijtimoiy institut, ijtimoiy guruh deb qarash mumkin. Uning manfaatlari jamiyat manfaatlari bilan mos tushadi. Oila ijtimoiy foydali funksiyalarini bajaradi, o‘z a’zolarining jismoniy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qiladi.

Oilanning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetmaslik, uni mutlaqo shaxsiy ish deb qarash jamiyat manfaatlari zarar yetkazadi, erxotin, ota-onalar va farzandlar orasida yuksak insoniy fazilatlarning qaror topishiga xalaqit beradi.

Mahalliy hokimiyat va jamoatchilik oilani unutgan yerda turli ko‘ngilsiz hodisalar kelib chiqishi mumkin. 1998 yili Namangan viloyatidagi ayrim yoshlarning adashib, ba’zi ekstremistik kayfiyatdagi odamlar ta’siriga tushib qolishi bunga misol bo‘ladi.

Oila va jamiyat manfaatlari bir-biri bilan mos tushsagina, oila ravnaqi haqida gapirish mumkin. Oila hayotining ijtimoiy va shaxsiy tomonlari uyg‘un bo‘lgandagina, u axloqiy jihatdan

mustahkam bo‘ladi. Bu esa oila a’zolarining ma’naviyatiga bog‘-liq. Odamlar qanchalik ongli bo‘lsalar, jamiyat rivoji ham shunchalik rivoj topadi.

Ota-onalarning farzandlar orasidagi aloqalar oilaviy munosabatlarning muhim tarkibiy qismidir. Chunki, farzandlar bo‘lgandagina oila to‘la sotsial va shaxsiy ma’no kasb etadi. Ota-onalarning farzandlar orasidagi munosabatlarning axloqiy va pedagogik jihatlari orasida farq borligini ta’kidlash kerak. Birinchi jihat: ota-onalarning bolani tarbiyalashdagi tamoyillari, uslub va vositalari majmuasi; birinchisini etika, ikkinchisini pedagogika o‘rganadi. Birinchi jihat bolalar tarbiyasining g‘oyaviy asosi hisoblanadi.

Istiqlol sharofati bilan oilaviy munosabatlarda yuz bergan muayyan o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu o‘zgarishlarning zaminini jamiyat va oilaning iqtisodiy asosi tubdan o‘zgarganligi, ijtimoiy mulk o‘rnini xususiy mulk egallay boshlaganligi bilan bog‘liq. Bu o‘rinda mulkka egalik hissiyotining tiklanganligini ta’kidlab o‘tish kerak. Oila a’zolari va farzandlari oila mulkini ko‘paytirishdan, oilaning boy va farovon bo‘lishidan manfaatdor bo‘lib qoldi. Ilgari mulk ijtimoiy bo‘lgan davrlarda farzandlar ko‘proq ota-onaga qaram edilar. Ularning fuqarolik yetukligi ham cho‘zilib, uzoq davom etardi. Hozirgi yoshlar, ayniqsa, shahar joylarida biznes bilan shug‘ullanishdan, o‘z iqtisodiy bilimini oshirishdan manfaatdor bo‘lsalar, qishloq yoshlari mulkning turli shakllarini tasarruf qilish, fermerlik, ishbilarmonlik yo‘llarini izlamoqda. Bu holat oilaning iqtisodiy quvvatini mustahkamlashga imkon berayotir. Oilada qizlarning tarbiyasiga alohida e’tibor berish imkoniyati vujudga kelayotir. Pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam, tibbiy sharoitning yaxshilanishi, onalar haqidagi g‘amxo‘rlik, ularning bo‘sh vaqtining ko‘payishi, iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi farzandlar tarbiyasiga ko‘proq e’tibor berishga imkoniyat yaratmoqda.

O‘zbekiston Konstitutsiyasida ota-onalarning farzandlar oldidagi burchi aniq qilib yozilgan. Ota-onalar o‘z farzandlarini ular voyaga yetgunga qadar boqishlari va tarbiyalashlari kerak (64-modda). Balog‘atga yetgan va mehnat qobiliyatini yo‘qotmagan bolalar o‘ta-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar (66-modda).

Ota-onalarning farzand oldidagi burchi haqida shaxqona tarbiyaning yozilmagan qonunlari ishlab chiqilgan. Bunga ko‘ra, ota-onalarning

farzand tarbiyasi bobida kechikmasligi, chaqaloq tug‘ilgan vaqtidan boshlab uning tarbiyasi bilan shug‘ullanishi kerak. Buning ma’nosini tushunishda quyidagi misol yordam beradi. Respublikada va undan tashqarida ham keng shuhrat topgan o‘zbek sozandası Turg‘un Alimatov qiziq bir fikrni bildiradi. Uning aytishicha, bola tarbiyasi yo‘rgakdan boshlanadi. Bola yo‘rgakda yig‘lagan vaqtida uning yonida musiqa asbobini chalib, uning diqqatini jalg qilish kerak. Musiqa ovozini eshitganda bola yig‘idan to‘xtasa, unda musiqaviy qobiliyat borligi bilinadi. Bu qobiliyatni kamol toptirish ota-onaning vazifasidir. Ona allasi ham yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Binobarin, tarbiya onalar allasidan boshlanadi.

Sharqona tarbiya talablaridan biri — ota-onan farzandiga chiroyli ism qo‘yishi, unga biror kasb-kor o‘rgatishi, voyaga yetkazib tarbiyalashi, balog‘atga yetgach, munosib juftini topib uylashi, boshini ikkita qilishidan iborat.

Farzandlarning burchi ota-onan qarigach, ularning holidan xabar olish, ularga ham moddiy, ham ma’naviy yordam qilishdan iborat. Ota bilan onan tarbiya bobida gapining bir joydan chiqishi muhim ahamiyatga ega. Oiladagi sog‘lom muhit, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, ota-onan hayot tajribasi, bilimi, iymon-e’tiqodi, ma’naviyati bola tarbiyasida zaruriy omil hisoblanadi.

Hozir O‘zbekistonda 23 milliondan ortiq aholi yashasa, shundan 10 million 800 ming nafari erkaklar, o‘n ikki milliondan ortig‘i ayollar. Ayollar — oilaning hayot tomirida oqayotgan qoni. Ayollarsiz oila bo‘lmaydi. Millatning davomiyligi ayol zotiga bog‘liq. Farzandlar o‘z onasini «voldayi mukarrama», «qiblahim», «qiblayi ka’bam» deb e’zozlaydilar. Onalar ana shunday hurmatga loyiq. Afsuski, ona nomiga noloyiq, ma’naviy qashshoq onalar oz bo‘lsa-da, uchrab turadi.

Oilada bola tarbiyasida otan o‘rnini hech kim bosa olmaydi. Shuning uchun donishmandlar bitta ota yuzta o‘qituvchidan ustun bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaganlar. Yaxshi otalarsiz yaxshi tarbiya bo‘lmaydi. Ota mehri ona mehridan kam emas. Oilada «otan o‘rni boshqa» degan gap bejiz aytilmagan. O‘g‘il otadan erkaklik xarakterini o‘rganadi. O‘z otasiga taqlid qiladi. Boladagi er yigitga xos fazilatlarni ota tarbiyalaydi.

Ota o‘g‘il oldida mas’ul ekanligini unutmaslik kerak. Otan shaxsiy namunasi, mehnatsevarligi, axloqiy fazilatlari bolaga astasekin o‘tadi, albatta. Ota o‘z farzandini insoniylikka o‘rgatishi

kerak. Mehnat qilmay, tekinxo'rlik bilan hayot kechirishga o'rgangan kishilarning bolalari ham yalqov bo'ladilar. Bunday bolalar oxir-oqibatda jinoyatga qo'l uradilar. Eng yaxshi ibrat va obro' halol mehnatdir.

Ota-onaning mahallada, ish joyida, do'stlar davrasidagi nufuzi, salmog'i farzandlar e'tiboridan chetda qolmaydi. Oilada inoqlik bo'lmasa, nosog'lom muhit mayjud bo'lsa, bunday oiladan qut-bara - raka ko'tariladi, bolalar o'z ota-onalarini hurmat qilmay qo'yadilar.

Bozor iqtisodi tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibatni saqlab qolish juda muhim ahamiyatga ega. Bunda, albatta, oilaning ma'naviy va huquqiy asoslari mustahkam bo'lishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish kerak.

O'zbekistonda oilaviy munosabatlar, axloqiy normalarning asosi — oilada er-xotin tengligidir. Bu tenglik umuman oilada yangi axloqiy normalarning qaror topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu axloqiy tenglik ularning huquqiy, iqtisodiy, siyosiy tengligi zaminida rivojlanadi.

Oilaviy tenglikning qaror topishida, shuningdek, subyektiv omillar — ya'ni er-xotinning axloqiy e'tiqodlari, o'zaro ruhiy, hissiy tajribalari ham muhim rol o'ynaydi.

Oilaviy tenglik nima degani? Bu er-xotinning oilani moddiy jihatdan ta'minlashi, bolalar tarbiyasida, ro'zg'or yumushlarida teng ishtirok etishidir. Bu tenglik, o'z navbatida, er-xotinning oiladagi ma'naviy-axloqiy tengligini shakllantiradi.

Er-xotinning axloqiy tengligi, ularning oiladagi teng axloqiy mavqeyi, obro'si oila turmushini, oilaviy masalalarni tashkil etishda er-xotin huquq va mas'uliyatlarining tengligidir.

Er-xotin tengligi — ma'naviy ehtiyojlarning yaqinligi bilan uzviy aloqador. Er-xotin ma'naviy ehtiyojlarining mushtarakligi ular orasidagi axloqiy birlikning shakllanishi va mustahkamlanishining muhim shartidir.

Oilaviy munosabatlarning ijtimoiy xarakterda ekanligini ta'kidlash kerak. Bu narsa oilaviy burchni keltirib chiqaradi. Oilaviy burch nima?


Oilaviy o'zaro burch — shaxsning jamiat tomonidan nikoh-oilaviy munosabatlarga qo'yilgan talablariga e'tiqod bilan amal qilishidir. Oilaviy o'zaro burch: er-xotinlik burchi, ota-onalik burchi, farzandlik burchi demakdir.

Oilani mustahkamlashda huquqiy bilimlarni egallash, ularga qat’iy amal qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda «Inson huquqlari haqidagi Deklaratsiya», «Oila haqida Kodeks», inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Oliy Majlisida qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlarni o'rganishning roli katta. Mustaqillikning buyuk ne'matlaridan biri nikoh o'qitish uchun keng yo'l ochilganligidir. Nikohda kelin-kuyov oldiga katta mas'uliyatli talablar, er-xotinlik burchlari va majburiyatlari yuklatiladiki, bu narsa umrbod ular uchun ma'naviy dastur bo'lib qoladi.

Oilaviy munosabatlarda er-xotin, qiz-o'g'il tarbiyasida ma'naviyatimizning muqaddas yodgorligi Qur'oni Karim va Hadis-larga amal qilinsa, ayni muddao. Ularda oilani mustahkamlash, oila odobi, ota-bola, farzand burchi, qarindosh-urug'larga g'amxo'rlik to'g'risida chuqur ma'noli yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgan.

Aytilganlardan ma'lumki, oilada er-xotin inoqligi, farzandlarga g'amxo'rliqi, sog'lom muhit baxt-saodatni yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Bugina emas, balki oiladagi sog'lom muhit butun jamiyatning ma'naviy barkamolligini ta'minlaydigan asosiy omillardan hisoblanadi. Bu sohada quyidagicha tadbiriylar choralar amalga oshirildi: birinchidan, oilaviy munosabatlarning qonuniy asoslari takomillashtirilmoqda, oila manfaatlarini qonuniy muhofaza qilish, onalik va bolalik huquqini ta'minlash; ikkinchidan, oilaning ijtimoiy manfaatlarini mustahkamlash, sog'lig'ini muhofaza qilish, oila a'zolarining ma'lumot darajasini yuksaltirish; uchinchidan, oilaning iqtisodiy manfaatlarini, bandlik darajasini ta'minlash, uy mehnati va turmush sharoitini yaxshilash; to'rtinchidan, oilaning ma'naviy, axloqiy asoslarini takomillashtirish va madaniy manfaatlarini ta'minlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish (qaralsin: *I. A. Karimov. Xalq farovonligi — faoliyatimiz mezonii*. — Toshkent, «O'zbekiston», 1998 yil).





## *Illova*

### **MA'NAVIYATIMIZ TARIXINING BUYUK NAMOYANDALARI**

Jamiyatimizni ma'naviy-axloqiy jihatdan mustahkamlash va taraqqiy ettirishda xalqimizning boy madaniy tarixini chuqur o'zlashtirish, jahon madaniyati tarixida munosib o'rinnegallagan allomalarimizning merosini har tomonlama o'rganish katta ahamiyatga egadir.

*Madaniyat yutuqlari ma'naviy jarayonda voyaga yetgan va uni o'z faoliyatida gavdalantirgan, asarlarida moddiylashtirgan donishmandlar, olimlar, adiblar, din va ma'rifat arboblari qoldirgan tarixiy merosning mazmunini tashkil etadi. Shu sababli ular yaratgan qadriyatlar, ulkan asarlar haqida muayyan bilimga ega bo'lish o'zligimizni anglashda, milliy istiqlol g'oyasining tarixiy asoslarini egallahda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi. Quyida mavjud adabiyotlardan foydalangan holda Vatanimiz madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymolar haqida qisqacha hikoya qilinadi. O'yaymizki, bu ma'lumotlar bilan tанишish talabalar tomonidan madaniyatshunoslik ilmidan olingan nazariy bilimlarni chuqurlashtirishda foydadan xoli bo'lmaydi.*

**Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783–850).** Xorazmlik buyuk olim boshlang'ich ta'limni o'z yurtida xususiy muallimlardan oladi, so'ngra Marvdagi madrasada o'qiydi, keyinchalik Bag'doddagi «Bayt-ul hikma» («Donishmandlar uyi»)ga taklif qilinadi. Bu ilm maskanida o'rta osiyolik Ahmad al-Farg'oniy, Hamid ibn Abdumalik Marvarrudiy, Abbas Javhariy kabilar bilan hamkorlikda ishlaydi.

**Asarlari:** «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob». «Al-jabr»dan bizga ma'lum bo'lgan «algebra», «algoritm» kabi atamalar kelib chiqqan. «Hind hisobi bo'yicha kitob». «Astronomik zij». Asarda astronomiyaga oid muammolar haqida so'z yuritiladi. Oylar, shamsiy va qamariy hijriy hisoblar tavsifi, sayyo-

ralarning harakatlari, oy kenglamasi va uning harakati, sinusni yoyga ko‘ra aniqlash, teskari sinuslar jadvali, soyalar jadvali beriladi. «Yer surati haqida kitob». Bu yerda 2400 ta shahar, dengiz, orol va boshqa obyektlarning joylanishi, koordinatlari va holatlari haqida ma’lumot beriladi. Nil daryosi, Azov, Kaspiy va Orol dengizlarining jug’rosiy xaritalari manzaralari chizib berilgan. «Asturlob bilan ishlash haqida kitob», «Quyosh soatlari haqida kitob», «Yahudiylar eralari va bayramlarini aniqlash haqida risola», «Kitob at-tarix», «Kitob ar-ruhnoma».

\* \* \*

**Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg‘oniy** (taxminan 797—865 yillarda yashagan). Manbalarda aytilishicha, u boshlang‘ich ta’limni olgach, o’sha davrning ma’muriy markazi va yirik ilm dargohi Marv shahriga borgan. Xalifa al-Ma’mun Bag‘-dodda taxtga o’tirganda, Marvda tashkil etilgan ilmiy jamoani ham o’zi bilan birga o’sha yerga olib ketgan. Ahmad al-Farg‘oniy Bag‘dodda tashkil etilgan «Bayt ul-hikma»da faoliyat ko’rsatgan. Tadqiqotchilar uning sakkizta asarini qayd etadilar.

**Asarlari:** «Kitob fiy harakat as-samoviya va javomi’ ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy astronomiya kitobi»), «Kitob al-komil fiy san’a al-asturlob» («Asturlob yasash haqida kitob»), «Kitob amal bil asturlob» («Asturlob bilan ishlash kitobi»), «Jadval al-Farg‘oniy» («Al-Farg‘oniy jadvallari»), «Risola fiy ma’rifa al-avqot allatiy yakun al-qamar fiyho favq al-arz av tahtho» («Oyning Yer ostida va ustida bo’lish vaqtlarini aniqlash haqida risola»), «Hisob al-aqolim as-sab’a» («Yetti iqlimni hisoblash»), «Kitob amal ar-ruhomat» («Quyosh soatini yasash kitobi»), «Ta’lil li zij al-Xorazmiy» (Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash»).

\* \* \*

Al-Farg‘oniy o‘z kashfiyotlarida geliosentrizmga o’tish uchun ilmiy zamin yaratdi; Ekvator va ekliptika tekisliklaridagi doimiy burchakni 23 daraja-yu 35 minut deb aniq o’lchadi; sferalar radiusini birinchi marta belgilab berdi; Oy va Quyosh tutilishlarini tadqiq etdi; Yer yoyining qaysi uzunligi  $1^{\circ}$  ga to‘g’ri kelishini o’lchab, bu miqdorni aniqladi, uni 360 ga ko‘paytirib, 40800 km. ni hosil qilishini qayd etgan. Yer shari meridianining uzunligini aytib berdi; Nil daryosi gidrometeorologik tabiatini aniqlaydigan asbob — «Miq-yosi Nil»ni yasadi. Suv uchun to‘lanadigan soliq shunga asoslandi,

xalq uni «adolat tarozisi» deb atadi; inson yashaydigan maydonni yetti iqlimga bo'ldi; vaqt o'lchamini; osmonning keljak manzara-sini ifodalaydigan asturlrob nazariyasini yaratdi va h. k.

\* \* \*

**Imom al-Buxoriy** (810—870). Asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy yoshligidanoq arab tili va hadis kitoblarini sevib o'rgangan, ularni yod olgan. 16 yoshida Imom Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan haj safariga otlanadi. Uning xotirasi har qanday kitobni bir marta mutolaa qilishda yod olish qobiliyatiga ega bo'lgan. U yuz ming sahih va ikki yuz ming g'ayri sahih hadisni yoddan bilgan.

**Asarlari:** «Al-Jome' as-sahih» («Ishonchli to'plam»), «At-Tarix al-kabir» («Katta tarix»), «Al-Adab al-mufrad» («Adab durdonalari»), «At-tarixal-avtob» («O'rtacha tarix»), «Al-Jome' al-kabir» («Katta hadislar to'plami»), «Kitob al-ilal» («Nuqsonli hadislar kitobi»), «Barr — al-volidayn» («Ota-onani hurmat qilish»), «Kitob al-ashriba» («Ichimliklar kitobi»), «Kitob az-zuhfo» («Zaiflar kitobi»), «Asomius-sahoba» («Sahobalarning ismlari»), «Kitob al-Kuna» («Hadis roviylarining taxalluslari haqida»).

Imom Buxoriy Xartang qishlog'i (Hozirgi Chelak tumani) da 870 yili vafot etgan. Bu yerda unga atab me'moriy majmua qurilgan (1998).

\* \* \*

**Abu Iso Muhammad At-Termiziy** (824—892). Jahon e'tirof etgan buyuk alloma, mashhur muhaddis Abu Iso Muhammad At-Termiziy Termizda olamga kelgan. Ko'p yillar dunyoning turli shaharlarida bo'lib, o'z bilimini oshirgan. U hadis ilmini chuqur o'rgangan, ko'plab shogirdlar yetishtirgan. 892 yili Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida vafot etgan.

**Asarlari:** «Al-jomi'» («Jamlovchi»), «Ash-shamoil an-nasavia» («Payg'ambarning alohida fazilatlari»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi og'ishishlar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»); «At-Tarix» («Tarix»), «Kitob ul-asmo va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob»).

At-Termiziy asarlari ichida eng mashhuri «Al-jomi'» bo'lib, u payg'ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim va ishonarli manbalardan biri hisoblanadi.

\* \* \*

**Abu Nasr Forobiy.** (873—950). Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Forobiy Sirdaryo bo‘yidagi Forob-O‘tror degan joyda dunyoga kelgan. U Toshkent, Samarqand va Buxoro, shuningdek, Bag‘dod shaharlarida o‘z bilimini oshirgan. Forobiy umrining so‘nggi yillarini Halab, Damashq shaharlarida o‘tkazgan. U 160 ga yaqin asar yozgan.

**Asarlari:** «Ihsos al-ulum», «Hikmat asoslari», «Aristotel logikasiga talqinlar», «Katta muzika kitobi», «Grajdaniq siyosati», «Fozil shahar aholilarining raylari», «Mantiqqa kirish», «Vakuum haqida», «Metafizika tezislari» va boshqalar.

Forobiy dunyoqarashining asosini panteistik g‘oya tashkil etadi. Uning fikricha, mavjudot emanatsiya yordamida ibtidodan bosqichma-bosqich paydo bo‘lgan. Forobiy o‘zining ijtimoiy qarashlarida ma’naviy hayotga oid ko‘pgina qimmatli fikrlarni olg‘a surgan. U insoniyat jamiyati vujudga kelishi va rivojlanishining muayyan tabiiy sabablarini ko‘rsatib bergen. Jamiyat axloqining vujudga kelishi, inson va jamiyatning o‘zaro munosabatini tekshirgan. Shuningdek, u insoniylik,adolat, yetuk jamoa, komil inson muammosini o‘rtaga qo‘yan va ularni nazariy jihatdan asoslab bergen.

\* \* \*

**Abubakr Muhammad ibn Ja’sar Narshaxiy (943).** Buxoro viloyatiga qarashli Narshax mavzesida tavallud topgan. Yoshligidan qadimgi tarix, geografiya, arab tilini puxta o‘rgangan.

**Asarlari:** «Buxoro tarixi». Bu asar turli tarixiy manbalarda «Tarixi Narshaxiy», «Axbori Buxoro», «Tarixi Buxoro», «Buxoro viloyatining tadqiqi» kabi nomlar bilan atalib kelingan. Asarda qadimgi Buxoro aholisining tarixiy kasb-korlari (ovchilik, baliqchilik, dehqonchilik kabi), Afshona, Romiton, Varaxsha kabi qadimiy maskanlarning barpo etilishi, Markaziy Osiyo hududlarida arab hukmronligining o‘rnatalishi, Islomning tarqalishi, Muqanna qo‘zg‘oloni, sosoniyalar davlati, Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot, yer-suv munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Asar nafaqat Buxoro, balki butun Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda noyob manba hisoblanadi. Kitob 1966—1991 yillarda chop etilgan.

\* \* \*

**Abu Mansur al-Moturidiy (vafoti — 945).** Asli ismi Abu Mansur ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al Moturidiy-as-

Samarqandiy bo‘lib, sunniy mazhabiga tegishli moturidiya oqimi-ning asoschisidir. U Samarqandning Moturid (Jomboy) qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich ma’lumotni o‘z qishlog‘ida olgach, o‘qishni Samarqandda davom ettirgan. Manbalarda qayd etishlaricha, Moturidiy fiqh va kalom bilimlarini chuqur egallagan, hanafiya mazhabi mudarrislardan saboq olib, o‘z tasavvurlarini chuqurlash-tirgan. Keyinchalik shu e’tiqodni ilmiy asoslab bergan.

**Asarlari:** «Kitabi Tavhid», «Kitab Maqomat», «Kitab Ta’vilot al-Qur’on», «Ma hazi ash-shari’a» («Shariat asoslari sarasi»), «Kitab al-jadal» («Dialektika haqida kitob»), «Kitab al-usul» («Diniy ta’lim usuli kitobi»). Uning eng nodir hisoblangan «Kitabi Tavhid» asari hozirgacha saqlanib qolgan. Al-Moturidiy islom olamida «Imom al-Xuda» va «Imom al-mutakallimin» («Hidoyat yo‘li imomi va mutakallimlar imomi») nomi bilan mashhur bo‘lgan.

\* \* \*

**Abu Abdulloh al-Xorazmiy** (vafoti — 997). Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiyning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Qiyot shaharlarida o‘tgan. Olim hayotining muayyan davri Xurosonda kechgan.

**Asarlari:** «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari»). Bu qomusiy asar falsafa, mantiq, tib, ilmi nujum, musiqa va boshqa sohalarni qamrab olgan.

Abu Abdulloh Xorazmiy ilmlar tasnifini yaratdi. U quyidagilar-dan iborat:

«Shariat» ilmlari: Fiqh — ya’ni islom huquqshunosligi, Kalom — ya’ni islom asoslari; Grammatika (Sarf va nahv), Ish yuritish; She’riyat va aruz; Tarix.

Nazariy falsafa: Tabiiyot ilmlari va fizika (tib, ob-havoni aniqlash, mineralogiya, kimyo, mexanika kabilar); Ilohiyot, ya’ni metafizika — olyi ilm; Mantiq.

Amaliy falsafa: Etika (insonning o‘zini-o‘zi boshqarishi); Uyni boshqarish; Siyosat — shahar-davlatni boshqarish.

\* \* \*

**Abu Ali ibn Sino** (980—1037). Ibn Sino asl ismi Husain, otasining ismi Abdulloh — mashhur qomusiy olim: tabiatshunos, faylasuf, astronom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, til-shunos, yozuvchi va shoir Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog‘ida

dunyoga kelgan. Ibn Sino «Shayx-ur-rais» («Olimlar boshlig‘i») deb nom qozongan. U 450 dan ortiq asar yozib qoldirdi. Shulardan 190 ga yaqini falsafa, mantiq, ruhshunoslik, axloqshunoslik va ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag‘ishlangan Ibn Sino asarlarining 100 tasi bizgacha yetib kelgan.

**Asarlari:** «Al-qonun fit tibb» («Tib ilmlari qonuni»), «Kitob ash-shifo». U mantiq, fizika, matematika, metafizikani o‘z ichiga oladi, «Kitob ul-insof» (20 tomlik), «Kitob lison ul-arab» (10 jilddan iborat «Arab tili bo‘yicha kitob»), «Donishnoma» (4 qismdan iborat), «Risola at-Tayr» («Qush tili»), «Salomon va Ibsol», «Hay ibn Yakson», «Kitob al ishorat», «Yusuf qissasi», «Urjuzalar — tibbiy dostonlar» va h.k.

Ibn Sino o‘z asarlarida ijtimoiy falsafiy, ma’rifiy, ma’naviy masalalarga, ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor bergan. Tarbiyani aqliy tarbiya; jismoniy tarbiya; axloqiy tarbiya; nafosat tarbiyasi; yoshlarga hunar o‘rgatish bilan bog‘liq bo‘lgan tarbiyadan iborat, deb hisoblagan.

\* \* \*

**Abu Rayhon Beruniy** (973—1048). Abu Rayhon Beruniy Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida dunyoga kelgan, G‘aznda vafot etgan.

**Asarlari:** «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Mas’ud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana».

Beruniy ma’naviyat va madaniyat sohasida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: Fanning sofligi; Dunyonи deistik tushunadi: xudo dunyoni yaratib, uning ishlariga aralashmaydi degan diniy-falsafiy yo‘nalishga moyil bo‘lsa-da, dunyo yaratganligini tan olsa-da, tabiatni mustaqil deb hisoblaydi; Ibn Sino bilan qilgan ilmiy munozarada o‘ziga xos atomistik nazariyani himoya qiladi; geosentrik va geliosentrik nazariyalar tengligi haqidagi farazlarni ilgari suradi; inson hayvondan o‘z aqli bilan farq qilishini ta’kidlaydi.

Xalqning rang va til farqlari, urf-odatlaridagi tafovut geografik muhitga bog‘liq, deb hisoblaydi; jamiyat yuzaga kelishida kishilarning moddiy ehtiyojiga alohida etibor beradi; inson boshqa odamlarning baxt-saodati haqida doim g‘amxo‘rlik qilishi, o‘ylashi kerak, degan qoidani olg‘a suradi; insonning qadr-qimmati o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishida, deb hisoblaydi; uning e’tirof etishicha, mamlakat ravnaqi fan taraqqiyotida, insonning eng katta baxti esa bilishdadir.

\* \* \*

**Nosir Xisrav** (1004—1088). Nosir Xisrav Qabodiyon (Tojikiston)da tavallud topgan. U ko‘plab adabiy, ilmiy, falsafiy asarlar va risolalar muallifidir.

**Asarlari:** «Rushnoinoma»; «Saodatnama» (masnaviylari); «Zod ul musofirin»; «Xon-ul-ixvon»; «Din vajhi»; «Bo‘ston ul-uqul»; «Jome’ ul-hikmatain»; «Safarnoma» (nasriy risola).

Nosir Xisrav o‘zining ma’naviy hayoti, diniy-falsafiy dunyoqarashi jihatidan botiniya va ismoiliya mazhabining izdoshi va asoschilaridan hisoblanadi.

Nosir Xisrav insonning poklanish jarayoniga alohida e’tibor qaratadi. Buning uchun g‘ayriinsoniy harakat, yomon xulq-atvordan saqlanishga, g‘ariblar diliga ozor bermaslikka chaqiradi. Axloqiy tarbiya roliga yuksak baho beradi. U molu mulkka berilmaslikka, adolat va insofga da’vat etadi.

«Ma’naviy jihatdan ulg‘aymoqchi bo‘lsang, martabangni yuqori ko‘tarishni istasang, jahonning ulug‘lariga yaqinlashishni xohlasang, ilm o‘rgan, aqlu idrokingni takomillashtir», — deydi Nosir Xisrav.

Ulug‘ zahmatkash shoir o‘z asarlarida odamlarni yuksak odamiylik sifati va fazilatlarini egallahsga chaqiradi.

Uning fikricha, ahillik, adlu insof, mehru oqibat, o‘zaro ittifoq ustuvor bo‘lgan yurtda zulm mag‘lub bo‘ladi, inson sharafi g‘olib keladi, o‘zaro nizolar barham topadi.

\* \* \*

**Ismoil Jurjoni** (1042—1136). Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoni al-Xorazmiy ulug‘ olim va eng mashhur tabib hisoblangan. Ismoil Jurjon shahri (Eron shimoli)da tug‘ilgan bo‘lsa ham umrining ko‘p qismini Xorazmda o‘tkazgan va al-Jurjoni al-Xorazmiy taxallusi bilan mashhur bo‘lgan.

Jurjoni Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ibn Anushtagin (1097 — 1127) va uning o‘g‘li Alouddavla Otsiz (1127—1156) saroystida xizmat qilgan.

**Asarlari:** «Al-Xuffayi al-a’loiy» («Poyalarning yuqori qismi»), «At-Tibb al-mulukiy», «Kitob az-zahiraye Xorazmshohiy», «Kitob al-ahrod» («Hasad tufayli kelib chiqadigan kasalliklar»), «Kitob yodgor» («Esdalik kitobi»), «Kitob fi rad alal-filosafa» («Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi»), «Kitob vasiyatnama» va boshqalar.

Jurjoni fikricha, haqiqiy lazzat to'kin-sochin hayot kechirishda emas, balki aqliy va ma'naviy kamolotga erishuvvdadir.

\* \* \*

**Abul Qosim az-Zamaxshariy** (1075—1144). Abul Qosim Mahmud ibn Umar ibn Ahmad Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan. U dastlabki ma'lumotni o'qimishli otasidan olgan, 17 yoshga to'lganda Buxoroga borgan, shuningdek, bilimini oshirish yo'lida dunyoning ko'pgina shaharlarida bo'lgan.

U Shosh, Bag'dod, Hijozda, ikki marta Makka shahrida bo'lib, besh yilcha yashab Jorulloh («Ollohnning qo'shnisi») degan sharaflı nomga ega bo'lgan. U grammatika, lug'atshunoslik, aruz ilmi, jug'rofiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yozdi. Az-Zamaxshariy o'z ilmiy va ijodiy faoliyatida arab tili va adabiyotiga chuqur hurmat bilan qaragan, o'z asarlarini faqat arab tilida yaratgan.

**Asarlari:** «Al-Mufassal» (arab tili grammatikasiga oid asar), «Muqaddimat ul-adab» (Adab ilmiga muqaddima), «Asos ul-balogs'at» («Notiqlik asoslari» — lug'atshunoslikka bag'ishlangan, arab tili fasohati va mukammalligi haqida fikr yuritadi), «Rabiy'ul-abror va nusus axyar» («Ezgular bahori va yaxshilar bayoni» — asarda adabiyot va tarixga oid latifalar beriladi), «Al-Qustos fi-l-aruz» («Aruzda o'Ichov), «Al-Kashshof» (asar Qur'on haqiqatlariga bag'ishlangan), «Maqomat» («Maqomlar» asari ellik maqomdan iborat). Unga «Xorazm faxri», «Arab ustozি» kabi unvonlar berilgan.

\* \* \*

**Burhoniddin Al-Marg'inoniy** (1123—1197). Jahon tan olgan faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy Qur'on, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh — islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmgaga ega bo'lgan mutafakkirdir. U Burhon ud-din va-l-milla (Islom dalili) va Burhoniddin al-Marg'inoniy nomlari bilan mashhur bo'lgan.

Olim boshlang'ich ta'limni Marg'ilonda olgan, keyin Samarqandga ko'chib borgan va butun umrini shu yerda o'tkazgan, 1149 yili olim haj safariga yo'l olgan.

**Asarlari:** «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki ta'lim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal ta'lim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosik ul-haj» («Haj

marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil bo‘lgan narsalar to‘plami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi»), «Hidoya».

«Hidoya» yuqoridagi asarlarining eng ixchami, izchil va mu-kammal shaklidir. U hanafiya mazhabidagi asosiy qo‘llanmadir.

«Hidoya» to‘rt juzdan iborat: birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular — namoz, ro‘za, zakot va haj kitoblaridir. Ikkinci juzdan nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qillar, bedarak yo‘qolganlar, sherikchilik, vaqf mulki singari masalalar o‘rin olgan.

Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o‘tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikka qaytish, vakolat, da’vo, iqror bo‘lish, sulh, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg‘a, ijara, homiylik, qullar va bosqinchilik masalalariga oid muammolar haqida so‘z boradi.

To‘rtinchi juzda shafoat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik xususida, shartnomalar, qurbanlik qilish haqida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to‘lash, vasiyat kabi masalalar haqida fikr yuritiladi.

«Hidoya» bir necha asrlardan buyon Sharqda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo‘yicha eng asosiy qo‘llanma bo‘lib kelmoqda.

\* \* \*

**Umar Xayyom** (1040—1123). G‘iyosiddin Abdulfath Umar ibn Ibrohim Xayyom Nishopur shahrida tug‘ilgan, g‘aznaviylar hokimiysi yemirilib, saljuqiylar davlati hukmronligi davrida yashab ijod etgan. U Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning ilmiy, falsafima‘naviy merosini yanada rivojlantirgan. U olim sifatida falsafa, riyoziyot, falakiyot va fizikaga oid bir qancha asarlar yozgan. Uning ruboiylari keng shuhrat qozongan («Ruboiyot»).

**Asarlari:** «Borliq va burchlanmoq to‘g‘risida risola», «Uch savolga javob», «Aql olami butun umumi fanning predmeti to‘g‘risida», «Borliq to‘g‘risida risola», «Talab bo‘yicha kitob» (Hamma mavjudot to‘g‘risida), «Ruboiyot», «Jaloliddin taqvimi», «Navro‘znama» va h.k.

Umar Xayyom fikricha, narsalarda «umumi aql», saxovat va himmat ko‘rsatuvchi, «ijodchi aql» mavjud. Undan «umumi jon», «umumi buyum» kelib chiqadi. «Yaratuvchi aql»dan paydo bo‘lgan olam harakat va o‘sish jarayonini boshidan kechirib turadi.

«Umumiy buyumlar» tabiatga bo‘ysunadi. Tabiat to‘rt unsur: havo, suv, o‘t, yer (tuproq)dan tashkil topgan.

Inson hayvonlardan o‘zining so‘zlashish qobiliyati bilan farq qiladi, olam obyektiv qonunlar bilan rivojlanadi. «Sen, mendan oldin ham tun-kun bor edi», degan qoidaga asoslanadi Umar Xayyom.

\* \* \*

**Hoja Ahmad Yassaviy** (1041—1167). Ahmad Yassaviy Sayramda Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. U Buxoroda ta’lim olgan. «Yassaviya» tariqatining qoidalari Hoja Ahmad Yassaviyning «Hikmat» degan asarida bayon etilgan. Bu talablarga ko‘ra, inson mehrshafqat, halol-pok, o‘z qo‘l kuchi, halol mehnati bilan kun kechirish orqali Olloh visoliga yetishi mumkin.

Ahmad Yassaviy o‘z she’rlarida mashhur mutasavvuf olim Mansur Halloj (858 — 922) nomini chuqur hurmat bilan tilga oladi.

Yassaviy molu dunyo to‘plashga harakat qilmagan, bechorahol umrguzaronlik qilgan. U mol-dunyo va davlat orttirishga mukkasidean ketgan, xasis va oxiratni o‘ylamaydigan kishilarni ogohlan-tirib, shunday deb yozgan edi:

Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o‘taro,  
Ishonmag‘il molingga, bir kun qo‘ldan ketaro,  
Ota, ona, qarindosh, qayon ketdi, fikr qil,  
*To ‘rt oyoqli cho‘bin ot bir kun sango yetaro.*

Ahmad Yassaviy butun turkiyzabon xalqlarning madaniy hayoti-da muhim rol o‘ynagan buyuk mutasavvuf olim, donishmand ulamo va ustoz sifatida shuhrat qozongan.

\* \* \*

**Mahmud Qoshg‘ariy** (XI asr). Mahmud Qoshg‘ariy Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asr madaniyatining buyuk namoyandalaridan biridir. U turkiy tillarni o‘rganish sohasida keng shuhrat topgan. U XI asrda Movarounnahrda somoniylar o‘rnini qoraxoniylar su-lolasi egallagan, turkiy adabiy til keng urf bo‘la boshlagan davrda yashagan. Mahmud Qoshg‘ariy Qashg‘arda tug‘ilib o‘sgan bo‘lsada, turkiy o‘lkalarning ko‘pgina shaharlarida bo‘lib, til sohasida boy material to‘pladi.

**Asari:** «Devoni lug‘atit turk». «Devon»da 7500 dan oshiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. Qoshg‘ariy kishilarni ilm o‘rganishga da‘vat etgan, jaholat, kibru havoni, molu dunyoga hirs

qo'yish, bahillik va ochko'zlikni qoralagan. Saxovat va himmat ko'rsatishni, ota-onani hurmat qilishni ulug'lagan.

Mahmud Qoshg'ariyning ma'naviy merosi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan yuksak qadrlangan va u qiyosiy tilshunoslikning asoschisi deb tan olingan. Olimlar yozishicha, «Devon»da dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko'rsatilgan. Uning markazi-da Markaziy Osiyo joylashgan.

\* \* \*

**Yusuf Xos Hojib** (XI asr). Yusuf Xos Hojib XI asrning ko'zga ko'ringan shoiri va mutaffakiri, u Boloso'g'un (Qirg'izistonidagi To'qmoq) shahri yaqinida tug'ilgan.

**Asari:** «Qutadg'u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim»). Doston Qashqar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bag'ishlangan (1069). Unga Xos Hojib, ya'ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi degan unvon berilgan.

Yusuf Xos Hojib inson kamoloti yo'llarini izlaydi. Uning fikricha, inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan o'zaro muloqotda, ijtimoiy-foydali mehnatda chinakam kamolotga yetishadi. «Insonga foyda keltirmaydigan inson — o'likdir», deb hisoblaydi.

Xos Hojib hokimlarga davlatni boshqarishda adolatli bo'lishni maslahat bergen, ularni qonunsizlikka yo'l qo'ymaslikka chaqirgan, aks holda zulm kuchayishi, norozilik kelib chiqishi mumkin, degan fikrni bergen. Hokim dono bo'lsa, boshqaruvning negizini aql va adolat tashkil qiladi. Bu esa yalpi baxt-saodatga va farovonlikka olib keladi.

Odam kimligidan qat'iy nazar, inson bo'lishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylikkina abadul-abad qoladi. Shunga ko'ra, inson faqat yaxshilik qilishi kerak.

Yusuf Xos Hojib inson kamoloti ustida qayg'urar ekan, unga yaxshilik va ilm orqali erishish mumkin, deydi. Yusuf Xos Hojib ilm-fan, ma'rifat orqali jamiyatning axloqiy muhitini sog'lomlash-tirish g'oyasini targ'ib qilgan.

\* \* \*

**Abdulxoliq ibn Abdujamil G'ijduvoniy** (1103—1179) Buxoro yaqinidagi G'ijduvon qishlog'ida tug'ilgan. G'ijduvoniy o'z ustozи Hoja Yusuf Hamadoniya bag'ishlab ko'plab asarlar yozgan.

**Asarlari:** «Maqomoti Hoja Yusuf Hamadoniy» («Hoja Yusuf Hamadoniy fazilatlari»), «Risolai shayx ush-shuyuk hazrati Hoja Abu Yusuf Hamadoniy».

Abdulxoliq G'ijduvoniy Yusuf Hamadoniyning Buxorodagi to'rtinchi shogirdi (halifasi) hisoblangan. G'ijduvoniy XIV asrda paydo bo'lgan «Naqshbandiya» tariqatining ma'naviy otasi va asoschisidir. G'ijduvoniy Yassaviydan so'ng Hamadoni o'rniga o'tirib, ko'plab shogirdlarni tarbiyalab yetishtirgan. G'ijduvoniy o'z tariqatining qonun-qoidalari mezonini ishlab chiqqan. Bu qoidalalar «Rashxalar», ya'ni qatra («tomchi») lar deb ataladi.

\* \* \*

**Ahmad Yugnakiy** (XII asr oxiri — XIII asr boshlari). Mahmud o'g'li Ahmad Yugnakiy Samarqand yaqinidagi Yugnak shahrida dunyoga kelgan.

**Asari:** Uning turkiy tilda yozilgan «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tufhasi») dir. Asar axloqiy-didaktik yo'nalishga ega bo'lib, kishilarga «yaxshilik urug'ini sepish» uchun yashashni maslahat beradi. Dunyo bevafo, o'tkinchi, rohat-farog'atga intilish befoyda. Shuning uchun yaxshilik haqida o'ylash kerak. Inson taqdiri yaratuvchiga bog'liq. Lekin Olloh dunyoviy hayotning ma'nosи va go'zalligini inkor etmaydi. Izzat va hurmat mehnat, bilim va aql yordamida qo'lga kiritiladi. Kamtarlik insonni ulug'laydi, kalondimog'lik uni yerga uradi.

Yugnakiy kishilarni saxovat va mehribonlik ko'rsatishga, sabr-toqatli bo'lishga, do'stni ehtiyyot qilishga undagan.

\* \* \*

**Najmiddin Kubro** (1145—1221). Ahmad ibn Umar Abul Jannob Najmiddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy Xivaq shahrida dunyoga kelgan. U yoshlik paytidayoq ilm istab Misrga borgan.

Musulmonlar sharqida keng shuhrat topgan mutafakkir va mutasavvuf olimlardan biri — Majiddin Bag'dodiy (Farididdin Attorning otasi) va Bahoviddin Valad (Jaloliddin Rumiyning otasi) kabi yirik mutasavvuf olimlar Najmiddin Kubroning shogirdlaridandir. Shayx Najmiddin Kubro mo'g'ul lashkarlariga qarshi Urganch qal'asini himoya qilishda bosh-qosh bo'lgan. 1221 yili u mo'g'ul bosqinchilar tomonidan vahshiyona o'ldiriladi.

Kubroviya tariqati musulmon sharqida keng tarqalgan. Undan quyidagi kichik tariqatlar kelib chiqqan: Firdavsiya (Hindiston); Nuriya tariqati (Bag'dod); Rukniya tariqati (Xuroson); Hamadoniya tariqati (Kashmir); Ig'tishoshiya tariqati (Xuroson); Nur-

baxshiya (Xuroson); Ne'matulloiya (Eron, G'arbda va AQShda hozir ham faoliyat ko'rsatmoqda).

\* \* \*

**Mahmud Chag'miniy (XII—XIII).** Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniy Xorazmda tug'ilgan.

Chag'miniy o'qishni davom ettirish maqsadida Samarqandga kelgan. Chag'miniy Abu Rayhon Beruniydan keyingi Xorazm ilmiy matabining eng yirik olimi deb tan olingan. U astronomiya, riyoziyot, tabobat, jo'g'rofiya va boshqa sohalarda ham shug'ulangan. Shuning uchun uni qomus tuzgan alloma deb taniganlar.

**Asarlari:** «Mulaxxas fi-l-xay'a», «Saylanma», «To'qqiz sonining riyoziyotdagi o'rni haqida risola», «Merosni bo'lismasalarida riyoziyot usullariga sharh» va boshqalar.

Chag'miniy aytadiki, «Quyoshni o'zidan nur tarqatuvchi sayyora-larning markazi deb hisoblash mumkin». «Oy o'z nuriga ega bo'lmasdan uni quyoshdan oladi». Uning tabiatga bergen ta'rifi diqqatga sazovor: «Tabiat har qanday harakat va sokinlikning manbaiy».

Chag'miniy o'sha davr astronomiyasini yangi pog'onaga ko'tardi.

\* \* \*

**Bahouddin Naqshband** (1318—1389). Markaziy Osiyoda XIV asrda vujudga kelgan tasavvuf tariqatlaridan biri «Naqshbandiya» Hoja Muhammad Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'langan. Naqshband Buxoro yonidagi Qasri Orifon qishlog'ida tug'ilgan.

Naqshband Muhammad Boboi Samosi qo'lida tarbiya topgan, keyinchalik unga Sayid Mir Kulol rahnamolik qilgan. Bu inson atoqli mutasavvuf olim bo'lib, Bahouddinni har tomonlama kamol toptiradi.

Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik va «Dil — ba yor-u, dast — ba kor» degan g'oya yotadi.

Naqshbandiya tariqatining poklik, to'g'rilik, adlu insof, mehru shafqat, imondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umumbashariy tamoyillari alohida ahamiyatga ega.

\* \* \*

**Taftazoniy** (1322—1392). Sa'duddin Taftazoniy Ashxabod shahri yaqinidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. U islom falsafasi,

kalom, mantiq, handasa, she'riyat va arab tili grammatikasiga oid ko'plab asarlar yozgan.

**Asarlari:** «Tahzib al-mantiq va-l-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish»), «Maqosid fi ilm al-kalom» yoki «Maqosid at-tolibin fi usil ad-din» («Din asoslarini izlovchilarning maqsadlari»), «As-Sa'diya» (Kotibiyning mantiqqa oid «Ash-shamsiya» risolasiga yozilgan sharh), «Al-mutavval» («Keng talqin»), «Muxtasar al-maoniy» («Qisqacha ma'nolar»), «Al irshod al-xodiy» («Yo'1 boshlovchi rahbar»), «Al-maqosid at-tolibin» («Tolibi ilmlarning maqsadlari»), «Risola fi zavoye al-musallas» («Uchburchakning burchaklari haqida risola») va boshqalar.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar muallifidir. Olimning e'tiqodiga ko'ra, xudo insonlarga xayrli ishlar qilishni buyurgan, g'ayrisha'riy ishlari uchun esa insonning o'zi javobgar bo'ladi.

U islam falsafasi — kalomga mantiqiy xulosalar tatbiq etib, uni boyitdi va ilohiyot fani rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

\* \* \*

**Mir Said Sharif Jurjoniy** (1339—1413). To'liq ismi Ali binni Muhammad binni Ali Husayni Jurjoniy Astrobod shahri yaqinidagi Tog'u qishlog'ida dunyoga kelgan. Temur tomonidan Sheruz fath etilgach, boshqa olimlar qatori Samarqandga kelgan.

U o'z zamonasining yirik allomasi bo'lib, o'sha davr fanlarning barcha sohalarida faoliyat ko'rsatgan: islam falsafasi — Kalom, mantiq, til, tabiatshunoslik, huquq va falsafaga oid risolalar, shuningdek, ko'plab olimlarning asarlariga sharhlar yozgan.

**Asarlari:** «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o'rta xulosa»), «Dunyonи aks ettiruvchi ko'zgu» (risola).

Jurjoniy Samarqandda 20 yildan ko'proq samarali ijod etgan, Amir Temur vafotidan keyin Sheruzga qaytib ketadi.

\* \* \*

**Hoja Muhammad Porso** (1348—1420). Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriy (Hoja Porso) Buxoroda tavallud topgan. U naqshbandiya maktabining eng ko'zga ko'ringan olimlaridan biri. Hoja Porso Qur'on, hadis, kalom kabi turli diniy ilmlarni chuqur o'rgangan donishmand («Porso»-dindor) edi. Porso Naqshbandning ikkinchi xalifasi bo'lgan.

**Asarlari:** «Risolai qudsiya» («Hoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqida risola»), «Az anfozi qudsiyai mashoyixi tariqat»

(«Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan»), «E’tiqodot» («E’tiqod haqida risola»), «Tahqiqot» («Tasavvuf istilohlari haqida risola»), «Tafsiri Qur’on» («Qur’on tafsiri»), «Al-hadis ul-arba’una» («Qirq hadis»), «Risola dar odobi murid» («Murid odoblari haqida risola»), «Sharhi «Fiqh Kaydoniy» («Fiqh Kaydoniy» asarining sharhi»), «Fasl ul-xitob bi-vusuli-ahbob» («Do’stlar visoliga yetishishda oq ila qorani ajratuvchi kitob»), «Muxtasari ta’rxi Makka» («Makka shahrining qisqacha tarixi»), «Maqomoti Hoja Alouddin Attor» («Alouddin Attor maqomati»), «Maqomoti Hoja Bahouddin Naqshband» («Hoja Bahouddin Naqshband maqomati»).

Porsoning shariat va tariqat masalalariga bag‘ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari — «Fasl ul-xitob bi-vusuli-l-ahbob» («Do’stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitobi») risolasidir.

\* \* \*

**Qozizoda Rumiy** (XIV asr oxiri — XV asr boshi). Markaziy Osiyo madaniyatiga katta ijodiy ta’sir ko‘rsatgan alloma Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud Qozizoda Rumiy hozirgi Turkiyaning Bursa degan joyida tug‘ilgan. Otasi Hoji Afandi Bursaning qozisi bo‘lgan. Salohiddinning tug‘ilgan yili ma’lum emas. Tavalludi 1354—1364 yillar orasida degan taxminlar bor. U Samarcand shahriga ilm olish maqsadida kelgan. Keyinchalik Amir Temur ulamolari qatoridan munosib o‘rin egallaydi. Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmadjan astronomiya va matematikadan tahsil olgan. Otasining qozilik lavozimi va rum (Kichik Osiyo)lik ekanligiga ishora qilib u «Qozizoda Rumiy» nomi bilan shuhrat qozongan.

Temur vafotidan so‘ng u Ulug‘bek bilan birgalikda Hirota boradi, astronomiya, matematika sohasida unga ustozlik qilgan, bir necha vaqt Samarcandda — Ulug‘bek madrasasida ishlaydi. Jurjoniy bilan ilmiy muloqot va munozaralar olib borgan.

Ulug‘bek rasadxonasini qurishda Qozizoda va Jamshid Koshiy faol ishtirok etganlar. Bu yerda ilmiy tekshirishlarga Qozizoda Rumiy boshchilik qilgan. Uning vafotidan so‘ng Ali Qushchi bu ishni davom ettirgan.

**Asarlari:** «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»), «Sharhi mulaxxis fi-l-xay’a» («Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharhi»), «Sharhi ashkol at-ta’sis» («Asoslangan jumlalarga sharh»), «Risola al-jayb» («Sinus haqida risola»), «Dastur al-amal va tashiq al-jadval» («Amal dasturi va jadvallarini tuzish»), «Risola fi ilm al-

hay'a» («Astronomiya ilmi haqida risola»), «Risola fi rub' al-mujayab» («Sinus kvadrat haqida risola») va boshqalar.

\* \* \*

**Ulug'bek** (1394—1449). Ulug'bek Eronning g'arbida joylashgan Sultoniya shahrida bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ilgan. U Shohruh Mirzoning to'ng'ich o'g'li, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan.

Shohruh to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411 yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi.

Ulug'bekning ustozlari Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiylar bo'lgan. Ular Ulug'bekka astronomiya va matematikadan ta'lim bergenlar. 1420 yili Samarqandda Ulug'bek madrasasi ochiladi. Unda Qozizoda, Ulug'bek, Koshiy va Ali Qushchilar ta'lim bergenlar.

**Asarlari:** «Ziji Ulug'bek», «Bir daraja sinusni aniqlash haqida risola», «Risolayi Ulug'bek», «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi»). 1994 yilda Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda va chet ellarda katta tantanalar bo'lib o'tdi.

\* \* \*

**Sharafiddin Ali Yazdiy** (vafoti — 1454 yil). Sharafiddin Ali Yazdiy Eronning Yazd shahriga qarashli Taft mavzeida taxminan XIV asrning oxirgi choragida tug'ilgan.

Ali Yazdiy «Zafarnoma» degan mashhur asarning muallifi. U she'rlar ham bitgan. Undan qolgan ilmiy-madaniy meros adabiyot va til uslubi, she'riyat nazariyasi, ilmi nujum, falsafa, tasavvufning nazariy masalalariga oiddir. U Hirot, Samarqand shaharida yashagan.

**Asarlari:** «Hulal-i muttaraz dar muammo va lug'az» («Muammo va topishmoqlar borasida bezakli joma»), «Mavotin yo manozir dar muammo» («Muammo fanida turarjoy va manzaralar»), «Kitob fi ilm-i usturlob» («Usturlob ilmi bo'yicha kitob»), «Devoni Sharafi Yazdiy» («Sharafi Yazdiyning she'rlar to'plami»), «Sharhi Asamoi Alloh» («Alloh ismlarining sharhi»), «Tuhfat ul-faqir va hadyat ul-haqir» («Faqirning tuhfasi-yu, haqirning hadyasi»), «Munshaot» («Xatlar to'plami»), Amir Temur tarixining she'riy bayoni «Zafarnoma» («Fathnomayi Sohibqiron»).

\* \* \*

**G‘iyosuddin al-Koshiy** (Vafoti — 1429 yil). Jamshid ibn Ma’sud ibn Mahmud G‘iyosuddin al-Koshiy XIV—XV asrlarda yashagan eng mashhur siymolardan biridir. Uning bobosi Mahmud ibn Yah’yo ibn al-Hasan al-Koshiy ziyoli odam bo‘lib, riyoziyot va astrologiyaga oid risolalar yozgan.

Qoqizoda Rumiyning maslahati bilan Ulug‘bek 1416 yili al-Koshiyni Samarqandga taklif etgan.

Koshiy «Miftih al-hisob» («Hisob kaliti») asari bilan mashhur bo‘lgan. Bu asar riyoziyot qomusi deb tan olingan. Bunda o‘nli kasrlar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

**Asarlari:** «Jizi Hoqoniy», «Miftoh al-hisob» («Hisob kaliti»), «Risola al-muhitiya», «Sullam as-samovot» («Osmonlar narvoni»), «Nuzhad al-hadoyiq» («Bog‘lar sayri»).

\* \* \*

**Ali Qushchi** (vafoti — 1474 yil). Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi «o‘z davrining Batlimusi» bo‘lib tanilgan. Keyinchalik otasidan yetim qolgach, uni Ulug‘bek o‘z tarbiyasiga olgan. Ali Qushchi Ulug‘bek rasadxonasida ishlagan, keyinchalik unga rahbarlik qilgan.

Ali Qushchining targ‘ibotchilik faoliyati tufayli Markaziy Osiyo olimlari, xususan, Ulug‘bekning ilmiy ijodi Yevropaga keng tarqaladi.

**Asarlari:** «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»), «Risolayi qusur» («Kasrlar risolasi»), «Risola al-fathiya» («G‘alaba risolasi»), «Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob» («Hisob haqida»), «Risola fi halla ash-shakl al-hilol» («Hilolsimon shakllarni o‘lchash haqida risola»), «Risola dar ilmi hay’at» («Astronomiya ilmi haqida risola»), «Sharhi Ziji Ulug‘bek» («Ulug‘bek «Ziji»ga sharh») fors tilida yozilgan, «Xitoynoma», «Risolayi mantiq», «Risola al-Mufradiya».

Ali Qushchi Markaziy Osiyo madaniyati va fani taraqqiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi.

\* \* \*

**Hoja Ahror** (1404—1490). Hazrat Hoja Ubaydulloh Ahror Shosh — Toshkent viloyati muzofotlaridan Bog‘istonda tug‘ilgan. 1490 yilda Samarqandda vafot etgan.

Dastlabki ma’lumotni Toshkentda olgan bo‘lajak mutasavvuf tasavvuf ilmi asoslarini donishmand 1428—1431 yillarda Hirotda

o‘rgangan. Hoja Bahouddin Naqshbandning shogirdi bo‘lgan Ya’qub Charxiyga qo‘l berib, undan ta’lim olgan.

1431—1432 yillar orasida Hoja Ahror Toshkentga qaytib, naqshbandiya tariqatini yanada rivojlantiradi. U dehqonchilik va tijorat ishlari bilan faol shug‘ullangan.

**Asarlari:** «Faqarot ul-orifin» («Oriflar so‘zlaridan parchalar), «Validiya» (Tariqat yo‘liga kirganlarning axloq odobi), «Havroiyya» (mashhur mutasavvuf shoir Abu Sa‘id Abdulkayrning (XI asr) «Havro» (hurlar) so‘zi bilan boshlanadigan ruboisiiga sharhlar.

\* \* \*

**Abdurahmon Jomiy** (1414—1492). Abdurahmon Jomiy Nishapur yaqinidagi Jom shahrida ruhoniy oilasida tavallud topgan. U o‘z umrini asosan Hirotda o‘tkazgan.

Jomiy boshlang‘ich ma’lumotini otasidan oladi. Hirotda yirik olimlar tomonidan o‘z bilimini oshiradi. So‘ngra u Samarqandga borib, Ulug‘bek madrasasida Ulug‘bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning ma’ruzalarini eshitgan.

Jomiy Shayx Sa’diddin Qoshg‘ariydan tasavvuf ilmidan dars olgan. Tez orada unga qo‘l beradi, so‘ngra o‘z pirining qiziga uylanadi. Alisher Navoiy Jomiyni o‘ziga pir va ustoz deb hisoblagan.

**Asarlari:** «Nafahot ul-uns», «Lujjat ul-asror», «Ashiat ul-lamaot», «Risolayi musiqiy», «Risolayi muammo», «Haft avrang», («Silsilat uz-zahab»), «Tuhfat ul-asror», «Suhbat ul-asror», «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Salomon va Absol», «Xiradnomai Iskandariy»).

Bulardan tashqari ko‘plab she’riy devonlar tuzgan.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega. U tasavvufning eng yirik arbobi bo‘lib, o‘z qarashlarini quyidagi asarlarida bayon qilgan: «Naqshi fusus» («Ma’nolar naqshi»), «Shavohidi nubuvva» («Payg‘ambarlikka dalillar»), «Naqshbandiya ta’limoti haqida risola», «Haj qilish yo‘llari haqida risola» va h.k.

Jomiy she’riyat nazariyasiga oid ko‘plab asarlar yozgan: «Risolayi aruz», «Sharhi bayt», «Masnaviy», «Sharhi ruboiyot», «Risolayi qofiya», «Risolayi muammoi manzum» va boshqalar. Musiqaga oid «Risolayi musiqiy» asari shuhrat topgan.

Shayx Sa’diy yo‘lidan borib Abdurahmon Jomiy «Bahoriston» deb nomlangan asar ham yaratgan.

\* \* \*

**Alisher Navoiy** (1441—1501). Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy Hirot shahrida tavallud topgan. 1466—1468 yillarda u Samarqandda yashagan, 1469 yili Husayn Boyqaro iltimosiga ko‘ra Hirotga qaytgan.

1472 yilda Boyqaro Navoiyni vazirlik lavozimiga tayinlaydi.

Hazrat Navoiy o‘z zamonasining yetuk mutafakkiri, shoiri, davlat arbobi ekanligi tarixdan ma’lum.

**Asarlari:** «Badoye’ ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»), «Vaqfiya» (1481 yil), «Xamsa». Bu asar 3 yilda — 1483—1486 yillarda yozib tugallangan. U beshta dostonni o‘z ichiga oladi: «Hayratul abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab’ayi sayyor» («Yetti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori»), «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog‘i»), «Holoti Sayid Hasan Ardashev», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat»), «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o‘lchovi»), «Xazoyin ul-maoniy» («Ma’nolar xazinasi»). «Chor devon» nomi bilan ma’lum bo‘lgan bu buyuk majmua 45 ming misraga yaqin she’rlarni o‘z ichiga oladi. Uning tarkibiga quyidagi asarlar kirgan: «G‘aroyib us-sig‘ar» («Bolalik ajoyibotlari»), «Navodir ush-shabob» («Yigitlik davri nodirliklari»), «Badoye’ ul-vasat» («O‘rtta yosh kashfiyotlari»), «Favoyid ul-kibor» («Keksalikdagi foydali mulohazalar»).

«Mufradot» risolasi, «Sittayi zaruriya», «Fusuli arbaa» turkum qissalari fors tilida yozildi. Ular 12 mingdan oshiq she’rlar va muammolardan iborat.

«Foniy» taxallusi bilan alohida devon tuzdi.

«Lison ut-tayr» (1499 yil); «Muhokamat ul-lug‘atayn» (1499 yil); «Mahbub ul-qulub» («Ko‘ngillarning sevgani»).

\* \* \*

**Davlatshoh Samarqandiy** (1435—1495 yollar). Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G‘oziy as-Samarqandiy taxminan 1435 yilda yirik harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. U Shoxruh va Husayn Boyqaroning harbiy yurishlarida ishtirok etgan.

**Asari:** «Tazkirat ush-shuaro» («Shoirlar tazkirasи»). Bu asar g‘oyat mashhur bo‘lib, uni yaratishda muallif o‘nlab manbalardan foydalangan. Tazkirada VII—XV asrlarda yashab ijod etgan 155 dan ortiq shoir haqida qisqacha ma’lumot berilgan.

\* \* \*

**Kamoliddin Behzod** (1455—1537). Butun musulmon Sharqi san’ati tarixida chuqur iz qoldirgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzod Hirotda tavallud topadi. Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo uni o’z tarbiyasiga oladi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh bo’lib yetishishida Alisher Navoiyning roli katta.

**Asarlari:** Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga ishlangan miniatyurlar, Husayn Boyqaroning majlislari tasvirlangan muraqqa’dagi 40 dan ortiq go’zal miniatyura, Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Absol» asariga ishlangan rasmlar, Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»siga ishlangan 33 ta miniatyura, Sa’diyning «Bo’ston» asariga ishlangan rasmlar, Nizomiy Ganjaviyning «Panj ganj»iga chizilgan miniatyurlar, Abdulloh Xotifiyning «Temurnoma» asariga chizilgan rasmlar, Sa’diyning «Guliston» asariga chizilgan miniatyurlar, Abdurahmon Jomiy tasviri, Husayn Boyqaro tasviri, Shayboniyxon tasviri, Shoh Taxmas tasviri, Shoit Abdulloh Xotifiy tasviri, Tuyalar jangi, Raqsi darvish (Darvishlar raqsi), Samarqandda madrasa qurilishi va bo-shqalar.

\* \* \*

**Xondamir** (1473—1534). G’iyosiddin Muhammad ibn Hoja Humomuddin ibn Hoja Jaloluddin Muhammad ibn Burhonud-din Xondamir Hirotda tug‘ilgan.

U ilm-fanning ko’pgina sohalarini puxta egallab o’z davrining taniqli tarixchi olimi bo’lib yetishgan.

Xondamirning olim bo’lib shakllanishida Alisher Navoiy katta rol o’ynagan. U Navoiy kutubxonasida xodim, keyinroq esa mudir bo’lib ishlagan.

**Asarlari:** «Ma’osir ul-muluk» («Hamasr podshohlarning tarixi»). Bu asarda ulug’ siymolarning naqlari keltirilgan; «Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor» («Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi»), «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar»), «Dastur ul-vuzaro» («Vazirlar uchun qo’llanma»), «Nomayi nomi» («Atoqli nomalar»), «Habib us-siyar» («Inson zoti xabarlari va do’stning tarjimayi holi»), «Humoyun-noma». Xondamir «Naqiy» taxallusi bilan she’rlar yozgan.

\* \* \*

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483—1530). Zahiriddin Muhammad Bobur Andijonda, Farg‘ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida tug‘ilgan.

Bobur adib, shoir, olim, ayni vaqtda, yirik davlat arbobi bo‘lib, Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan.

**Asarlari:** «Boburnoma», «Mubayyin» («Bayon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari, «Mubayn», «Mufassal».

\* \* \*

**Mahdumi A’zam** (1463—1542). Mahdumi A’zamning to‘liq ismi — Sayyid Ahmad Hojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy bo‘lib, u Farg‘ona vodiysining Koson shahrida tug‘ilgan.

U yirik diniy va siyosiy arbob, naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchisi edi.

Mahdumi A’zamni ko‘pgina sultonlar o‘zlarining piri deb e’lon qilganlar.

U tasavvuf nazariyasi, amaliyoti, xususan, naqshbandiya ta’limotini rivojlantirib, 30 dan ortiq kitoblar yozdi.

**Asarlari:** «Asror un-nikoh» («Nikoh sirlari»), «Ganjnama», «Risolat un-sam’iyyatun» («Samo risolasi»), «Bayoni zikr» (Zikr bayoni), «Risolayi silsilayi Xo‘jagon», «Sharhi g‘azali Ubaydiy», «Risolayi Naqshbandiyya», «Risolat un-vujudiyyatun» va boshqalar.

\* \* \*

**Abulg‘ozixon** (1605—1664). Abulg‘ozixon Urganchda tug‘ilgan. U kishi tarixnavis olim. U Xiva xoni Arab Muhammadxonning o‘g‘li bo‘lib, yigirma yil davomida Xivada hukmronlik qilgan. Tib ilmini ham yaxshi o‘rgangan, maxsus tibbiy asar ham yozib qoldirgan.

Abulg‘ozixon yaxshi hunar egasi, she’riyatni yaxshi bilgan, turli tillarni egallagan, o‘tgan podshohlar, ularning faoliyatlaridan yaxshi xabardor, bilimdon, ajoyib muarrix bo‘lgan.

**Asarlari:** «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima» («Turkmanlar tarixi»), «Manofe’ ul-inson». Bu asar tib ilmiga bag‘ishlangan.

\* \* \*

**Muhammad Sharif Buxoriy** (XVII asr). Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniy al-Alaviy al-Buxoriy (vafoti 1697 yil)

Movarunnahrning yirik mutafakkirlaridan biri, falsafa, tarix, she'riyat, huquq, tilshunoslik kabi sohalarni chuqr egallagan olim bo'lgan.

**Asarlari:** «Ar-risola ad-davriyya» («Davriylik haqida risola»), «Takammule at-tatime» («Takmilning to'ldirilishi»), «Tahzib», «Kitobi favodi hoqoniyya» («Hoqonga foydali maslahatlar kitobi»). Uning she'riy «Devon»i ham bo'lgan.

\* \* \*

**Turdi Farog'iy** (XVII asr). Turdi Farog'iy Jizzax hududidagi Farog' qishlog'ida tug'ilgan. Turdining hayoti va ijodi haqida tarihiy manbalarda yetarli darajada ma'lumotlar qolmagan. U «Farog'iy» taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan.

Turdining adabiy merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 tasi g'azal, 5 tasi muxammas va bittasi fard turiga oiddir. Turdi she'rlarining aksariyat qismini Subhonqulixon to'g'risidagi mashhur hajviyalar tashkil qiladi.

\* \* \*

**Boborahim Mashrab** (1640—1711). Boborahim Mulla Vali o'g'li Mashrab Namanganda bo'zchi-kosib Valibobo oilasida dunyoga kelgan. Mashrab din asoslari va falsafadan kuchli bilim sohibi bo'lgan.

Uning asarlari tasavvufiy-axloqiy yo'nalishda bitilgan. Ularda pir-murshidlar nomini hurmat bilan tilga oladi. Shu bilan birga hayotiy ishq-muhabbat mavzuyi ham Mashrab ijodida g'azal, mustahzod, murabba' va muxammaslarda aks etgan.

**Asarlari:** «Mabdayi nur», «Kimyo», shuningdek, she'riy majmualar.

\* \* \*

**So'fi Olloyor** (1644—1724). So'fi Olloyor Kattaqo'rg'on bekligiga qarashli Minglar qishlog'ida tavallud topgan. So'fi Olloyor dastlab Shayxlar qishlog'idagi diniy maktabda, so'ng Buxorodagi madrasalarda ta'lim olgan. So'fi Olloyor tasavvufni puxta o'rghanish natijasida shayxlik martabasiga ko'tarilgan.

**Asarlari:** «Maslak ul-muttaqiyin», «Sabot ul- ojizin», «Murod ul-orifin», «Siroj ul-ojizin», «Mahzan ul-muti'n», «Najot uttolibin» kabi asarlar yaratgan.

So‘fi Olloyor tasavvuf rivojiga katta hissa qo‘shtgan. Uning asarlari o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, til tarixini o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

\* \* \*

**Maxtumquli** (1733—1793). Mashhur turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli 1733 yilda dunyoga kelgan. O‘z ilmini oshirish uchun Xiva, Buxoro va Andijon madrasalarida tahsil olgan.

Maxtumquli tarqoq turkman qabilalarini birlashtirishni, yagona bir davlat barpo qilishni orzu qilgan.

Maxtumquli pandnomalarida inson o‘z mohiyati va qadrini bilishga, avlodlarning yaxshi xislatlarini egallashga da’vat etiladi, takabburlik, dilozorlik, mol-davlatga hirs qo‘yish kabi salbiy xislatlar qoralanadi. Uning asarlari asosan axloqiy-didaktik yo‘nalishga ega bo‘lib, kishilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalaydi.

Maxtumquli Ahmad Yassaviy, Hazrat Navoiy ijodiga katta havas bilan qaraydi.

\* \* \*

**Uvaysiy** (1779—1845). Jahon otin — Uvaysiy Marg‘ilon shahrinining Childuxtaron mahallasida dunyoga kelgan. Jahon otin o‘qimishli oilada o‘sib voyaga yetgan. Uning otasi to‘quvchi, kosiblik qilgan, o‘zbek va tojik tillarida she’rlar yozgan, onasi Chin-nibibi esa o‘z davrining donishmand ayollaridan bo‘lib, maktabdorlik bilan shug‘ullangan. Jahon otin xat-savodni oilada o‘rganigan, so‘ng onasining yonida maktabdorlik ishlariga ko‘maklashib tajriba orttirgan.

Shoiraning hayoti Marg‘ilon va Qo‘qon adabiy muhitida, iste’dodli adib va shoirlar davrasida o‘tgan. Uvaysiy Mohlaroyim — Nodira bilan ijodiy hamkorlikda badiiy asarlar yaratgan, saroyda she’riyat ilmidan dars berib, ustozlik qilgan.

1842 yili Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qonni egallagach, u Marg‘ilonga qaytib umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Shoiranining 4 ta devon tuzganligi ma’lum.

Shoira o‘z she’rlarida odamiylikni, vafodor yorni, muhabbatni, visolni kuylaydi.

**Asarlari:** «Devon», «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» lirik-epik asarlari; «Voqeoti Muhammad Alixon» (tarixiy doston).

\* \* \*

**Maxmur** (vafoti 1844 yil). Maxmur taxallusi bilan tanilgan Mahmud Mulla Shermuhainmad o‘g‘li XVIII asrning oxirgi chora-gida Qo‘qon shahrida ziyoli oilasida dunyoga keldi. Otasi Mulla Shermuhammad o‘zbek va tojik tillarida Akmal taxallusi bilan she’rlar yozib, ikkita devon tuzgan. U Umarxon saroyidagi ijodkorlardan biri bo‘lib, she’r ixlosmandlari o‘rtasida nom chiqargan edi.

Maxmur otasi tashkil etgan mushoiralarda, suhbatlarda ishtirok etar edi. Mahmur Qo‘qondagi Madrasayi Mirda tahsil ko‘rgan, fors tilini mukammal bilgan. Uning «Hapalak» she’ri mashhur.

\* \* \*

**Gulkaniy** (XVIII asr oxiri XIX asrning birinchi yarmi). Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti va ijodi to‘g‘risidagi ma’lumotlar deyarli yo‘q. U Qo‘qon adabiy muhitida ijod qilib, o‘zbek badiiy nasri taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan.

Amir Umarxon saroyidagi ijodkorlar bilan ijodiy hamkorlikda qalam tebratgan. Fazliy Namangoniy tuzgan «Majmuat ush-shuar» tazkirasida Gulxaniy asarlariga biroz o‘rin berilgan.

Gulkaniy Jur’at taxallusi bilan ham forsiyda she’rlar bitgan. U o‘zining «Zarbulmasal» asari bilan keng shuhrat topgan.

\* \* \*

**Munis Xorazmiy** (1778—1829). Yirik o‘zbek shoiri, tarixnavis olim, tarjimon, xattot va ma’rifatparvar Amir Avazbiy o‘g‘li Shermuhammad Munis Xivada tug‘ilgan.

U tarixiy asarlar yozgan, shoir sifatida devon tuzgan, tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Pedagog sifatida yoshlarga atab «Savodi ta’lim» nomli risola yozgan.

Shermuhammad Munis badiiy ijodning ko‘pgina sohalarida barakali faoliyat ko‘rsatgan.

**Asarlari:** «Savodi ta’lim». Unda xattotlik qoidalari bayon qilingan. «Munis ul ushshoq» (devon), «Firdavs ul-iqbol» (tarixiy asar), Mirxondning «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarining birinchi jildini o‘zbek tiliga tarjima qiladi.

\* \* \*

**Ogahiy** (1809—1874). Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li — Ogahiy Xiva atrofidagi Qiyot qishlog‘ida tug‘ilgan. Undan boy ijodiy meros qolgan.

**Asarlari:** «Bayozi mutafarriqayi forsiy» (bayoz), «Riyoz ud-davla», «Jome' ul-voqeoti Sultoniy», «Zubdat ut-tavorix», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» (tarixiy asar), «Qasidayi nasihat» (Feruzga bag'ishlangan).

Ogahiy tarjima ishlari bilan ham shug'ullangan. Sa'diy Sherziyning «Guliston», Nizomiyning «Haft paykar», Hiloliyning «Shoh va gado», Kaykovusning «Qobusnama», Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Jomiyning «Yusuf va Zulayho» kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan.

\* \* \*

**Komil Xorazmiy** (1825—1899). Pahlavon Niyoz Muhammad — Komil Xorazmiy Xivada muddaris Abdulla Oxun oilasida tug'ildi. Komil — shoirning adabiy taxallusi. U maktabni tugatgach, Xivadagi madrasalardan birida o'qigan. U musiqa va xattotlik san'atini ham yaxshi egallagan.

Feruzxon (1865—1910) davrida mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida ishlagan. Uning ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinni egallaydi.

**Asarlari:** «Kamol», «Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkand», «Tillo soat», «Toshkent» (qasida), «Tanbur chiziqlari» nomli notani birinchi bo'lib yaratgan. «Rost» maqomining bosh qismini notaga tushirgan. «Murabbayi Komil», «Peshravi Feruz» singari kuylarni notaga solgan.

**Asarlari:** «Alg'iyyos», «Zi bedodi gardun», «Dod az dasti charxi dun» (forsiy g'azallar), «Ta'mo», «Ro'za», «Mullo imom» (o'zbek adabiyotidagi eng yaxshi an'analarni yorqin ifodalagan asarlar)

\* \* \*

**Ahmad Donish** (1827—1897). Ahmad Donishning to'liq ismi Ahmad ibn Mir Nosir Ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy bo'lib, Buxoro shahrida tug'ilgan. Ahmad Donish falsafa, ijtimoiy-siyosiy, badiiy yuksak asarlar yaratgan. U astronomiya bilan astoydil shug'ullangan, xattotlik va me'morchilik bilan ham mashg'ul bo'lган. U ma'lum vaqt Buxoro amiri Amir Nasrulloh (1827—1860) saroyida xizmat qilgan, uch marta elchilar tarkibida Peterburgda bo'lib, g'arb madaniyati bilan yaqindan tanishgan.

**Asarlari:** «Majmuayi hikoyati Ahmadi Kalla», «Munozir al-Kavokib» («Yulduzlarni kuzatish»), «Risolat dar ilmi kurra» («Glo-

bus haqida risola»), «Iztig‘roji bul va arzi balat» («Joylarning uzunligi va enini o‘lchash»), «Navodir ul-vaqoye», «Risolayi muxtasare az tarixi sultanati xonadoni mang‘itiya». Bu asar Buxorodagi Mang‘it sulolalarining hokimiyati tarixiga bag‘ishlangan.

\* \* \*

**Berdaq** (1827—1900). Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokratik shoiridir. U XIX asrda yashab ijod etgan. Berdaq xalq qo‘sishqlari va dostonlarini qiziqib o‘rgangan. U yoshligidanoq she’r yoza boshlagan. O‘z she’rlariga kuy bastalab, baxshi sifatida xalqqa tanilgan.

Uning she’r va dostonlari xalq ommasining turmushini haqqoniy aks ettirgan. U adolatsizlikni qoralagan.

**Asarlari:** «O mongeldi», «Xalq uchun», «Aydosbiy», «Yaxshiroq», «Bo‘lgan emass», «Ernazarbiy» asarlarida xalqning xonlarga qarshi kurashi, milliy-ozodlik harakati aks etadi.

Berdaq «Izladim», «Xalq uchun», «Yaxshiroq», «Menga kerak» kabi she’rlarida halol mehnat sohiblarining faoliyatini ulug‘laydi.

U o‘zining «Ahmoq podsho» dostonida ayrim boylarning kir-dikorlarini aks ettirib, buning oqibatida xalqning sabr kosasi to‘lib-toshganlini tasvirlagan.

Uning merosida insonparvarlik, mehr-shafqat, mustaqillik, haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy g‘oyalar aks etgan.

\* \* \*

**Cho‘qon Valixonov** (1835—1865). Cho‘qon Chingiz o‘g‘li Valixonovning asl ismi — Muhammad Hanaviya bo‘lib, Qozog‘istonning hozirgi Qustanay viloyatida Ko‘chmurin degan joyda tu-g‘ilgan. U chig‘atoy, arab va boshqa tillarni chuqur egallagan.

1847 yili 12 yashar Cho‘qonni otasi Omskdagi kadetlar korpusiga o‘qishga bergan. U 1861—1862 yillarda Peterburg universitetining tarix-filologiya fakultetida o‘qigan. Xitoy, Markaziy Osiyoga uyushtirilgan ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan, sayohatlarda bo‘lgan. Rossiya Fanlar akademiyasi va Rus jug‘rofiya jamiyati ishlarida faol qatnashgan.

**Asarlari:** «Jung‘ariya tarixi», «Qo‘lja safari kundaligi», «Qash-qar safari kundaligi», «Qirg‘izlar», «Xon Abiloy», «Xitoy imperiyasining g‘arbiy o‘lkasi va G‘ulja shahri», «Ko‘kitoy xon-

ning oshi», «Dala musulmonligi», «Qozoqlar haqida yozmalar», «Sud reformasi haqida».

\* \* \*

**Abay** (1845—1904). Abay Ibrohim Qo‘nonboyev — XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan qozoq she’riyatining yirik vakili, bastakor, faylasuf, ma’rifatparvar, badiiy adabiyot namoyandası. U Semipalatinsk viloyatining Qashqabuloq degan joyida tug‘ilgan.

**Asarlari:** «Mening elim — qozog‘im», «Adashganning oldi yo‘q», «Ilm topmay maqtanma», «Yoshlikdagi ilm deb o‘yladim», «Boylar yurar molin ardoqlab», «Internatda o‘qiydi».

Abaydan 300 ga yaqin she’riy asar meros bo‘lib qolgan. Uning «Iskandar», «Ma’sud», «Azim hikoyasi», «Vadim» kabi dostonlari mashhur.

\* \* \*

**Feruz — Muhammad Rahimxon II** (1844—1910). Feruz — Muhammad Rahim Xivada tug‘ilgan. U o‘zbek adabiyoti tarixida munosib o‘ringa ega adiblardan biri hisoblanadi. Uning ustozи Oga-hiy bo‘lgan.

U 1863 yildan Xiva xonligi taxtiga o‘tirgan. Feruz o‘z faoliyatida fan-madaniyat rivojiga katta ahamiyat bergen, o‘zi ham she’rlar yozgan, ashulalar ijro etgan.

**Asarlari:** «G‘azaliyoti Feruz», «Bayozi Feruz», «Devoni Feruz».

Feruz xonlik qilgan davrda ilm-fan, madaniyat, adabiyot rivoj topgan. Feruz farmoni bilan Alisher Navoiyning «Chor devon», «Xamsa» singari asarlari ilk bor nashr etilgan. Feruz 1871 yilda yangi madrasa qurdirgan, bir necha kutubxona, darsxonalarini ishga tushirgan.

\* \* \*

**Sattorxon Abdug‘afforov** (1843—1901). Sattorxon Abdug‘afforov Markaziy Osiyoda ijtimoiy tafakkurni rivojlantirishda katta rol o‘ynagan mutafakkirlardan biridir. U Chimkent shahrida yirik mudarris oilasida tug‘ilgan. Sattorxon 1876 yili aprel oyida Qo‘qon shahriga qozi bo‘lib tayinlangan. 1879 yili Qo‘qon shahar bilim yurtining faxriy nazoratchisi qilib tasdiqlangan. U 1883 yilda «Turkiston viloyatining gazetasi»ga tarjimon bo‘lib ishga kirgan.

1884—1889 yillarda Toshkent o‘qituvchilar seminariyasida o‘zbek va fors tillaridan dars bergan. U rus tilini chuqur egallagan ma’rifatparvar bo‘lgan.

1883 yilda Sattorxon Chimkentga kelib qozilik ishini davom etdirgan. Keyinchalik yana Toshkentga qaytgan va ma’rifatparvarlik faoliyati bilan astoydil shug‘ullangan.

**Asarlari:** «Musulmon eshonlar», «Rossiya istilosiga qadar Qo‘qon xonligining ichki ahvoli haqida qisqacha ocherk».

Sattorxon Chor Rossiyasining «ruslashtirish» siyosatini keskin qoralagan,adolatsizlikka nafrat bilan qaragan. Sattorxon o‘zbek xalqining mustaqillik uchun olib borgan kurashlariga o‘zining munosib hissasini qo‘sghan.

\* \* \*

**Muqimiy** (1850—1903). Muhammad Aminxo‘ja — Muqimiy lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Muhammad Aminxo‘ja Qo‘qonnинг Begvachcha mahallasida tug‘ilgan.

Dastlabki savodini mahalla maktabida chiqargan, keyinchalik shahardagi «Hokim oyim» madrasasida o‘qigan. Muqimiy 1872—73 yillarda Buxoroga borib, «Mehtar oyim» madrasasida tahsil olishni davom ettirgan.

Muqimiy Qo‘qonda shoirlardan Muh’yi, Zavqiy, Nisbatiy, Furqat va boshqalar bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qilgan.

**Asarlari:** «Sayohatnoma», «Ey chehrasi tobonim», «Emdi sendek, jono, jonon qaydadir», «Tokim, jono, jilva bunyod aylading», «Tanobchilar», «Voqeayi ko‘r Ashurboy hoji Maskovchi boy», «Saylov», «Veksel», «Urug‘», «Dodoxohim», «Asrorqul», «To‘y», «Lyaxtin» va boshqalar.

Vatanga sadoqat, ona-yurtga, xalqqa muhabbat va iftixon Muqimiy asarlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi.

\* \* \*

**Furqat** (1859—1909). Zokirjon Furqat Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. O‘zbek demokratik adabiyotining yirik vakili, ma’rifatparvar, lirik shoir, otashin publisist sifatida shuhrat qozongan. Furqat yoshligidan adabiyotga, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiga katta mehr qo‘yan. Furqat, ayni vaqtida, tijorat ishlari bilan ham shug‘ullangan. Yangi Marg‘ilonga borib, tog‘asining iltimosiga

binan savdo ishlarida faol qatnashgan. «Furqat, ya’ni, ayriliq» taxallusi bitan she’rlar ijod qilgan.

Furqat Yangi Marg’ilonda ijodkor sifatida xalq hayoti bilan yaqindan tanisha boshlagan. Bu yerdagi yevropacha hayot tarzi, zamonaviy fan-texnika yangiliklari unga chuqur ta’sir ko’rsatgan.

Asarlari: «Hammomi xayol» risolasi, «Chor darvesh» hikoyati ni forschan dan tarjima qiladi. «Nuh manzar» nomli she’riy to’plam, «Ulm xosiyati», «Akt majlisi xususida», «Vistavka xususida», «Sayding qo’yuber, sayyod», «Hajnama», «Adashganman», «Kashmirda», «Bulbul», «Masarratnama» (masnaviy), «Qasida», «Rumolik qiz hikoyati», «Furqatning ahvoli» (nasriy asar). Furqat bir necha vaqt «Turkiston viloyatining gazeti»da xodim bo’lib ishladi.

Furqat 1893 yilning martida uyg’ur o’lkasiga keladi, Yorkent shahrida turg’un bo’lib qoladi, shu yerda vafot etadi.

\* \* \*

**Zavqiy** (1853—1912). Ubaydullo Zavqiy Qo’qon shahrida tavallud topgan. U o’z ijodiy faoliyatini g’azallar yozishdan boshlagan. Ijodiy faoliyati davomida ko’plib hajviy asarlar yaratgan.

Asarlari: «Kajdor zamona», «Ajab zamona», «Abdurahmon shuyton», «Muncha ko’p», «Yangiqo’rg’on qishlog’i», «Suv janjali», «Shohimardon sayohati», «Eshon», «Voqeayi qozi saylov», «Ajab ermas», «Ta’rifi kalish», «Otim», «Fonus», «Sigirim», «Pushshalar» va boshqalar.

\* \* \*

**Mahmudxo’ja Behbudiy** (1875—1919). Turkiston jadidchilik harakatining asoschilaridan biri Mahmudxo’ja Behbudiy Samarqand yaqinidagi Baxshirepa qishlog’ida ruhoniyl oilasida tavallud topgan. Otasi Behbudxo’ja Solixo’ja o’g’li Ahmad Yassaviyning avlodlaridan bo’lgan.

1899 yilda Behbudiy haj safariga, 1903—1904 yillarda Rossiya boradi. Behbudiy yangi maktablar uchun darsliklar yozgan ma’rifatparvardir.

Asarlari: «Risolayi asbobi savod» (1904), «Risolayi jug’rofiyaiy umroniy» (1905), «Risolayi jug’rofiyai Rusiy» (1905), «Kitobat ul-atfol» (1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909), «Padarkush» dramasi, «Xotiralar» (Yaqin Sharqqa sayohat yakunlari), «Ishlarning yaxshisi — o’rtachasidir», «Ikki emas, to’rt til lozim» (maqola).

1913 yildan Behbudiy matbuot sohasida keng faoliyat ko'rsata boshlagan. «Samarqand» gazetasi, «Oyina» jurnalini chiqargan.

Mahmudxo'ja Behbudiy milliy mustaqillik uchun kurashgan, shu yo'lida o'z jonini qurbon qilgan yirik jamoat arbobi, mutafakkiri, ma'rifatparvari sifatida xalqimiz tarixida munosib o'rin tutadi.

\* \* \*

**Munavvarqori Abdurashidxonov** (1878—1931). Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda ziyoli oilada tug'ilgan. Dastavval Toshkentdagi Yunusxon madrasasida, so'ng Buxoroda o'qigan. 90-yillarda u jadidchilik harakatida faol ishtirok etgan. 1901 yilda Toshkentda «Usuli jadid» mакtabini ochgan. Bu maktablar uchun o'zi «Adibi avval», «Adibi soniy» kabi alifbo va xrestomatiyalar, «Tavjid al-Qur'on» («Qur'on qiroati»), «Yer yuzi» («Geografiya») singari qo'llanmalar tuzib nashr etgan.

Munavvarqori 1906 yildan chiqa boshlagan «Taraqqiy» gazetasining asoschilaridan biri bo'lgan. O'sha yili Munavvarqori o'zi «Xurshid» gazetasini chop eta boshlagan. U «Sadoyi Turkiston» (1914—15)ni nashr etishda katta tashabbus ko'rsatgan. 1917 yil martida «Najot» gazetasini nashr qilib, ayni vaqtida «Kengash» jurnaliga muharrirlik qilgan.

Munavvarqori yoshlarning chet elda o'qib kelishini yoqlagan, jahon madaniyati va ma'rifati boyliklaridan bahramand bo'lish g'oyasini targ'ib qilgan.

\* \* \*

**Abdulla Avloniy** (1878—1934). Abdulla Avloniy o'zbek milliy madaniyatining yirik namoyandası, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi. U Toshkentda tug'ilgan. Maktabda, so'ng madrasada tahsil olgan, arab, fors, rus tillarini chuqur egallagan.

Avloniy jadidchilik harakatining faollaridan bo'lib, yangi usulda maktablar ochgan, ularda o'zi dars bergan, darsliklar, o'quv qo'llanmalari yozgan. U «Taraqqiy», «Shuhrat» (1907), «Osiyo» (1908), «Turon» (1917) gazetalarini nashr etgan. Avloniy 1927 yili Mehnat Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. 1930—34 yillarda O'rta Osiyo davlat universitetida kafedrani boshqargan.

**Asarlari:** «Birinchi muallim» (1911), «Ikkinci muallim» (o'quv kitobi), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (darslik, 1913), «Maktab gulistoni» (1916), «Mardikorlar ashulasi» (1917), «Sabzavor» taz-

kirasi (1914), «Hurriyat marshi» (1919) she'ri, «Afg'on sayohati», «Advokatlik osonmi?» (1914) dramasi, «Pinak» (1915) komediyasi, «Biz va siz», «Ikki sevgi» (fojeiy asar).

1913 yilda Avloniy «Turkiston» teatr truppasini tuzgan, O'zbekistonda zamonaviy teatr san'ati shakllanishiga katta hissa qo'shgan.

\* \* \*

**Avaz O'tar** (1884—1919). Avaz O'tar o'g'li Xiva shahrida tug'ilgan. Yosh shoir o'zining ijodiy qobiliyati bilan tezda Xiva xoni Feroz nazariga tushgan.

Avaz O'tar g'oyat iste'dodli shoir bo'lib, adabiyotning deyarli barcha janrlarida asarlar yaratgan. Uning she'rlarida ma'rifatparvarlik g'oyalari o'z ifodasini topgan.

**Asarlari:** «Til», «Maktab», «Xalq», «Fidoyi xalqim», «Topar ekan qachon», «Hurriyat», «Sipohiylarga», «Ulamolarga» (kelajak haqidagi, ozodlik va baxtli hayot haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan), «Hurriyat» (1917), «Saodat ul-iqbol».

\* \* \*

**Fitrat** (1884—1938). Abdurauf Fitrat Buxoroda tavallud topgan. Fitrat — Abduraufning taxallusi bo'lib, «tug'ma iste'dod» degan ma'noni bildiradi.

U Mirarab madrasasida tahsil olgan, fors va o'zbek tillarini chuqur bilgan, arab tilini mukammal o'rgangan. U Turkiyaning Istanbul shahrida o'z bilimini oshirgan. Yevropa fan-madaniyati yutuqlari bilan yaqindan tanishishi uning dunyoqarashiga chuqur ta'sir etgan. U diniy aqidaparastlikka ko'r-ko'rona taqlid qilishni keskin tanqid qilgan. Ayni vaqtida, maktab-maorifni va Turkistondagi boshqarish usulini isloh etish g'oyalarni ilgari surgan.

**Asarlari:** «Sayha» («Bong» 1910 yilda Istanbulda nashr qilin-gan), «Hind sayyohining qissasi» (Istanbul, 1912), «Uchqun» (to'plam), «Chin sevish» — drama, «Hind ixtilochilar» — fofja (1920), «Abulfayzxon» — fofja (1924), «Arslon» (pyesa), «Qiyomat» (1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (1924), «Ro'zalar», «Me'roj», «Zayd va Zaynab», «Zaynabning imoni», «Oq mozor», «Qiyshiq eshon».

\* \* \*

**Sadriddin Ayniy** (1878—1954). Sadriddin Ayniy o'zbek va tojik adabiyotlari taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan «zullisonayn» yozuvchidir.

Sadriddin Ayniy Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumaniga qarashli Suktare qishlog‘ida tug‘ilgan. Boshlang‘ich tahsilni ota-sidan olgan Sadriddin Buxoro madrasalaridan biriga borib o‘qishni davom ettirgan. O‘sha davrda chop etilgan adabiyotlarni chuqur o‘rganib, badiiy ijod sirlarini egallagan. U o‘zining dastlabki asarlaridayoq amirlik tuzumi chiriganligini, uning boshqarish usulini yangilash zarurligini, demokratik islohotlar o‘tkazish, xalqqa ma’rifat berish lozimligini anglab yetgan. Ana shu tarzda Ayniy yosh buxoroliklar harakatiga qo‘shilgan. Sadriddin Ayniy yangi usuldagи mакtablar ochishda tashabbuskorlardan biri bo‘lgan. Shu maqsadda 1909 yilda «Tazhib us-sibiyon» («Bolalar tarbiyasi») degan o‘qish kitobini yozib chop etadi.

**Asarlari:** «Guli surx», «Bazm», «Yoshlarga murojaat», «Hasrat», «Na o‘ldi, yorab», «Moziy va hol», «Yerni yana sotmang» singari she’rlar; «Har bir millat o‘z tili ila faxr etar» (maqola), «Sudxo‘rning o‘limi» (qissa), «Qullar», «Doxunda» (romanlar).

\* \* \*

**Hamza Hakimzoda Niyoziy** (1889—1929). Yirik ma’rifatparvar, shoir, o‘qituvchi, jamoat arbobi, o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasи Hamza Hakimzoda Niyoziy Qo‘qonda tabib oilasida tug‘ilgan. U ma’rifatparvar sifatida xalq o‘rtasida shuhrat topgan, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida maktablar ochgan, bolalar uchun o‘sha davrda juda kamyob bo‘lgan darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratgan. Hozirgi zamon o‘zbek badiiy adabiyoti, musiqasi, teatr san’ati rivojlanishiga katta hissa qo‘sghan. Hamza asarlarida XX asr boshlarida O‘zbekistonda yuz bergen o‘ta murakkab voqealar o‘zining badiiy ifodasini topgan.

**Asarlari:** «Milliy ashulalar uchun milliy she’rlar majmuasi» (1915—1917), «Zaharli hayot» (1916), «Paranji sirlari» (1927), «Maysaraning ishi» (1929) kabi dramatik asarlar, «Devon» (1905), «Yengil adabiyot», «O‘qish kitobi», «Qiroat kitobi» (1914—1915) kabi darsliklar, «Yangi saodat» (povest), «Gul» turkumidagi ashulalar to‘plami, «Feruzaxonim», «Ilm hidoyati», «Loshman fojiasi» (drama-komediyalar), «Zaharli hayot» (drama), «Turkiston muxtoriyati» (she’r).



## ADABIYOTLAR

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O‘zbekiston», 1998.

*I. A. Karimov.* O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. — Toshkent, «O‘zbekiston», 1996.

*I. A. Karimov.* Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. — Toshkent, «O‘zbekiston», 2001.

Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. — Toshkent, 2000.

Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. — Toshkent, «Sharq», 1998.

*Y. Jumaboyev.* O‘zbekistonda falsafiy va axloqiy ta’limotlar taraqqiyoti tarixidan. — Toshkent, «O‘qituvchi», 1997.

*\* A. Ibrohimov, H. Sultonov, N. Jo‘rayev.* Vatan tuyg‘usi. — Toshkent, «Sharq», 1996.

*N. Komilov.* Tasavvuf. I kitob. Toshkent, «Yozuvchi», 1996.

*M. Mahmudov.* Ahli dil (Ma’naviy olam sirlari). — Toshkent, «O‘qituvchi», 1997.

*T. Mahmudov.* Mustaqillik va ma’naviyat. — Toshkent, «Sharq», 2001.

*O. Musurmonova.* Ma’naviy qadriyatlar va yoshtar tarbiyasi. — Toshkent, «O‘qituvchi», 1996.

*S. Otamurodov, J. Ramatov, O. Husanov.* Ma’naviyat asoslari. Toshkent, 2002.

Falsafa. Qomusiy lug‘at. — Toshkent, «Sharq», 2004.

*I. Ergashev.* Davlat siyosati va ma’naviyat. «Milliy tiklanish», 1997, 13 may.

*A. Erkayev.* Ma’naviyat — millat nishoni. Toshkent, «Ma’naviyat», 1997.

## MUNDARIJA

Kirish ..... 3

### *Birinchi bob*

#### MA'NAVIYAT VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI

✓ 1.	Ma'naviyat, uning mohiyati va mazmuni .....	1
✓ 2.	Ma'naviyat va ma'naviy hayotning asosiy tushunchalari .....	11
3.	Ma'naviyat va ma'naviy meros.....	33
4.	Milliy va umuminsoniy ma'naviyat, ularning o'zaro munosabati .....	40
5.	Ma'naviyat va siyosat, iqtisod, huquq, mafkura, din .....	49

### *Ikkinci bob*

#### BARKAMOL INSONNING MA'NAVIY FAZILATLARI

1.	Ma'naviy barkamol inson tushunchasi .....	62
2.	Vatanparvarlik va insonparvarlik — shaxs ma'naviy qiyofasining mezoni .....	71
3.	Milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va millatga sadoqat — yuksak ma'naviy burch .....	77
4.	Ilyon, mehr-shafqat, poklik va halollik — shaxsning oljanob fazilatlari .....	83
5.	Ota-onaga izzat-hurmat, oilaga sadoqat va g'amxo'rlik — shaxs ma'naviyatining yuksak ifodasi .....	91
<i>Ilova.</i>	Ma'naviyatimiz tarixining buyuk namoyandalari .....	93
	Adabiyotlar .....	127

*Erkin Umarov, Mahmud Abdullayev*

#### MA'NAVIYAT ASOSLARI

«Cho'pon» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2006

Muharrir	<i>N. Usmonova</i>
Badiiy muharrir	<i>J. Gurova</i>
Texnik muharrir	<i>T. Smirnova</i>
Musahhih	<i>M. Akromova</i>
Kompyuterda sahifalovchi	<i>A. Yuldasheva</i>

Bosishga da ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^{\prime\prime}_{16}$ . «Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 8,0. Nashr t. 10,0. Jami 1000 nusxa. Buyurtma № 136.

«ARNAPRINT» MChJda sahifalanib chop qilindi.  
Toshkent sh., H. Boyqaro ko'chasi, 41.



### ERKIN UMAROV

Falsafa fanlari doktori, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti professori. «Obrazlar dunyosida», «Janr estetikasi», «Estetika» (o'zbek va rus tillarida), «Estetika asoslari», «Культурология», «Этика» (rus tilida) kabi darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarining muallifi va hammuallifdir.

### МАHMUD ABDULLAYEV

Falsafa fanlari doktori, professor. Farg'on'a davlat universiteti falsafa kafedrasi mudiri. Madaniyat falsafasiga bag'ishlangan «Estetik madaniyat», «Estetika tarixi», «Madaniyatshunoslik», «Madaniyatshunoslik asoslari», «Ma'naviyat va madaniyat tarixi» «Ma'naviyat», «Введение в культурологию», «Эстетика», «Культурология» kabi ilmiy asarlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi va hammuallifdir.

